jarayon xulq-atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi hamda o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zamidida takomillashib boradi. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratni tanlashda kasbga oid nazariy hamda amaliy bilimlarni egallash, pedagogik jamoa bilan doimiy muloqotda bo'lish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, yoki kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini topish imkoniyatlari kengayadi.

Umuman olganda yangi pedagogik texnologiyalar, metodlar va usullarni qo'llab, o'quvchilarning yanada sifatli ta'lim olishiga erishish mumkin. Buning uchun iloji boricha metodlarning turli xillarini qo'llash ma'quldir. Shunda o'quvchilar uchun dars mazmunini tushunish oson va qiziqarli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil, 6-son, 70-modda.
2. Бодалев, А.А. Вершина в развитии взрослого человека: характеристики и условия достижения [Текст] / А.А. Бодалев. – М. : Флинта: Наука.
3. Malikov Sh., Zamonaviy metod turlari / www.xovos13-maktab.zn.uz
4. Халилов, Ш. З., Тожибоев, Б. Т., Умаров, Э. С., & Кучкоров, Б. У. (2019). Прием и хранение зерновой смеси, поступающей после комбайнов. *Журнал Технических исследований*, (2).
5. Qo'chqarov, B. U., Tojiboyev, B. T., & Axtambayev, S. S. (2021). EXPERIMENTAL DETERMINATION OF THE GAS CONSUMPTION SENT TO THE DEVICE FOR WET DUSTING IN THE HUMID MODE. *Экономика и социум*, (6-1), 226-229.
6. Кочкаров, Б. У. (2021). УЛУЧШЕНИЕ ПРОМЫШЛЕННЫХ УСТРОЙСТВ ДЛЯ ОЧИСТКИ ПЫЛЕ И ГАЗА. *Scientific progress*, 2(1), 1714-1717.
7. Халилов, Ш. З., Тожибоев, Б. Т., & Кучкаров, Б. У. (2020). ПРИЧИНА СКАЧКОВ ПРИ ТРЕНИИ. *Журнал Технических исследований*, 3(1).
8. Маткаримов, Ш. А., Зияев, А. Т., Тожибоев, Б. Т., & Кучкаров, Б. У. (2020). ПОКРЫТИЕ ЗАДВИЖЕК И ЗАПОРНОЙ АРМАТУРЫ ТЕПЛОВЫХ СЕТЕЙ ЖИДКИМ ТЕПЛОИЗОЛЯЦИОННЫМ ПОКРЫТИЕМ. *Universum: технические науки*, (12-5 (81)).
9. Эргашев, Н. А., Маткаримов, Ш. А., Зияев, А. Т., Тожибоев, Б. Т., & Кучкаров, Б. У. (2019). Опытное определение расхода газа, подаваемое на пылеочищающую установку с контактным элементом, работающим в режиме спутникового вихря. *Universum: технические науки*, (12-1 (69)).
10. Qo'Chqarov, B. U. B., & O'G'Li, A. T. L. (2021). MASHINASOZLIKDA METALL KESISH DASTGOHLARINING MEKANIK ISHLOV JARAYONIDA VUJUDGA KELADIGAN

VIBRATSIYA SABABLARI VA UNI BARTARAF ETISH MUAMMOLARI. *Scientific progress*, 2(6), 905-909.

11. Orinova, N. M. (2021). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNI KREATIVLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(9), 394-399.

12. Шокирова, М. М. (2020). BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH-TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA. *Журнал Физико-математические науки*, 1(2).

13. Qo'chqarov, B. (2021). IMPROVEMENT OF INDUSTRIAL DUST AND GAS WET CLEANING DEVICES. *Интернаука*, (26), 81-82.

14. O'rinova, N. M., & Yo'Ldosheva, D. A. Q. (2021). Oliy o 'quv yurti talabalarida kreativ kompetentlikni rivojlantirishda faol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning mazmuni va samarali yo 'llari. *Science and Education*, 2(12), 755-766.

15. O'Rinova, N. M., & Yo'Ldosheva, D. A. Q. (2022). OLIY O 'QUV YURTI TALABALARIDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA FAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA SAMARALI YO'LLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 97-105.



SELECTION OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS AND TRAINING IN TECHNICAL AND TACTICAL MOVEMENTS

Eshquvvatov Abdumumin Keldibek ugli¹

Anqaboyev Dilmurod Bahtiyorovich²

Jizzakh State Pedagogical Institute

KEYWORDS

selection,
study groups,
simulation exercises,
ball exercises,
individual,
pair and group exercises

ABSTRACT

The article considers such important tasks as the selection of volleyball players into groups and their preparation for physical, technical, tactical and competitive activities.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6634049

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Master of Jizzakh State Pedagogical Institute, Jizzakh, UZB

² Master of Jizzakh State Pedagogical Institute, Jizzakh, UZB

YOSH VOLEYBOLCHILARNI TANLASH XUSUSIYATLARI VA TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARGA O'RGATISH

KALIT SO'ZLAR:

tanlash,
o'quv guruhleri,
simulyatsiya mashqlari,
to'p bilan mashq qilish,
individual,
juftlik va guruh mashqlari

ANNOTATSIYA

Maqolada voleybolchilarni guruhlariga saralash, ularni jismoniy, texnik, taktik va musobaqa mashg'ulotlariga tayyorlash kabi muhim vazifalar ko'rib chiqiladi.

Dolzarbliligi va uning asoslanishi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Dunyo miqyosida oxirgi yillarda volebol sport turini ommaviylikini va boshqa sport turlari orasida o'zining munosib o'rnini egallagan. Jahonda hozirgi kunda volebolchilarning morfofunksional ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda ularning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish, musobaqa faoliyati sharoitlarida texnik-taktik harakatlar samaradorligini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar olib borilmoqda.

So'nggi yillarda har xil sport turlarida sportchilarning umumiy va maxsus koordinatsion qobiliyatlarini takomillashtirish masalalari yuzasidan katta nazariy va tajriba materiallari to'plangan. Biroq volebol sport turida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar sanoqlidir.

Yillik tayyorgarlik siklining turli bosqichlarida volebolchilar qobiliyatlarini tashhislash va rivojlantirish vositalari hamda uslublarini ishlab chiqish bilan bog'liq masalalar yetarlicha o'rganilmagan.

Voleybol o'yiniga o'rgatish 10—12 yoshdan boshlanadi. O'quv guruhlariga sportchilarni tanlab olish bilan bir vaqtda har tomonlama jismoniy tayyorgarlik voleybolchilarning asosiy texnikasi, taktikasi va musobaqaviy faoliyatiga o'rgatish masalalari hal qilib olinadi. O'yin bilan ilk tanishuv tayyorlovchi va voleybolga yaqin harakatlari o'yinlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, o'yinning asosiy usuli bo'lgan to'p uzatish quyidagi mashqlar yordamida mustahkamlanadi: «Uzatdingmi-o'tir», «To'p o'rtadagiga», «To'p xavoda» va hokazo.

Texnika va yakka taktik harakatlarga o'rgatish holat va maydoncha bo'ylab harakatlanishdan boshlanadi. Takomillashtirish harakatlarini murakkablashtirish orqali amalga oshiriladi.

To'pni o'yinga kiritish, to'pni pastdan to'g'ri va yonlama kiritishni o'rgatishdan boshlanadi.

Maxsus mashqlar quyidagi tartibda o'rgatiladi:

6 - 8 m masofadan to'pni devorga uzatish.

Qatordagi sherigiga (to'rsiz) to'pni uzatish.

Qisqa masofadan to'r ustidan to'pni o'yinga kiritish.

Ma'lum bir yo'nalishda o'z chizig'idan o'yinga kiritish.

Xuddi shu faqat o'yinga kiritish joyidan, ma'lum bir muddatga.

Turli hududlarga navbat bilan to'pni o'yinga kiritish.

Aniqlik hisobga olib, tezda o'yinga kiritish.

To'pni o'yinga kiritish taktikasini takomillashtirish ularning o'quv mashg'ulot o'yinlari va musobaqalardagi samaradorligi va muntazamligini doim nazorat qilgan holda olib boriladi.

To'pni o'yinga kiritishdagi xatolar.

Nomustahkam boshlang'ich va to'pni yuqoriga notekis otish.

Qo'lni yetarli darajada siltamaslik va zarbani bukilgan qo'l bilan berish.

Kaft bilan to'pni noto'g'ri urish.

To'pni uzatishga o'rgatish o'rta holatda tayyorlovchi, maxsus mashqlar yordamida amalga oshiriladi. O'rganuvchi yuqoridan o'yinga kiritish texnikasini aniq tasavvur qilishi.

So'ngra murakkabroq to'p uzatishlar, sakrab, zarba berganday harakat qilib to'p uzatish, yiqilib elkaga ag'darilgan holda to'p uzatish usullari o'rgatiladi. To'p uzatishning texnik-taktik mahoratini mustahkamlovchi mashqlar oz ichiga yakka, juftlik va guruh mashqlarini oladi:

Devorga turli usullar bilan to'p uzatish, masofa, balandlik va tezlikni o'zgartirgan holda.

Xuddi shu mashq, holatni o'zgartirgan holda old tomondan, yonlama o'tirib, yotib, 180° ga burilib, to'p uzatishlar.

Xuddi shu mashq, lekin devor bo'ylab o'ngga, chapga yurib, tepadan to'p uzatib, pastdan qabul qilgan holda.

Joyida turib va cheklovchi chiziq bo'ylab harakat qilgan holda turli usullar bilan to'pni bosh bilan turli balandlikka uzatish.

Xuddi shu mashq, lekin to'p oldida turib o'ngga, chapga, oldinga, orqaga harakatlangan holda hujumning turli hududlariga uzi to'pni polga o'rgandan so'ng to'rga hujum chizig'i ortidan chiqib borish bilan va sakragan to'pga chiqish bilan ikkinchi to'p uzatish.

Xuddi shu mashq lekin to'pga himoyachining turli zonalarida oldinga chiqib borgan va to'pni pastdan ikki qo'llab o'rgan holda [4,8,9].

Mashqlarni jamoadosh bilan bajarish katta ahamiyatga ega bo'lib, to'p uzatishga o'rgatish va ushbu usulni takomillashtirish uchun ma'lum bir sharoitlar yaratadi.

Juftlikda to'p uzatishlar turli usullar bilan masofa balandlik va to'pning uchish tezligini o'zgartirgan holda;

Xuddi shu mashq lekin harakatlangan holatlarni o'zgartirgan holda, old tomondan yonlanma o'tirib, yotib, sakrab 180° ga burilgan va boshi uzra to'p otib pastdan qabul qilgan holda to'pni qabul qilib olish va pastdan uzatishga o'rgatish va ularni takomillashtirish tepadan to'p uzatishdagi kabi tartibda amalga oshiriladi. Ushbu usul yordamida o'yinga

kiritilgan to'plarni hujumkor zarbalarni qabul qiladi, qo'llashni amalga oshirib maydoncha chetiga chiqib ketayotgan to'plarni to'p ustidan urib yuboradi. Boshida to'pni pastdan ikki qo'llab qabul qilish usuli ishonchliroq, chunki yosh voleybolchilar hali yetarli darajada harakatchan bo'lmaydilar.

Xulosa va amaliy tavsiyalar voleybol sport turi bo'yicha trenirovka mashg'ulotlarining tashkil etish va o'tqazish yuzasidan milliy adabiyotlar yuriqnomalar mavjud. Lekin ularni yanada takomilashtirish zarur.

Boshqalar sport to'garaklariga yo'naltirish dars mashg'ulotlari darsdan keying mashg'ulotlar va sport seksialari tizimi aloqadorligini kuchaytirish zarur.

Volleybol mashg'ulotlarida vositalar eng asosiy omil hisoblanib uni doimiy ravishda yangi hillarini qo'llash va jiroy qilish ijobiy samara beradi.

Trenirovka samaradorligini murabbiy mahoratini bilish maqsadida o'quvchilarni umumiy jismoniy tayyorgarligini aniqlash va tahmin etish.

Hozirgi zamon ilmiy ma'lumotlari va ilgor tajriba yosh voleybolchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishga asoslangan differensial ta'lim, voleybolchilar tayyorlashning eng samarali formasi ekanligi ko'rsatmoqda.

Yosh voleybolchilarni alohida-alohida va o'quv trenirovka jarayonini komplektlash metodikasi shundan iboratki, testlar o'tkazish natijasiga qarab jismoniy imkoniyatlari texnik-taktik ko'rsatkichlariga qaraganda ancha past bo'lgan o'quvchilar bir guruhga tanlab olinadi va birlashtiriladi. Jismoniy sifatlar texnik-taktik tayyorgarligidan ancha bo'lgan bolalar esa ikkinchi guruhga ajratish maqsadga muvofiqligi o'z isbotini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli lex.uz
2. Айрапетьянц Л.Р. Волейбол //Учебник для высших учебных заведений. - Т.: Зар қалам. 2006. - 240 с.
3. Беляев А.В., Савина М.В. Волейбол. - М.: Фон, 2000.- 368с
4. Железняк Ю.Д. Волейбол: У истоков мастерства. - М.: ФАИР-ПРЭСС.- 1998.
5. Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спорсменов. - Киев,1999.
6. Azimovna F. M. The quality assessment technology and development techniques in volleyball players //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 242-248.
7. Fatullayeva M. A. The pedagogical significance of the stages and methods of teaching volleyball //International journal on economics, finance and sustainable development. issn (electronic). – С. 2620-6269.
8. Хасанов, А. Т. (2017). Физическая культура и спорт как важный аспект в формировании личности. Молодой ученый, (11), 527-529.
9. Хасанов, А. Т. (2017). Физическая культура-надежда нации. Молодой ученый, (12), 591-592.

10. Хасанов, А. Т. Молодой ученый, 2017. Физическая культура и спорт как важный аспект в формировании личности.



FROM THE HISTORY OF RESEARCH AT THE KOTIRBULAK MONUMENT

B.A. Abdusalilov¹

Samarkand State University

KEYWORDS

Kotirbulak,
lithological strata,
cultural strata,
stone tools

ABSTRACT

This article provides information about Kotirbulak, one of the monuments of the Stone Age of the Zarafshan River. Excavations at the monument, cultural strata, originality, typology, analysis of the found stone tools were also analyzed.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6635563

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Master of Samarkand State University, Samarkand, UZB

ҚЎТИРБУЛОҚ ЁДГОРЛИГИДА ОЛИБ БОРИЛГАН ТАДҚИҚОТЛАР ТАРИХИДАН

KALIT SO‘ZLAR:

Қўтирбулоқ,
литологик қатламлар,
маданий қатламлар,
тош қуроллар

ANNOTATSIYA

Мазкур мақолада Зарафшон дарёсининг тош даврига оид бўлган ёдгорликларидан бири Қўтирбулоқ ҳақида маълумотлар келтирилган. Шунингдек, ёдгорликда олиб борилган қазилма ишлари, маданий қатламлар, топилган тош қуролларнинг ўзига хослиги, типологияси, таҳлил қилинган.

Қўтирбулоқ топилмажойи шу номли булоқнинг бевосита яқинида, Зарафшон дарёси чап соҳилидаги юқори терассада, Каттакўрғон шаҳридан унча узоқ бўлмаган худудда, Самарқанд шаҳридан 100 км ғарброқда жойлашган. Ёдгорлик 1971 йилда ЎзР ФА Археология институтининг Ю.Ф. Буряков бошчилигидаги археологик гуруҳи томонидан очилган². Топилмажойни ўрганиш ишлари 1971-72 йилларда Н.Х. Тошкенбоев томонидан амалга оширилган ва олинган натижалар бир қатор илмий мақолаларда ҳамда «Культура древнекаменного века долины р. Зарафшана» номли монографияда ўз аксини топди³.

2002 йилда ЎзР ФА Археология институти билан РФА Археология, антропология ва этнография институти ўртасида тузилган ҳамкор экспедицион тадқиқотлар дастури доирасидаги шартномага кўра Қўтирбулоқ топилмажойида тадқиқотлар давом эттирилди⁴. Янги босқичдаги тадқиқотлардан кўзланган асосий мақсад ёдгорликни комплекс ўрганиш, объектнинг стратиграфик ҳолатини аниқлаш ва булоқ худудидаги истиқболли тадқиқотларни белгилашдан иборат бўлди. Қўйилган мақсадга эришиш учун топилмажой синчиклаб кўздан кечирилди ва 1971-1972 йилги қазилмадан 15 м жанубий-ғарб томондан 18 м² майдонли қазилма амалга оширилди. Қазилма жойи жойнинг шароитларидан келиб чиқиб танланди, негаки, булоқ худудида интенсив қишлоқ хўжалик ишлари амалга оширилаётган эди. Назарда тутилган майдонда иш бошлашнинг бошланғич босқичида 4 м² майдон 1,4 м чуқурликкача очилди (ер ости сувларигача), сўнгра объектда ишлар

² Буряков Ю.Ф., Крикис Я.К., Равшанов Р., Ростовцев О.М. Археологические работы в Самаркандской области. // АО 1971 г. – М., «Наука», 1972. –С. 9-14.

³ Ташкенбаев Н.Х. Новые памятники древнекаменного века в Самаркандской области // ОНУ, №11.–Ташкент, 1971.–С. 8–13. Ташкенбаев Н.Х. Исследование новой мустьерской стоянки Кутурбулак (Самарканд) // Тезисы докладов совещания по каменному веку Средней Азии и Казахстана. – Ташкент, 1972. –С. 23 – 25. Ташкенбаев Н.Х. Новая мустьерская стоянка Кутурбулак // ИМКУ, вып. 10. –Ташкент, 1973. –С. 8 – 13. Тетюхин Г.Ф., Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Геоморфологическое положение мустьерского местонахождения Кутурбулак // ИМКУ, вып. 14. – Ташкент, 1978. –С. 5 – 11. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. – Ташкент, Изд-во «ФАН», 1980; Ташкенбаев Н.Х. Некоторые данные по палеолиту Зарафшанской долины // ИМКУ. Вып. 21. – Ташкент, 1987. –С. 17.

⁴ Деревянко А.П., Анойкин А.А., Борисов М.А., Сайфуллаев Б.К. Новые данные о стоянке Кутурбулак (Республика Узбекистан) // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2002. - Т.8. –С. 56-63.

тўхтатилди.

Қазишма жараёнида қалинлиги 0,15 м дан 0,5 метргача қалинликдаги 7 та маданий горизонт очилди. Юқори тўртта қатлам ўрта аср ва замонавий материаллар билан аралашиб кетган. Бу ердаги артефактлар асосан ўрта ва йирик ҳажмли тош буюмлардан иборат. Анча йирик тош буюмлар қатламнинг тагида жойлашган. Ер сатҳидан 1,4 м чуқурликда ер ости сувларининг ҳозирги сатҳи сизиб туради⁵.

Ёдгорликда литологик қатламларга ажратиш умуман, аввалги муаллифлар томонидан ажратилган схемасига мос келади ва унда қазишма майдонининг олисроқдалиги ҳам ҳисобга олинди. Бунда илгари ажратилган қуйи маданий горизонтга (5 қатлам) 4В ҳамда 4Г қатламлари мос келади. 2002 йилги изланишлар давомида 18 та сопол бўлаги ва 200 тадан ортиқ тош буюмлардан иборат катта археологик коллекция қўлга киритилди⁶ ва улар ўз характеристикаларига кўра 1971-1972 ва 1995 йилларда қўлга киритилган материалларга мос келади. Нуклеуссимон шакллар кўп эмас ва уларда кўпинча ҳаддан ташқари ишлов берилган кичик ҳажмли радиал типлар кўпчиликини ташкил қилади. Тўпламнинг тош қуроли асосан узунасига ишланган қирғичлар, уларнинг ретушланган ўткир учли шакллари ҳам учрайди, ретушланган пластиналар ва учириндилар учрайди. Коллекцияда шунингдек, кичик, бироқ ёрқин намоён бўладиган йўнилғилар серияси ҳамда йўнилғи учларида ва ёнлама ишланган қирғиччалар ҳамда бир дона оддий бурчак кесгич ҳам мавжуд. Тўпламдаги йўнилғиларнинг катта қисми нотекис ва эпизодик ретушларга эга. Буюмлар юзаларининг турли даражада сақланганлиги эътиборни тортади. Артефактлар орасида 20 таси кучли ва ўрта даражадаги емирилишга учраган ва бундай буюмлар барча литологик қатламларда ҳам учрайди.

Топилмаларнинг қатламларда ётишини таҳлил қилиш илгари қатор муаллифлар томонидан таъкидланган ёдгорликдаги ётқизикларнинг юқори қисми аралашиб кетганлиги ҳақидаги фикрларини тасдиқлайди (1-3 қатламлар)⁷. Ушбу фикрни қатламларда ўрта палеолитга оид тош буюмлар билан бирга тарихий даврларга оид куйган ва сирланган сопол идишларининг ҳамда пишиқ ғиштларнинг биргаликда учраши ҳам тасдиқлайди. Ётқизикларнинг қуйи қатлами авваломбор, 4В ва 4Г қатламлар камроқ бузилганга ўхшайди. Бироқ қатор кузатишлар ушбу қатламлардаги археологик материалларни инситида ётган дейишга имкон бермайди. Қатламнинг ичида артефактлар тартибсиз ҳолатда жойлашган ва қандайдир концентрация ва маданий горизонтларни ҳосил қилмайди. 4-қатламнинг юқори қисмида асосан майда буюмлар мавжуд бўлиб, шу вақтнинг ўзида кесманинг тагида йирик буюмлар концентрацияси кузатилади. Буюмларнинг бундай тақсимланиши ёпишқоқ пластик тупроқ билан аралашган аралаш нарсалар учун

⁵ Деревянко А.П., Анойкин А.А., Борисов М.А., Сайфуллаев Б.К. Новые данные о стоянке Кутурбулак (Республика Узбекистан) // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2002. - Т.8. –С. 60.

⁶ Там же. –С. 62.

⁷ Деревянко А.П., Анойкин А.А., Борисов М.А., Сайфуллаев Б.К. Новые данные о стоянке Кутурбулак (Республика Узбекистан) // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2002. - Т.8. –С. 62.

характерлидир. Қатламларнинг бузилганлиги ва археологик материалларнинг аралашиб кетганлиги ҳақида буюмлардаги кўп сонли иррегуляр ретушлар ва юзаларнинг битта қатламда турли даражада дефляцияга учраганлиги ҳам гувоҳлик беради. Бундан ташқари, ёдгорлик индустрияси умумий кўринишини ишонч билан ўрта палеолитга оид дейиш мумкин бўлса-да, 1995-2002 йиллар материаллари орасида тош даврнинг анча кейинги даврлари учун характерли буюмлар ҳам мавжуд⁸. Умуман, фикримизча, Қўтирбулоқдаги маданий қолдиқларга эга қатламлар кейинги даврларда бузилган ва аралашиб кетган ва бу аралашув ўрта палеолит даври материаллари билан бирга анча кейинги даврлар материаллари ўртасида содир бўлган. Кейинчалик, интенсив антропоген фаолият натижасида (булоқ яқинида кейинги даврларга оид макон мавжуд) ҳамда булоқни тез-тез тозалаб туришлар оқибатида ёдгорликдаги қатламларнинг юқори қисми қайтадан бузилган. Ушбу тахмин дала шароитларида қўшимча текширувни талаб қилади ва бундай тадқиқотларни шу атрофда олиб борилаётган интенсив қишлоқ хўжалик ишлари ҳамда ер ости сувлари ҳозирдаги сатҳининг баландлиги қийинлаштиради.

Юқорида келтирилган археологик тадқиқот натижаларига қисқа яқун ясаб айтиш мумкинки, бу давр одамларининг маданий излари водийнинг пасттекислик туманлари оралаб ўтган сой бўйларида ҳам учрайди. Тадқиқот натижаларига кўра, Зарафшон воҳасида ибтидоий одамзод аждодларининг ўрта ва юқори палеолит даври ҳаётини характерловчи 20 дан ортиқ пунктлардан ёдгорликлар топиб ўрганилдики, булар Зарафшон водийси узоқ ўтмишининг чуқур тарихий илдизидан далолат беради.

⁸Szymbazak K., Gretchina T., Madeska, Khudhanazarov M., Tashkenbaev N., Suleimanov R., Falgueres Ch., Fontugue M. Kuturbulak Revisited. A Middle Paleolithic Site on Zeravshan River Valley, Uzbekistan. – Warsaw: Institute of Archaeology Warsaw University, 2000. –P. 136.



FORMATION OF THE FIRST URBAN CULTURE IN SOUTHERN UZBEKISTAN

S. Bahriddinova¹

Samarkand State University

KEYWORDS

Jarqo'ton,
Sopollitepa,
urban culture,
Avesto book,
irrigated farming civilizations

ABSTRACT

This article describes the formation of the first urban culture in Uzbekistan on the example of the monuments of Jarqoton, Sopollitepa. The study shows the impact of social units on urban planning cited in the Avesto book.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6635567

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Master of Samarkand State University, Samarkand, UZB

ЖАНУБИЙ ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛК ШАҲАРСОЗЛИК МАДАНИЯТИНИНГ

KALIT SO‘ZLAR:

Жарқўтон,
Сополлитепа,
шаҳарсозлик маданияти,
Авесто китоби,
суғорма деҳқончилик
сивилизациялари

ANNOTATSIYA

Ушбу мақолада Ўзбекистонда илк шаҳарсозлик маданиятини шаклланиши Жарқўтон, Сополлитепа ёдгорликлари мисолида очиб берилган. Тадқиқотда Авесто китобида келтирилган ижтимоий бирликларнинг шаҳарсозлик соҳасига кўрсатган таъсири кўрсатилган.

Бронза даврининг сўнгги босқичларига келганда ишлаб чиқариш меҳнат воситаларининг муайян тараққиёти туфайли сунъий суғориш тизимида магистрал каналлари пайдо бўлади, хонаки чорвачилигидан, аниқроғи, чорвадорларнинг ярим кўчманчилик турмуши тарзига ўтиш содир бўлади.

Олимларнинг кўп йиллик тадқиқотларига қараганда, мил. авв. II мингинчи йилликнинг биринчи ярмида, балки ундан ҳам олдинроқ қадимги деҳқон жамоаларининг Ўрта Осиёнинг жанубий-ғарбий минтақаларидан шарқий ҳудудлар томон юриши кузатилган.

Бронза даврининг бошланғич даврида Мурғоб воҳасини ўзлаштирган қадимги деҳқонлар мил. авв. II мингинчи йилликнинг ўрталарига келиб, Қадимги Бақтрия ерларигача бориб етади. Бу жамоаларнинг қишлоқлари Мурғоб воҳасида, Шимолий Афғонистон ва Жанубий Ўзбекистон ҳамда Жанубий Тожикистон ҳудудларида қад кўтаради. Қишлоқлар атрофида эса экин майдонлари, деҳқончилик далалари пайдо бўла бошлайди. Қадимги деҳқончилик билан машғул бўлган қабилаларнинг чорвадор қабилалар минтақалари чегарасига етиб бориши натижасида улар ўртасидаги маданий-хўжалик алоқаларининг янада ривожланишига, чорвадор қабилалар музофотларида ҳам деҳқончилик маданияти таъсирида аста-секин янги деҳқончилик ўчоқларининг пайдо бўлишига олиб келди. Деҳқончилик воҳалари вужудга келиб, уларнинг марказ қишлоқлари улар замирида эса протошаҳарлар ташкил топди.

Жарқўтон Ўзбекистон ҳудудидаги илк шаҳарнинг ёрқин мисоли эканлигини, Шеробод воҳасидаги шу даврга оид Жарқўтон мажмуига кирувчи масканлар гуруҳини эса, шаҳар-давлат ёки “ном” давлатлар билан қиёсий солиштириш мумкинлиги тадқиқотчилар томонидан эътироф этилмоқда. Мил.авв. II минг йилликнинг сўнгги чорагида Шимолий Бақтрия ҳудудларида йирик ва мустақамланган марказларга эга бўлган “ном” ёки воҳа кўринишидаги давлатларнинг бошланғич босқичи бўлган ҳудудий-сиёсий бирлашмалар шакллана бошлаган², деган ғояни илгари сурмоқдалар.

² Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. – Тошкент, Маърифат, 2009. – Б. 35.

Жарқўтон ўзбек давлатчилиги тарихидаги энг қадимги моддий маданият манбаи бўлиб, у турмуш-тарзи ва маданияти ўтроқ бўлган аждоғларимиздан қолган ёдгорликдир.

Жарқўтон ёдгорлигида кўп йиллар илмий изланишлар олиб борган А.Асқаров Жарқўтон Қадимги Шарқ цивилизациясига хос илк деҳқончилик маданияти ёдгорлиги³, деб илк изоҳни берган бўлса, ёдгорликда олиб борилган кейинги тадқиқот ишлари натижасида Т.Ш.Ширинов Жарқўтонни илк шаҳар⁴ сифатида изоҳлаб кўрсатади.

Жарқўтоннинг энг баланд жойи 6-тепалик бўлиб, бу тепалик ёдгорликнинг марказий қисмида жойлашган. Бу ердан ибодатхонанинг очиб ўрганилиши юртимиз тарихини, халқ эътиқодини ўрганишда, шу жумладан шаҳарсозлик ва давлатчилик тарихимизни ёритишда кўплаб янгиликларни қўлга киритиш имконини берди.

Археологик ашёлар таҳлили, зардуштийлик динининг илк куртаклари мил.авв. II минг йилликнинг иккинчи ярмида пайдо бўла бошлаганлигини тасдиқламоқда. Зардуштийликнинг шаклланиши билан боғлиқ махсус ибодатхоналар ва оташгоҳлар бронза даврида қадимги деҳқон жамоаларининг илк шаҳарлар таркибида қад кўтаргани, бу дин ўзбек илк давлатчилигининг мафкуравий асосини ташкил этганлигини кўрсатмоқда.

Ўрта Осиёнинг қадимги халқлари ҳақида маълумот берувчи илк ёзма манба “Авесто” да жамиятнинг ижтимоий – таркибий тузилиши ҳақида А.Асқаров⁵, А.Сағдуллаев⁶, Ш.Шайдуллаев⁷лар ўз ишларида изоҳлаб ўтадилар. Бунга кўра, “Авесто” жамиятини тўрт қатламга ажратиб кўрсатадилар. Булар – катта патриархал оила – “нмана”, уруғ жамоаси – “вис”, қабила – “занту”, вилоят, мамлакат – “дахью” ларга бўлинади. Бу ижтимоий тузилишнинг биринчи, иккинчи ва учинчиси Сополли маданияти материалларида бевосита кузатилади. Археологик белгиларни кузатар эканмиз, Сополлитепа қалъа-қўрғони 8 та кварталдан иборат бўлса, шу кварталларнинг ҳар бири, биттадан нманани ташкил қилади. Вис – бу нафақат қишлоқ жамоаси, балки хусусий ишлаб чиқарувчилар уюшмаси, бутун қишлоқ жамоаси маъносини англатиб, Сополлитепа қишлоғини Висга қиёслаб кўрсатиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Демак, Сополлитепа нманалардан ташкил топган Виснинг қароргоҳидир⁸. “Авесто”нинг қадимги қисмида акс этган давлатчилик атамасининг яна бир кўриниши – занту бўлиб, у қабилавий уюшмани англатади. Қабила уюшмаси бир неча висларни бирлаштирувчи, бир неча уруғ жамоалари устидан назорат қилиб турувчи бошқарув органи ҳисобланган.

³ Асқаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Т., Фан, 1977.

⁴ Ширинов Т. Ранняя городская культура автореф. дис...д-ра.ист.наук.

⁵ Асқаров А. Ўрта Осиё қадимги дунёсининг асосий хусусиятлари. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1994. – № 6. – Б. 31-35.

⁶ Сағдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент, 2002. – Б. 22-25.

⁷ Шайдуллаев Ш. “Авесто” ва моддий маданият // Ўзбекистон тарихи. 2004. – №3. – Б. 3-12.

⁸ Асқаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура ...– С. 119.

Тарихдан маълумки, бу даврларда дин вакилларининг жамиятдаги мавқеи анча юқори бўлган. Ибодатхона инсонларнинг ишонч, эътиқод масканига айланган. Зардуштийликнинг энг муқаддас тимсоли олов – бронза давридан эътиборан илк шаҳар-давлатнинг диний бошқаруви коҳинлар кўлида бўлганлигини ва улар илк шаҳар-давлатнинг маънавий-илоҳий ҳукмдори эканлигини англатган.

Энди, ҳукмдорларга қисқа таъриф берилса, ҳукмдор ҳам илк сиёсий уюшма – шаҳар-давлат тепасида турган шахс бўлиб, бир вақтнинг ўзида ҳам диний, ҳам дунёвий, ҳам ҳарбий ишларни ўз кўлида бирлаштирган кави мавқеига эга бўлган. Унинг тўлиқ ҳукми остида давлат ишлари амалга оширилган. Шу нуқтаи-назардан қараганда, Жарқўтон ибодатхонаси ва унинг хронологик қатламларидан топилган ашъвий далиллар унинг сарой – ибодатхона вазифасини бажарган объект сифатида қарашликни тақазо этади.

А.Асқаров ва Т.Шириновлар ўз тадқиқотларида ёзувни илк шаҳарларнинг иккинчи даражали белгилари сифатида кўрсатади⁹. Ш.Шайдуллаев илк шаҳарлар, шаҳарлар билан бир тарихий жараёнда вужудга келадиган илк давлатлар бошланғич ёзув усули, яъни инсон ўз фикрини ифода этишисиз давлатнинг ҳам вужудга келиши мумкин эмас. Бойликнинг ортиши санокқа, хўжалик бошқарувидаги мураккаблашув ёзувга эҳтиёж туғдиради, деб таъкидлайди.

Шулардан келиб чиқиб, хулоса қилиш мумкин-ки, ўзбек давлатчилигининг тарихий илдизлари бронза даврига бориб тақалади. Айнан шу даврдан бошлаб, мулкчиликдан ерга ва чорвага эгалик қилишликнинг хусусий шакли пайдо бўлади. Ерга эгалик қилиш, жуфт оилаларнинг пайдо бўлиши ва уларни катта патриархал оила даражасига ўсиб чиқишидан бошланади. Давлатчиликнинг дастлабки, илк куртаклари патриархал оилалардан бошланиб, уларни мужассамлаштирган қишлоқ жамоалари – вислар даражасидаги кўриниши илк давлатчиликнинг тарихий илдизларини ташкил этади. Вислар илк давлатчилик куртаги ҳисобланса, “Авесто” жамиятининг занту босқичида вислардан ташкил топган илк шаҳар – давлатчилигининг асосини ташкил этган. Шаҳар – давлат амалда бир неча микровоҳа доирасидаги висларни диний ва сиёсий жиҳатдан бирлаштирган “воҳа давлатчилиги” нинг бош шахри, сиёсий ва диний қароргоҳидир. Шундай экан, Жарқўтон нафақат шаҳар – давлат, балки Сурхон-Шеробод воҳаси доирасидаги воҳа илк давлатчилигининг диний бошқарув маркази бўлиб, Ўзбекистон худудида давлатчилик илдизлари мил.авв. II минг йилликнинг ярмига бориб тақалишига асос бўлади.

Археологик тадқиқотлар натижаларига кўра, қадимги Бақтрия бронза даврида суғорма деҳқончилик сивилизацияларининг дашт қабилалари билан бевосита маданий алоқа кўпригига айланган ва бу заминда илк давлатчилик асосларининг эрта шаклланишига олиб келган.

⁹Асқаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура ...– С. 27.



MATERIAL CULTURE OF THE KOREAN PENINSULA STONE AGE

Li Hajong¹

Samarkand State University

KEYWORDS

Korean Peninsula,
Paleolithic,
Neolithic economic culture,
spiritual life

ABSTRACT

This article presents the ideas of the Stone Age of the Korean Peninsula on a scientific basis. The article also reflects the cycle of the Stone Age and d. The uniqueness of the Stone Age sites mentioned in the article is revealed in the periodic table.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6635577

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Master of Samarkand State University, Samarkand, UZB

KOREYA YARIM OROLI TOSH DAVRI MODDIY MADANIYATI

KALIT SO‘ZLAR:

Koreya yarim oroli,
paleolit,
neolit davri xo‘jalik
madaniyati,
ma‘naviy hayot

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Koreya yarim orolining tosh davriga oid fikrlar ilmiy asosda keltirilgan. Shuningdek maqolada tosh davrining davrlanishi hamda d aks etgan. Maqolada keltirilgan tosh davri makonlarining o‘ziga xosligi davriy jihatdan uzviylikda ochib berilgan.

Koreya yarim orolidagi ibtidoiy madaniyat ilk paleolit davriga (600-500 ming yil avval) borib taqalishi mumkin. Turli joylarda moddiy madniyat izlari topilgan. Koreyada qadimgi tosh asrining 50 dan ortiq yodgorliklari topilgan, ammo ularning bir nechtasi yaxshi o‘rganilgan, shuning uchun mahalliy tosh davri madaniyatlarining aniq tasviri yo‘q. Tosh davri quyi paleolit bosqichida (600-500 ming yil avval) boshlangan².

Paleolit odamlari g‘orlarda yoki tosh qoyalari ostida yashagan. Ma‘lumki, tarixni arxeologik jihatdan puxta va atroflicha o‘rganishda juda ko‘p tomonlarni hisobga olish, ya‘ni har bir ashyoviy topilmalarni umumlashtirgan holda, ular qanday holatda va qayerdan topilganligini to‘g‘ri talqin qila bilish taqozo etiladi. Masalan, topilmalar qo‘lga kiritilgan arxeologik yodgorliklar turlarining qaysi davrga, qanday ma‘daniy qatlamlarga oidligini to‘g‘ri tasavvur qilishga harakat qilish kerak. Bu xususiyatlar odatda darsliklarda o‘z aksini topa boradi. Arxeologik qidiruv ishlari tufayli yangidan-yangi materiallarning doimiy to‘plana borishi natijasida mavjud darsliklar kundalik fan muvaffaqiyatlaridan orqada qolib boradi. Paleolit davri arxeologiyasi arxeologiya fanining odam ajdodlarining eng qadimgi madaniyatlari izlarini o‘rganadigan sohasidir. Paleolitshunoslikning shakllanishi va taraqqiy qilishi odamning paydo bo‘lishi masalasi, ya‘ni antropogenez bilan chambarchas bog‘liqdir. Paleolitning ilk bosqichida zamonaviy odamdan farq qiluvchi, hali qo‘pol tosh qurollardan foydalangan odam jismoniy tipi yashagan bo‘lsa, paleolitning oxirlariga kelib esa, sizni bizdan farq qilmaydigan yuqori darajadagi madaniyatlarga ega zamonaviy odamlar tarix sahnasiga keladilar. Ular haqiqiy kishilik jamiyatlariga, toshdan, suyakdan, hayvon shoxlaridan ishlangan yuzlab buyumlarga, tilga, ijtimoiy tashkilotga, dinga, oilaga, ko‘mish marosimlariga va h.k. larga ega bo‘ladilar. Shunday qilib, xomo sapiens sapiens antropologik tipining va uning bilan bog‘liq asosiy madaniy elementlarning paydo bo‘lishidek murakkab jarayonlar paleolit davrida sodir bo‘ladi va bu holatlar paleolit davriga muhim ahamiyat kasb etadi.

Ba‘zan ular tekisliklarda quyosh yaxshi isitadigan va suv havzalariga yaqin joylarda uylar qurishgan. O‘zlashtiruvchi turdagi asosiy iqtisodiy faoliyat qadimgi Koreya aholisi uchun: ov qilish, baliq ovlash va termachilik edi. Keyingi bosqichda urug‘chilikning matriarxat bosqichi shakllanadi.

² Культура Кореи: учебное пособие. Часть 1 (с древнейших времен до 1910 г.) / сост. Л.А. Андропова; Томский политехнический университет. – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2014. С.6-17

Hayvonlarni ovlash va tana go'shtini nimalash uchun nafaqat suyak va shox, balki ibtidoiy tosh qurollar ham ishlatilgan. Qadimgi odamlar yog'ochdan yasalgan tosh buyumlardan foydalanganlar.

Yuqori paleolit davri tosh buyumlarining qayta ishlash texnologiyasining o'zgarishi bilan ajralib turadi. Ular ikki tomonlama chaqmoqlash orqali tayyorlanadi va qo'pol retushga ega bo'ladi. Mezolit davriga kelib esa kamon va o'q paydo bo'lib, bu ovning mahsuldorligini sezilarli darajada oshirdi.

Koreyaning quyi paleolit yodgorliklari, masalan, Chongokni (Geonggi) joylashgan joy, Yevropa, Afrika, Hindiston va Janubi-Sharqiy Osiyodagi qadimiy yodgorliklar bilan o'xshashliklarga ega. O'rta paleolit madaniyati-Kulpho 1 (Shimoliy Hamgyong) va Sokchanni (Janubiy Chuncheon) quyi qatlamlari Shimoliy-Sharqiy Xitoydan topilgan deyarli o'xshash. Kulpo 2 va Sokchanni yuqori paleolit materiallari tipologik jihatdan Rossiyaning uzoq Sharq, Sibir, Mo'g'uliston va Shimoliy Xitoy yodgorliklariga o'xshaydi³.

Ilk va so'nggi paleolit o'rtasidagi sezilarli farq jiddiy muammo bo'lib qolmoqda: O'rta paleolit davri haqida juda kam dalillar mavjud va paleolit davrining oxiri (8 ming yil oldin) va neolit davri boshlari (miloddan avvalgi 4 ming yil) o'rtasidagi farq mavjud. Shunday qilib, qadimgi va yangi tosh asrlarining madaniy davomiyligi buziladi. Yarim orolning so'nggi paleolit aholisining koreyslarning ajdodlariga aloqasi yo'q.

Neolit davri Koreyada taxminan miloddan avvalgi 2-1 ming yilliklarga davom etgan. Daryo vodiylari bilan bog'liq beshta asosiy viloyat markazlari mavjud edi: 1) Shimoli, Sharqiy, Tumangan daryosi havzasi; 2) Pusan viloyati-Daryo og'zi. Naktongan; 3) Seul tumani Hangan daryosining quyi oqimi; 4) Xvanxe yarim oroli qator kichik daryolar vodiylari; 5) Pxenyan tumani-quyi oqimi

Janubiy koreyalik arxeologlar neolit davrida Koreyada 50 mingga odam yashagan, deb hisoblashadi. Turar joylar ikki turdagi aholi manzilgohlari bilan farqlanadi⁴.

1. "Qayroqtoshdan foydalangan jamolar madaniyati" ga tegishli manzilgohlar yuzlab yillar davomida odamlar yashaydigan joy yaqinida yeyilgan mollyuskalarning tashlangan qobiqlaridan hosil bo'lgan. Bunday to'xtash joylari dengiz bo'yida va daryolar og'zida joylashgan edi. Mamlakat bo'ylab yuzdan ortiq bunday joylar topilgan. U ilk neolitda paydo bo'ladi, temir asri boshlangunga qadar davom etadi, ammo rivojlangan so'ngi neolit davrida u ikkinchi turni siqib chiqara boshlaydi.

2. Ochiq makonlar, past xavfsiz holatga tepaliklar ustida aholi punktlari joylashgan bo'lib, pasttekisliklar bevosita yaqin terassa yoki tog' yonbag'rida axoli turarjoylar qurishgan. Endilikda odamlar o'troq turmush tarziga o'tishadi, ishlab chiqaruvchi xo'jalik turmush tarzi hisoblanmish dehqonchilik xo'jaligi paydo bo'ladi. So'nggi neolit davriga kelib, aholi tariq, loviya, janubda esa sholi kabi ekinlarini ekishni o'zlashtirishgan. Yerga motiga bilan ishlov berishgan.

Neolit davrida insoniyat birinchi texnika inqilobni boshdan kechirmoqda edi (ishlab

³ Культура Кореи: учебное пособие. Часть 1 (с древнейших времен до 1910 г.) / сост. Л.А. Андропова; Томский политехнический университет. – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2014. С.8

⁴ Культура Кореи: учебное пособие. Часть 1 (с древнейших времен до 1910 г.) / сост. Л.А. Андропова; Томский политехнический университет. – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2014.с.8

chiqarish tipidagi iqtisodiyotga o'tish, sopol ishlab chiqarishning paydo bo'lishi). Neolit bosqichida Koreya aholisi silliqlangan tosh buyumlaridan foydalangan⁵.

Kulolchilik va to'qimachilik soxasi keng tarqalgan. Neolit davrining so'nggi bosqichlarida: miloddan avvalgi 1800-1700 yillardan miloddan avvalgi 1000 yilgacha qishloq xo'jaligining ibtidoiy shakllari paydo bo'ldi. Bu yerda shuni aytish lozimki, Koreyada neolit davri bir muncha uzoqroq davom etgan.

Shox va toshdan yasalgan buyumlar yerga ishlov berish uchun ishlatilgan, tosh xavonchalar yig'ilgan donlarni maydalash uchun ishlatilgan. Neolit davrida barcha mintaqalarda bo'lgani kabi matriarxat davri yuqori darajada rivojlangan. Neolit davrining o'rtalarida ijtimoiy hayotda juft nikoh shakllana boradi. Bir necha yaqin avlodlarning qabila jamoasiga bosqichma-bosqich birlashishi boshlanadi. Bu davrda ijtimoiy tabaqalanish mavjud bo'lmagan.

Aholi punktlari hajmi sezilarli darajada ortib boradi, yuz yoki undan ortiq alohida uylardan iborat aholi manzilgohlari shakllanadi.

Ma'naviy hayotda oilaning homiy ruhlariga sig'inish, hosildorlik ma'budalariga e'tiqod qilish ustunlikka ega edi. Koreya neolit davri jamoalari o'z davriga nisbatan ancha yuksak moddiy madaniyat yaratganlar. San'at namunasi darajasidagi zargarlik buyumlarini yaratish ko'nikmalarga ega bo'lishgan. Munchoqlar (jasper) noyob toshlardan yasalgan. Shuningdek, uzuk shaklida sirg'a, chig'anoqlardan taqinchoqlar va (hairpins) bilakuzuklar tayorlangan⁶.

Koreya yarim orolining neolit davri asosiy bosqichlari va xo'jalik madaniyatlari:

1. Eng qadimgi bosqich (miloddan avvalgi 4-5 ming yilliklar) silliq yumaloq sopol madaniyati. Shu bilan birga bu madaniyat, yarim orolning janubdan, Yapon orollariga chegara joylarda ham tarqalgan edi.

2. Miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklar taroqsimon naqshli kulolchilik ananalarini tashuvchilarining kirib kelishi. Bu butun Koreya yarim orolini qamrab olgan birinchi madaniyat hisoblanadi. Sopol idishlarning yuqori va o'rta qismiga "Rojdestvo daraxti" shaklidagi naqsh qo'llanilgan.

3. So'nggi neolit (miloddan avvalgi 2-1 ming yillar) sirlangan kulolchilik madaniyati tashuvchilarining kirib kelishi (Sharqiy Osiyo tipidagi mongoloidlar). Toshga ishlov berish tartibining takomillashuvi yuz berdi.

⁵ Тихонов В.М., Кан М. История Кореи: В 2 т. М.: Наталис, 2011.

⁶ История Кореи. Новое прочтение / под. ред. А.В. Торкунова. М., 2003. С.23-38.



THE EFFECTIVENESS OF WRESTLERS RECOVERY AFTER INJURY

Tursunov Mirshod Shodievich¹

Bukhara State University

KEYWORDS

wrestling, honest, bow, Tok, sideburns, speed, strength, qualified athlete, release, sports facilities, training tools

ABSTRACT

This article covers how to prevent the fighters from getting hurt and their recovery tables after the competition and the competition.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6635677

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of Bukhara State University, Bukhara, UZB

JAROHATDAN SO'NG KURASHCHILARNING TIKLANISH SAMARADORLIGI

KALIT SO'ZLAR:

kurash, halol, ta'zim, to'xta, yonbosh, tezlik, kuch, malakali sportchi, relef, sport inshootlari, mashg'ulot vositalari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kurashchilarning jarohat olishini oldini olib borish va ularning musobaqa va musobaqadan keyin tiklanish masalari yoritilgan.

Davlatimizning bevosita qo'llab-quvvatlashi natijasida kurash xalqaro sport turi sifatida keng e'tirof etildi, "kurash", "halol", "ta'zim", "to'xta" va "yonbosh" kabi atamalar esa xalqaro sport lug'ati tarkibidan mustahkam o'rin egalladi.

1998 yil 6 sentabrda ta'sis etilgan Kurash xalqaro assotsiatsiyasi bugungi kunda sayyoramizning beshta qit'asidagi 130 dan ortiq milliy federatsiyani birlashtirgan.

2010 yilda Kurash xalqaro assotsiatsiyasi Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritish uchun buyurtma berishda muhim talab hisoblangan Jahon dopingga qarshi agentligining e'tirofiga sazovor bo'ldi.

2017 yil 20 sentabrda Ashxobod shahrida bo'lib o'tgan Osiyo Olimpiya kengashining 36-Bosh assambleyasida "Kurash" milliy sport turi tarixda ilk bor XVIII yozgi Osiyo o'yinlari dasturiga rasman kiritildi.

Kurash xalqaro assotsiatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi kurashni xalqaro sport musobaqalari va turnirlari dasturlariga, kelgusida esa Olimpiya o'yinlari dasturiga ham kiritish bo'yicha faol tadbirlarni amalga oshirmoqda. Hozirgi paytda sportning har xil turlari, jumladan, kurash sohasida tayyorgarlikning an'anaviy yo'llari va maxsus usullaridan foydalanib, yanada yuksak natijalarga intilmoqda. Yuqori natijalarga intilish va erishilgan natijalardan o'zish, taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sanaladi. Shahar, tuman, mamlakat, jahon miqyosida chempion yoki Olimpiya chempioni – murabbiy va kurashchining hamkorligidagi mehnatning samarasidir!

Sport natijalarining o'sishini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri – bu mashg'ulot jarayonini tashkil qilish shakllarini takomillashtirishdir.

Ma'lumki, hozirgi zamonda yuqori malakali sportchilarga bo'lgan talablarda ular bir kunda ikki, ba'zida esa uch marta mashg'ulot o'tkazish lozim. Sportchilar sport mashg'ulotlari joylaridan juda uzoq yashaydigan sharoitlarda bunday mashg'ulotlarni belgilangan tartibga amal qilgan holda o'tkazish katta qiyinchiliklar bilan kechadi, gohida esa umuman imkoni bo'lmaydi.

Ma'lumki, maxsus tashkil qilingan o'quv – mashg'ulot yig'inlari sharoitlaridagi mashg'ulot samaradorligi juda yuqori bo'ladi. Yuqori malakali sportchilar uchun o'quv – mashg'ulot yig'inlarining o'tkazilishi ham shu bilan tushuntiriladi.

Biroq o'quv – mashg'ulot yig'inlari qoniqarsiz tashkil qilinganda, musobaqa o'tkazish joyi noto'g'ri tanlanganda va mashg'ulot vositalari bilan yomon jihozlanganda, shuningdek

mashg'ulot yuklamalari noto'g'ri rejalashtirilganda, intizom va tarbiyaviy ishlar bo'sh bo'lganda zarur natijalarga erishib bo'lmaydi.

Shuning uchun o'quv – mashg'ulot yig'inini tayyorlashda quyidagilarga ahamiyat berish zarurdir:

Yig'inlarining muayyan maqsadi va vazifalariga muvofiq holda ularni o'tkazish joyi tanlanadi. Bunda iqlim sharoiti, mahalliy relief, sport inshootlari, mashg'ulot vositalari va maishiy sharoitlarning mavjudligi hamda sifati hal qiluvchi omillar bo'ldi.

Mas'uliyatli musobaqalar oldidan bo'ladigan yig'inlarni musobaqalar o'tadigan joyda yoki bo'lib o'tadigan musobaqalar sharoitiga juda yaqinlashtirilgan sharoitlarda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Yig'inlarda o'quv – mashg'ulot jarayoni samaradorligiga bog'liq bo'lgan asosiy omillar quyidagicha:

Malakali murabbiylarning doimiy tarkibi.

Tayyorgarlik darajasi va soniga ko'ra o'quv guruhlarining optimal tarkibi.

Vrach va doimiy kompleks ilmiy guruhlar a'zolari tomonidan amalga oshiriladigan tibbiy-pedagogik kuzatishlar; mashg'ulot yuklamalari hajmi va shiddatini boshqarish hamda musobaqalar davriga kurashchilarni sport formasi holatida olib kelish uchun murabbiyga yordam beradigan tiklanish vositalari kompleksining mavjudligi;

Yaxshi tashkil qilingan, yuqori sifatli, kaloriyali ovqatlanish;

Yaxshi tashkil qilingan tarbiyaviy va madaniy-ommaviy ishlar;

Tezkor ko'rgazmali o'quv axborotnomalardan (vidiomagnitafon yozuvlari, internet va boshq.) keng foydalanish;

Sport asbob-anjomlari va jihozlarini mashg'ulotlarga o'z vaqtida hamda sifatli tayyorlash.

Mashg'ulot jarayonida yig'in qatnashchisi, ya'ni har bir sportchiga alohida yondashishga amal qilish juda muhimdir. Mashg'ulot yuklamalari hajmi va shiddati mashg'ulotning alohida rejasiga mos xolda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Xulosa o'rnida kurashchilarning jarohat olishini oldini olish va jarohatdan so'ng tiklanish bo'yicha vrach va doimiy kompleks ilmiy guruhlar a'zolari tomonidan amalga oshiriladigan tibbiy-pedagogik kuzatishlar va nazoratlar zurrur hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Godik M.A. Kontrol trenirovochnyx i sorevnovatelnyx nagruzok. -M., FiS, 1980.- 135 s.
2. Zatsiorskiy V.M. Sportivnaya metodologiya: Uchebnik dlya studentov institutov fizkultury. -M.: FIS, 1982. - 256 s.
3. Igumenov V.M., Podlivaev B.A. Sportivnaya borba. - M.: Prosveshchenie, 1993.- 240 s.
4. Kabanov A.A. Opornost kak prinsip razvitiya koordinatsii dvizheniy v borbe // Teoriya i praktika fizicheskoy kultury. - Moskva, 2002. - № 9. - S. 46-49.



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



TECHNIQUES FOR DEVELOPING THE STRENGTH OF ATHLETES

Tursunov Mirshod Shodievich¹

Bukhara State University

KEYWORDS

personal-strength skills and speed-strength, absolute and Relative Strength, maximum tension, high workability

ABSTRACT

To give an idea about the development of the strength of athletes.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6635693

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of Bukhara State University, Bukhara, UZB

YENGIL ATLETIKACHILARNING KUCHINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

KALIT SO‘ZLAR:

shaxsiy-kuch qobiliyatlari va tezlik-kuchi, absolyut va nisbiy kuch, maksimal zo‘riqish, yuqori ishchanlik

ANNOTATSIYA

Yengil atletchilarning kuchini rivojlantirish haqida tushunchalar berish.

Kuch ko‘paymasa sport mahoratiga yetishib bo‘lmaydi. Harakat tezligi hamda chidamlilik va chaqqonlik ko‘p jihatdan muskullar kuchiga bog‘liq. Muskullar kuchi bosh miya qobig‘i faoliyatiga mos keladigan markaziy nerv tizimining ahvoriga, muskullarning fiziologik ko‘ndalang kesimiga, muskullarda bo‘ladigan bioximik jarayonlarga, muskullar qo‘zg‘oluvchanligining o‘zgarishiga, ularning charchoqlik darajasiga va boshqa sabablarga bog‘liq bo‘ladi, bosh miya qobig‘idagi xarakatlantiruvchi zonaning nerv to‘qimalaridan chiqadigan nerv impulslari kelgandagina muskul kuchi sodir bo‘ladi. Bu, nerv tizimsi funksional imkoniyatlarining hal qiluvchi ahamiyati bor ekanini ko‘rsatadi.

Ayniqsa yangi, boshlovchi yengil atletikachilarda muskul kuchini rivojlantirish birinchi navbavtda o‘z muskullarini boshqara bilish, ularni qisqartira olish va ko‘proq kuch berib kuchlantira olish (nerv muskul koordinatsiyasini yaxshilash) hisobiga bo‘ladi. SHu bilan bir vaqtda, katta iroda kuchi ko‘rsata bilishni o‘rgata borilgani ham muhimdir. Bundan tashqari, muskul kuchini namoyon qila olish nerv to‘qimlaraning funksional imkoniyatini oshirish yo‘li bilan ham rivojlantiriladi. Muskul kuchi uning fiziologik ko‘ndalang kesimiga to‘g‘ri proporsional bo‘lgani uchun, jismoniy mashqlar ta‘sirida muskul massasi ortgan sari muskul kuchi ham ko‘paya boradi, shu bilan birga, muskullarda aylanish kuchayadi, modda almashinish yaxshilanadi, energiya beradigan moddalar ko‘payadi.

Muskul kuchining bu asosiy tomonlari o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Biroq mashq va metodlarni, muskul massasini ko‘proq oshiradigan yoki nerv to‘qimalarining tegishli funksional imkoniyatlari darajasini oshirib, kuchni namoyon qila olishni yaxshilaydigan qilib tanlash mumkin.

Yosh yengil atletikachilar tanasidagi hamma muskullar kuchli, garmonik rivojlangan bo‘lishi kerak. Lekin tana muskulaturasining rivojlanish darajasiga bo‘lgan talab yengilatletikaning turiga bog‘liqdir. Uloqtiruvchilarga kuchni hammadan ko‘p rivojlantirish kerak bo‘lsa, marafonchilarga hammadan kam kuch kerak.

Har qanday yengil atletikachi mashg‘ulotsida albatta kuchni rivojlantiruvchi mashqlar ishlatiladi. Lekin asosan yengil atletikaning mazkur turini bajarish uchun eng muhim bulgan muskullar guruhsini rivojlantirishga e‘tibor beriladi. Anchagina ko‘p muskul kuchi namoyon qila olishni yaxshilash uchun, katta va maksimal kuchlanish metodlari qo‘llaniladi. Bu maxsus tanlab olingan mashqlarni katta va maksimal kuch bilan (maksimaldan 75-100%) takror takror bajarish demakdir. Bunday mashqlarda yengil

atletikaning qaysi turida mumkin qadar ko'p kuch sarflashni o'rgatib olish maqsad bo'lsa, shu turning yoki shu tur elementning koordinatsion strukrura yaxlitligi saqlab qolinadi. Mashqni qiyinlashtira borish (shtanga va snaryadlar og'irligini, sakrash balandligini, yugurish tezligini oshira borish) ham bu mashqlarga xos xususiyatdir.

Muskullar massasini oshirish uchun, mashqlar to harakat to'g'riligi buziladigan darajada muskullar charchaguncha to'xtovsiz bajariladi ("Nihoyagacha" metodi). Bunday mashqlar struktura jihatdan, odatda sportchi ixtisos olayotgan yengil atletik turning elementlariga o'xshaydi. Bunda kuch kelish o'rtacha yoki katta (maksimaldan 5070%) bo'lishi kerak.

Kuchni rivojlantirish uchun elementlar mashqlardan tortib, to yaxlit yengil atletika turiga (sakrash, uloqtirish, startdantashlanish) qadar har xil dinamik mashqlardan foydalaniladi. Kuchni rivojlantirishda yuk ko'tarish mashqlari, o'z vaznidan foydalanib yoki sherigi qarshiligini yengib bajariladigan mashqlar eng ko'p qo'l keladi. Bundan tashqari, kuchni statik namoyon qilish qo'llanadi. Og'irligi 2,5 kg dan ortiq gantellar, 1015 kg gacha qum bilan to'ldirilgan xaltalar, 25 kg lik to'ldirma to'plar, 16 va 32 kg lik toshlar va shtangalar yuk tariqasiida xizmat qiladi.

Og'ir yuk bilan, maslan, shtanga bilan bajariladigan mashqlar tananing hamma muskullariga, ayniqsa yirik va baquvvat muskul guruhlariga, yengil yuk (masalan, to'ldirma tuplar, gantellar) bilan bajariladigan mashqlar esa ayrim muskul guruhlarga ta'sir qiladi.

Atlet ancha og'ir yuk ko'tarib mashq bajarayotganda, ba'zan nafas ritmini buzadi yoki butunlay nafas olmay qoladi. To'g'ri nafas olishga juda katta e'tibor berish, maksimal og'irlik bilan qilinadigan mashqlarni bir martagina bajarib, keyingisini boshlash oldidan 25 minut vaqt o'tkazmoq kerak.

Yengil yuk bilan bajariladigan mashqni qatorasiga 23 marta takrorlash (ayrim vaqtda ozroq) kerak. Og'irlik qancha oz bo'lsa, mashqni shuncha ko'p to'xtovsiz bajarish mumkin. Muskul hajmini oshirish uchun bajarilayotgan mashqlarni har doim muskullarda charchoq sezilgunga qadar takrorlash kerak.

Yuk ko'tarib qilinadigan mashqlarni birinchi vaqtlarda sekin asta, keyinchalik og'irlik imkon berganicha tez bajarish tavsiya etiladi.

O'z og'irligini ko'tarish hamda sherigi qarshiligini yengish mashqlari yuk ko'tarish mashqlariga yaqin. Bulardan tipikrog'i o'z gavda og'irligidan foydalanib bajaradigan o'tirib turish (asosan bir oyoqda), sakrash jumladan, pastga sakrab tushib, shu zahoti depsinish, osilgan holatda tortilish, tayanib yotgan holatda qo'llarini bukib to'g'rilash kabi mashqlardir. Yuk ko'tarish mashqlaridagi singari bu mashqlarda ham qanchalik kichik muskul guruhi ishlaydigan bo'lsa, tananing borib kelish yo'li qancha bo'lsa, mashq ko'p takrorlanadi. Bora bora sekinroq harakatlardan tezroq harakatlarga, yengilroqlaridan qiyinroqlariga o'tish kerak. Keyinchalik esa, maksimal tezlik bilan, bajariladigan mashqlarga ko'proq o'rin beriladi.

Sherigi bilan ko'tarishib, qarshiligini yengib, tortishib va turtishib bajariladigan mashqlar muskullarga umumiy va tanlangan ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Bu yerda kuchlilikda va bu kuchdan foydalana olishda musobaqalashayotgan atletlarning irodalari

kuchini ko'rsata olishlarining katta ahamiyati bor. Mashg'ulotda og'irlik qo'shib bajariladigan yengil atletik mashqlardan ham og'irroq asboblarni ulotqirish, yelkaga qum to'ldirilgan (6 12 kg) xalta olib sakrash mashqlari, og'irligi (5 6 kg) belbog' bilan yuqoriga sakrash kabi mashqlardan ham foydalaniladi. Bunuqa mashqlarda harakatning strukturasi deyarli o'zgarmaydi, lekin atlet uchun odatdagidan ko'proq kuch sarflashi kerak bo'ladi. Kuch atlet uchun zarur sharoitga yaqin sharoitda taraqqiy etadi.

Bu metodni og'irlashtirilgan asboblarni bilan shug'ullanadigan ulotqiruvchilar ko'proq qo'llaydilar. Lekin og'irlik qo'shib bajariladigan mashqlarni boshqa yengil atletikachilar ham muvaffaqiyat bilan qo'llashlari mumkin. Masalan, ilmiy tekshirishlar sakrash mashqlarida og'irliklardan foydalanganlarning sakrovchanligi, undan foydalanmaganlarga nisbatan ko'proq ortganini ko'rsatdi. Mashg'ulotning tayyorlov davrida yengil atletikachilar og'ir poyabzal kiyib yoki 5 6 kg li belbog' (qo'rg'oshin bo'lakchalari yoki pitra solingan brezent belbog') bog'lab, maxsus mashqlar bajarishlari mumkin.

Og'irliklar bilan bajariladigan yengil atletika mashqlari yordamida ma'lum muskul guruhlarini massasini oshirishgina emas, balki juda katta iroda kuchi namoyish qila bilish qobiliyatini ham tarbiyalash mumkin. Bunday mashqlarni mumkin qadar maksimal tezlikda bajarish kerak.

Og'irliklar bilan bajariladigan yengil atletika mashqlarini xuddi shu mashqlarning og'irliksiz bajarilishi bilan almashtirib turish kerak. Odatda mashq oldin og'irliksiz. Keyin og'irlik bilan bajariladi.

Yengil atletikachilar tayyorgarligida statik kuchlanish mashqlaridan ham ("izometrik" metod) foydalaniladi. yengil atletikachi, masalan, yelkasi bilan past turnikka turanib yoki juda ham og'ir shtangani yerdan uzish uchun, yarim bukik oyoqlarini to'g'rilashga harakat qilib, mumkin qadar maksimal kuchlanish sarflaydi. Bunday nihoyaga yetib turgan statik kuchlanishda, bosh miyaning kuch kelayotgan muskul guruhlariga oid nerv to'qimalariga ayniqsa katta talab qo'yiladi. Tabiiyki, bunday kuchlanishga javoban nerv to'qimalarining funksional imkoniyatlari ortadida, yengil atletikachi yana ham ko'proq kuch bera oladi. Nerv to'qimalarining funksional imkoniyatlari oshganligi dinamik harakatlarda ham ko'proq kuchlanish sarflash imkoniyatini beradi.

Katta va maksimal statik kuchlanishli har qaysi mashq bir mashg'ulot mobaynida 5 6 sekunddan 2 4 marta takrorlanadi. Bu metod faqat kattalarga tavsiya qilinadi.

Yangi boshlovchi yengil atletikachilar gavdadagi hamma muskullarini rivojlantirish uchun, ko'proq kuch keladigan xilma xil jismoniy mashqlar qilishlari kerak. Tayyorlangan yaxshi sportchilar tanlab olgan turlarida muvaffaqiyatga erishish qaysi muskul guruhlarini kuchli bo'lishini talab qilsa, o'sha muskul guruhlarini rivojlantirishlari kerak. Albatta, ular kuchni rivojlantiruvchi mashqlar bilan o'zlarining umumiy jismoniy tayyorlik darajalarini saqlab borishlari kerak.

Kuch ko'paytiradigan mashqlar mashg'ulotning tayyorlov davrida ko'proq, musobaqa davrida esa kamroq qo'llanadi. Lekin musobaqa davrida ham kuch talab (ko'pincha maksimal kuchlanish talab qiladigan) maxsus mashqlar yetarli darajada qoldiriladi. Bu kuch

taraqqiyotida erishishlgan darajani saqlab qolish uchungina emas, balki uni yanada oshirish uchun ham kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Normuradov.A Yengil atletika Toshqent 2002 yil.
2. Niyozov.I Yengil atletika Fargona 2005 yil.
3. Xonkeldiyev Sh. X. O'quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligi. –T.: Meditsina. 1996.
4. AtoyevA.K. Farzandlaringiz barkamol bo'lsin.-T.:Ibn.Sino. 1995.



THE EFFECT OF IMPROVING PHYSICAL QUALITIES IN SWIMMING TRAINING

Tursunov Mirshod Shodievich¹

Bukhara State University

KEYWORDS

swimming, physical education, physical training, schoolboy-youth, physiologic and functional state, training, healthy lifestyle

ABSTRACT

The article describes the issues of achieving the development of physical qualities of pupils and young people as a result of scientific research in swimming classes, and is based on the need to improve the educational process on the basis of the results of research.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6635802

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of Bukhara State University, Bukhara, UZB

SUZISH MASHG'ULOTLARIDA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TA'SIRI

KALIT SO'ZLAR:

suzish, jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, o'quvchi-yoshlar, fiziologik va funksional holat, mashg'ulot, sog'lom turmush tarzi

ANNOTATSIYA

Maqolada suzish mashg'ulotlarida ilmiy-tadqiqotlar olib borish natijasida o'quvchi-yoshlarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishga erishish masalalari bayon qilingan hamda o'quv jarayonini ilmiy-tadqiqot natijalari asosida takomillashtirish zaruriyati asoslangan.

Mustaqilligimizni dastlabki kunlaridanoq jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, ommaviylashtirish, maktab yoshidagi bolalarni sportga jalb qilish, mahoratini oshirish, xalqaro sport aloqalarini kuchaytirish sohasida katta ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. 2002-yil 24-oktyabrda Respublika "Bolalar sportini rivojlantirish" damg'armasini tashkil qilinishi mamlakatda suzish sportini rivojlanishi va ommaviylashtirishga katta hissa qo'shdi, aynan ushbu jamg'arma tomonidan joylarda ochiq va yopiq suzish havzalari, sport maydon hamda sport zallari barpo etilib foydalanishga topshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish to'g'risida qabul qilingan qator qaror va farmonlarini (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son qaror, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-maydagi "2018-2021 yillarda suzish sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 333-sonli qarori) asl mohiyati ushbu sohani izchillik bilan rivojlantirish, hayotga tatbiq etish, sport turlari bo'yicha jahon arenalarida yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarish bilan birga maktab yoshidagi o'quvchi-yoshlarni solamatligini asrashga qaratilgan. Mutaxassis olimlar tomonidan o'rganilgan va ish faoliyatidagi pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi-yoshlarni jismoniy holati darajasiga suzish mashg'ulotlarining ijobiy ta'siri ilmiy jihatdan aniqlangan. CHet el olimlari tajribalari bilan bir qatorda o'zbek olimlari ham o'z o'rganishlarida asoslab bergan. Jumladan: o'quvchi-yoshlarni jismoniy sifatlarini suzish mashg'ulotlari orqali yaxshilash va rejalashtirish, ularni jismoniy holatini doimiy nazorat kilish metodlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar yuzasidan etakchi olimlar turli yillarda ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Ulardan, V.M.Korbut, G.M.Krasnova, A.G.Sadikov kabi mutaxassislar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. [3]

Suzish mashg'ulotlarida muntazam shug'ullangan bolalarda o'z tengdoshlariga nisbatan yurak urish, nafas olish soni, bug'im va mushaklarining egiluvchanligi, qon aylanishi tizimini yaxshilanishi kabilar ijobiy bo'ladi, sababi bola organizmi suv ichida gorizontal holatda harakatlanishi bilan bog'liq. Yana bir afzal tomoni shundaki, ota-onalar farzandlarini biror bir sport turiga shug'ullantirsa jismoniy sifatlardan ayrimlarigina rivojlanadi, suzish mashg'ulotlaridagi maxsus mashqlar va musobaqalar jarayoni barcha

(kuch,chaqqonlik,egiluvchanlik,tezkorlik,chidamlilik) jismoniy sifatlarini rivojlanishiga xizmat qiladi. Malakali murabbiy suzish mashg'ulotlari bilan paralel ravishda engil atletika,og'ir atletika, gimnastika kabi sport turlarini maxsus mashqlaridan muntazam foydalanadi. Suzish sport tur kungil ochar tur bo'lganligi uchun ham yosh bolalarda ko'proq qiziqish uyg'otadi.

Mamlakatimiz jismoniy tarbiya ta'lim tizimida umumta'lim maktablari, kasb xunar kollejlari, jismoniy tarbiya yo'nalishlari mavjud oliy ta'lim muassasalari, suzishga iqtisoslashgan BO'SMlar o'quv dasturiga kiritilgan.

Inavatsion yondashuv asosida suzish mashg'ulotlariga qo'yiladigan quyidagi manzilli vazifalar orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirishga erishish mumkin:

- sportcha suzish usullariga mos antropometrek ko'rsatkichga ega shug'ullanuvchilarni tanlab olish.

- o'quvchilarini jismoniy sifatlarini oshirish uchun suzish mashqlarini ta'sirini aniqlash. - o'quvchilarni jismoniy sifatlarini rivojlanishiga mo'ljallangan mashqlar majmualarini ishlab chiqish va asoslash.

- nazorat-sinov ishlarini muntazam ravishda suzish mashg'ulotlariga tayangan holda olib borish (turnikda tortilish, yugurib kelib uzunlikka sakrash, 30m masofaga yugurish, sportcha suzish usullaridan turli masofalarga suzish)

- suzish bo'yicha maxsus sog'lomlashtiruvchi kompleks mashqlarning bolalarni yoshli, jinsi, jismoniy tayyorgarlik darajasini inobatga olgan holda fiziologik va funksional holatiga ta'sir dinamikasini ilmiy pedogogik tahlil qilish.

- mashg'ulotni tuzilish va mazmunini ilmiy amaliy tajribalarda o'rganib chiqish.

- bolalar organizmiga mashqlar ta'sirini doimiy manitorng qilib borish kabilar orqali erishish mumkin.

Suzish mashg'ulotlari mazmunini ilmiy jihatdan o'rganish va to'g'ri tashkil etish, o'quvchi-yoshlarni jismoniy holati darajasiga suzish mashqlarini ijobiy ta'sirini baholash mashg'ulot mazmuniga aylanishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, innavatsion pedagogik ilmiy tavsiyalar asosida olib borilgan suzish mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilarni jismoniy rivojlanishida sezirlarli darajada ijobiy o'zgarishlar yaqqol ko'rinadi va sportcha suzish malakasiga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3-июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3031-сон қарор.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019-йил 29-январдаги “Ўзбекистонда соғлом турмуш тарзини кенг тарғиб қилиш ва аҳолини жисмоний тарбия ва оммавий спортга жалб этиш тўғрисида”ги 65-сон қарор.

3. Жисмоний тарбия ва спорт назарияси ва услубиётини ривожлантиришнинг замонавий тенденциялари -Чирчиқ 2019й.



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



THE ROLE OF ARTISTIC GYMNASTICS IN UZBEKISTAN

Tursunov Mirshod Shodievich¹

Bukhara State University

KEYWORDS

artistic gymnastics, band, Ball,
ring, swinging

ABSTRACT

This thesis presents information about the role of Artistic Gymnastics in Uzbekistan and the achievements of Uzbek artistic gymnasts in the world arenas.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6635818

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of Bukhara State University, Bukhara, UZB

O'ZBEKISTONDA BADIY GIMNASTIKANING TUTGAN O'RNI

KALIT SO'ZLAR:

badiiy gimnastika, tasma, koptok, halqa, arg'amchi

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda badiiy gimnastikani O'zbekistonda tutgan o'rni va O'zbekistonlik badiiy gimnastikachilarni jahon arenalarda erishayotgan yutuqlari to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Badiiy gimnastika - sport turi, buyum (tasma, koptok, halqa, arg'amchi) b-n va usiz turli nafis gimnastika va raqs mashqlarini musiqa ostida bajarish bo'yicha ayollar musobaqalari. Xalqaro sport musobaqalarining hozirgi zamon dasturida ko'p kurash (bitta majburiy va buyumlar bilan uchta erkin mashqlar) hamda buyum bilan guruh bo'lib erkin mashqlar bajarish bor.

G'oliblar ko'p kurashda, alohida va guruh bo'lib bajariladigan mashqlarda aniqlanadi. Sportchilarning mashqlari 10 balli tartib bo'yicha baholanadi. 40 – y. lardan Badiiy gimnastika musobaqalari o'tkazila boshlandi. 50-yillar oxirida Xalqaro gimnastika federatsiyasi sport turi sifatida tan oldi. 1963 y. dan to hozirgi yillari jahon chempionatlari o'tkazilmoqda, 70 – yillar boshidan Intervidenie Kubogi uchun yirik xalqaro musobaqalar tashkil qilinmoqda. 1984 y. dan Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan. BADIY GIMNASTIKA - Qomati raso, o'ziga ishonchi yuksak yoshlarning aksariyati bolalikda sport bilan shug'ullangan bo'lishadi. Bunda gimnastika sport turlari, xususan, badiiy gimnastika bilan mashq qilishning ahamiyati katta. Gimnastik mashg'ulotlar bolalarning umumiy salomatligini tiklashda ijobiy natija beradi. Ma'lum bir harakatlarni bajarish tanada modda almashinuvini yaxshilab, bolalarning, jumladan, qizlarning jismonan rivojlanishiga zamin hozirlaydi. Musiqa va raqs san'ati elementlarining badiiy gimnastikada jam bo'lgani, qizlarni estetik tarbiyalashda o'ziga xos o'rin tutadi.

Qizlarni badiiy gimnastikaga 4-5 yoshdan saralab qabul qilamiz. Ularning egiluvchanligiga, bo'y-bastining shu sport turiga mos kelishiga ahamiyat qaratamiz. Asosiysi, qiziqish. Qizlarning ko'zida bu sport turiga bo'lgan mehrni ilg'ay olsam, ularning yetuk sportchi bo'lishi uchun jon-jahdim bilan harakat qilaman. Ilk mashg'ulotlarda ular qo'l-oyoqlarni to'g'ri bosishni, qaddini tik tutishni o'rganishadi. Mashg'ulotlar asta-sekin murakkablashib boradi. Bir-ikki yillik muntazam mashg'ulotlardan so'ng qizlar predmetlar yordamida mashq bajarishni o'rganishadi. Badiiy gimnastikachilarning chiqishlarini tomosha qilar ekansiz, bir yarim-ikki daqiqa ichida qizlar ma'lum bir obraz yaratishadi, hissiyotlarini namoyish qilishadi.

Bolalikdan bu sportga mehr qo'yganlar tartibli, intizomli, irodali bo'lishga odatlanishadi. Mutaxassislar qo'l-oyoqlarida qiyshayishlar, qaddi-qomati yoki umurtqa pog'onasida notekisliklar bo'lgan qizlarga gimnastika mashqlarini tavsiya etishadi. Shu bilan birga ich qotish (qabziyat)ga moyil bo'lganlar, uyqusizlik va ishtahasi yaxshi bo'lmagan qizlar ham gimnastika setsiyasidagi mashg'ulotlardan so'ng shifo topganliklari

kuzatilgan. Har qanday sport turida bo'lgani kabi yosh gimnastikachilar vaqtlarini to'g'ri taqsimlashni, kun tartibiga rioya qilishni, tartibli ovqatlanishni o'rganadilar. Mutaxassislar bosh miya jarohatlari va uning asoratlarini boshidan o'tkazganlar, turli yuqumli kasalliklar bilan og'riganlar uchun bu sport turi bilan shug'ullanishni tavsiya etishmaydi.

Qizlar bolalikdan ushbu sport turiga oshno bo'lib, yuqori natijalarga erishmasalar ham badiiy gimnastika seksiyasidagi mashg'ulotlar natijasida ular qomati raso bo'lib voyaga yetadi. Tekis qadam tashlashlari bilan boshqalardan ajralib turadilar. 2022 yil 13-15 may kunlari Toshkent shahrida Badiiy gimnastika bo'yicha bolalar-o'smirlar ixtisoslashtirilgan respublika olimpiya zaxirasi sport maktabida O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi, Gimnastika federatsiyasi tomonidan Xalqaro gimnastika federatsiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan go'zallik va nafosat bayramida

O'zbekiston, AQSH, Belarus, Janubiy Koreya, Ispaniya, Isroil, Malayziya, Pol'sha, Rossiya, Xitoy, Estoniya, Yaponiya, Qozog'iston, Armaniston kabi davlatlardan 100 dan ortiq gimnastikachi g'oliblik uchun bahslashdi.

Jahon kubogi bosqichining alohida gimnastika predmetlari yordamida mashq bajarish bo'yicha shaxsiy bahslarda o'zbekistonlik sportchilar Anastasiya Serdyukova to'p va tasmada mashq bajarishda ikkita bronza medalini qo'lga kiritgan bo'lsa, Yelizaveta Nazarenkova bulavada mashq bajarish bo'yicha uchinchi o'rinni egalladi. Shaxsiy bahslarda Nuriniso Usmonovanning arg'amchi, halqa va to'p bilan bajargan mashqlari uchta bronza medalga loyiq topildi. Yana bir o'zbekistonlik gimnastikachi Milana Tyan bulavada mashq bajarishda bronza medal bilan taqdirlandi.

ADABIYOTLAR

1. Gimnastika i metodika prepodovaniya. Fiz-ra institutlari uchun darslik / V.M.Smolevskiyning tarixida. M f va S, 1987G.
2. Gimnastika fiz-ra institutlarining ped. Fakul'tetlari uchun darslik. Toshkent, o'qituvchi nashr, 1982. O'zbek tilida, tarjima.
3. Gotovtsev P.I.Dolgoletie i fizicheskaya kul'tura M,F va S, 1985. str-96.
4. Lisitskaya T.S ritmicheskaya gimnastika (230 mashqlar) M,F va S, 1986.
5. Popova YE.G, Proizvodstvennaya gimnastika. Metodik ko'rsatma. Len-d 1986.
6. Mixaylova E.M, Ivanova YU.I ritmicheskaya gimnastika, spravochnik, M, 1987.
7. Rekomendatsii k provedeniyu zanyatiy ritmicheskoy gimnastikoy. Tashkent, TashGu, 1988.
8. Polievskiy S.A, Startseva I.D, fizkultura i profesiya. M, F i S, 1988 .
9. Usmanaliev T.B va boshqalar. Ritmik gimnastika. Chimkent, 1987.
10. Chernyaevskiy V.D fizkultura na otdixe. Tashkent, meditsina, 1988.



THE PROCESS OF TECHNICAL TRAINING IN THE MILITIA FIGHTERS

Tursunov Mirshod Shodievich¹

Bukhara State University

KEYWORDS

struggle, theory, practice, trainer, spiritual, rational, labor, aesthetic, pedagogical principle, wrestler training

ABSTRACT

This article focuses on the principles of the interaction between the optimal level of development of the process of training and guidance of wrestlers, the social and biological aspects of the process of training athletes, and the growth rate of the results of sports techniques.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6635838

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of Bukhara State University, Bukhara, UZB

MILY KURASHCHILARDA TEXNIK TAYYORGARLIK JARAYONI

KALIT SO‘ZLAR:

kurash, nazariya, amaliyot, trener, ma'naviy, aqliy, mehnat, estetik, pedagogik tamoyil, kurashchi tayyorlash

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kurashchilarni tayyorlash va ularga rahbarlik qilish jarayonining rivojlanish darajalari orasidagi optimal muvofiqlik, sportchilarni tayyorlash jarayonining ijtimoiy va biologik jihatlari bilan sport-texnika natijalarining o'sish sur'ati orasidagi o'zaro ta'sir tamoyillari haqida fikr yuritilgan.

Kurashchilarni tayyorlash va ularga rahbarlik qilish jarayonining rivojlanish darajalari orasidagi optimal muvofiqlik, shuningdek, sportchilarni tayyorlash jarayonining ijtimoiy va biologik jihatlari bilan sport-texnika natijalarining o'sish sur'ati orasidagi o'zaro ta'sir tamoyillari asosiy metodologik tamoyillar hisoblanishi lozim. Kurashchilarni tayyorlash tizimi bilan uning tizimchalarini bir butun hodisa sifatida tadqiq etish, uni sport-texnik natijalar o'sishining eng muhim zaxirasi deb hisoblash, butunlikka boshqaruvning alohida vazifasi sifatida qarash katta ahamiyatga ega.

Kurashda o'quv-mashg'ulot jarayoni jismoniy tarbiyaning asosiy tamoyillari: tarbiyaviy xususiyati, har tomonlama rivojlantirish; sog'lomlashtirish va amaliy ahamiyatiga muvofiq holda olib boriladi.

Kurashning texnik tayyorgarligi sportchi tomonidan yuqori sport natijalariga erishishni ta'minlovchi harakatlar tizimining egallaganlik darajasi bilan tavsiflanadi.

Kurashchining umumiy va maxsus texnik tayyorgarligi ajratiladi. Umumiy texnik tayyorgarlik yordamchi sport turlaridagi har xil harakat malakalari hamda ko'nikmalarini egallashga, maxsus texnik tayyorgarlik sport kurashida texnik mahoratga erishishga qaratilgan.

Sport kurashida texnik tayyorgarlik bir qator murakkab vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan:

- maksimal kuchlanishdan foydalanish samaradorligini oshirish;
- ish kuchlanishini tejash;
- musobaqa faoliyatini o'zgaruvchan holat sharoitlarida harakatlanish tezligi, aniqligini oshirish.

Sport texnikasini takomillashtirish kurashchilarning ko'p yillik tayyorgarligi davomida amalga oshiriladi va u tanlangan kurash turida texnik mahoratni oshirishga qaratiladi.

Texnik mahorat deganda keskin sport kurashi sharoitlarida eng oqilona harakat texnikasini mukammal egallash tushuniladi.

Kurash texnikasi - bu musobaqa qoidalarida ruxsat etiladigan usullar, qarshi usullar va himoyalashlar yig'indisidir.

Usullar - bu maqsadga yo'naltirilgan hujum harakatlari bo'lib, ular yordamida kurashchi raqibidan ustunlikka erishadi. Har bir usul ikki qismdan iborat. Birinchi qism - usul qo'llash uchun ushlab olish. Ushlab olishlar yuqoridan, pastdan, orqadan, oldindan, yon

tomondan va boshqalarga ushlab olishlarga bo'linadi. Ushlash usulni muvaffaqiyatli bajarishda katta ahamiyatga ega. Butun usullarni bajarish sifati ushlab olishning qay darajada oqilona amalga oshirilganligiga bog'liq. Ikkinchi qismda turli xildagi harakatlar: tik turishda - o'tkazishlar, tashlashlar, ag'darishlar; parterda - o'girishlar va parterda tashlashlar bo'lishi mumkin.

Erkin kurash, sambo, dzyudo va kurashda usullarni amalga oshirish paytida bir vaktning o'zida oyoklar bilan turli harakatlar ham bajariladi, ya'ni bular - chalishlar, qoqishlar, ilishlar, oldindan ilib otishlar, chirmashlar, orqadan ilib otishlar. Bu harakatlarning ko'pchiligi orqadan, oldindan, yondan, ichkaridan, tashqaridan bajarilishi mumkin.

Bir xildagi ushlab bilan bir qator harakatlarni bajarish mumkin va, aksincha, bir xil harakatning o'zi turli ushlab bilan bajarilishi mumkin. Masalan, qo'ldan va gavdadan ushlab tashlashni, zarba bilan ag'darishni amalga oshirish mumkin. Lekin raqibni egilib qo'l, gavda, qo'l va bo'yindan ushlab tashlash ham mumkin.

Kurashchi har qanday usulni hujum va qarshi hujum uchun qo'llashi mumkin. Usul yoki uning bir qismini aldamchi harakat sifatida qo'llab, kurashchi haqiqiy niyatidan raqib diqqatini chalg'itish va boshqa usul bilan hujumni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni tayyorlashi mumkin.

Qarshi usullar - bu raqib hujumiga javob tariqasida bajariladigan maqsadli harakatlar bo'lib, ular yordamida kurashchi raqibi ustidan ustunlikka erishadi.

Qarshi usullar murakkab texnik harakatlarga kiradi. Qarshi hujum uyushtirayotgan kupashchi bir zumda to'g'ri qaror chiqarishi va raqibi usulni amalga oshirishga ulgurmasligi uchun o'z harakatlarini hujum qilayotgan raqib harakatlari bilan aniq moslashtirishi lozim.

Himoyalanişlar - bu raqibning usullarni (qarshi usullarni) bajarishiga to'sqinlik qiluvchi maqsadli harakatlardir.

Himoyalanişlar dastlabki va bevosita himoyalanişlarga ajratiladi. Dastlabki himoyalaniş oldindan, ya'ni raqib usulni amalga oshirishdan avval bajariladi.

Bevosita himoyalaniş raqib hujumini to'xtatishga qaratilgan. Bunday himoyalaniş samaradorligi uning o'z vaqtida bajarilishiga bog'liq. Bevosita himoyalaniş usul boshida, usulni bajarish davomida yoki usulni bajarish oxirida amalga oshirilishi mumkin.

Hamma texnik harakatlar kurashchilar tomonidan turli holatlardan turib bajariladi. Asosiy holatlar quyidagilar: tik turish, parter va ko'prik.

Tik turish - bu kurashchining holati bo'lib, unda u oyoqlarda tik turadi. O'ng, chap va yalpi tik turishlar ajratiladi. Ularning xar biri, o'z navbatida, baland, o'rta va past bo'lishi mumkin. Tik turishda kurashish yaqin, o'rta va uzoq masofalarda olib borilishi mumkin.

Parter - bu kurashchining dastlabki holati bo'lib, u tizzalarida turadi. Bunda tekis yozilgan qo'llarning kaftlari bilan gilamga tayanib turiladi, qo'llar tizzalardan 20-25 sm. uzoqlikda joylashadi.

Parterda baland holat va past holat farqlanadi. Baland holat - bu kurashchining parterdagi dastlabki holati, past holat esa - bu kurashchining tizzalarda turib, bilaklar bilan gilamga tayanish holatidir.

Parterda kurashish paytida kurashchilardan biri pastda, ikkinchisi yuqorida bo'ladi. Parterda yuqoridagi holatda turgan kurashchi kurash boshlanishidan oldin istagan dastlabki holatni egallashi mumkin. Faqatgina qo'l kaftlari pastdagi kurashchining yelkasida turishi lozim.

Ko'prik - bu kurashchining quyidagi holati bo'lib, ya'ni bunda u, orqaga egilib, oyoq kaftlari (ular taxminan yelka kengligida yozilgan) va bosh (istagan qismi) bilan gilamga tayanadi.

Kurashchi ushbu holatga kuragini gilamga tekkizmaslik uchun o'tadi.

Erkin va yunon-rum kurashida ko'prik bir holatda qator hujum hamda qarshi hujum harakatlarini bajarishda asosiy elementlardan biri hisoblanadi.

Kurashchining texnik harakatlari zahirasi qanchalik boy bo'lsa, ularni qanchalik katta maxorat bilan qo'llay bilsa, uning texnik mahorati shunchalik yuqori bo'ladi.

Kurash texnikasi kurashchi mahoratining asosi hisoblanadi va ko'p jihatdan uning imkoniyatlarini belgilab beradi. Kurashda o'nlab usullar va ularning variantlari mavjud. Biroq bu kurashchi ularning hammasini mukammal bilishi lozim degani emas.

Sportchi yanada yangi va yangi usullar, qarshi usullar hamda himoyalanihlarni egallab borishi bilan uning alohida xususiyatlari va odatlariga javob beradigan hamda uning tomonidan muvaffaqiyatli bajariladigan usullarning bir qismi keyinchalik takomillashtirish maqsadida rejaga kiritiladi.

Kurashchining xar tomonlama texnik tayyorgarligi - turli sport turlarini rivojlantirishning zamonaviy darajasiga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. Mustahkam egallash uchun texnik harakatlarni tanlashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

-amaldagi musobaqa qoidalarida qaysi biri texnik harakat muvaffaqiyatli hisoblangan o'sha texnik harakatlarni egallash;

-texnikaning hamma turlari ichidan sportchining alohida xususiyatlariga eng yaxshi javob beradigan usullar, qarshi usullar va himoyalanihlarning variantlarini egallash;

-asosiy raqobatchilarning mahorati xususiyatlarini hisobga olish va ular bilan kurashishda yaxshi natija beradigan texnik harakatlarni tanlash;

-avval o'rganilgan usullar va qarshi usullarni qo'llash imkoniyatini kengaytirish mumkin bo'lgan texnik harakatlarga ko'proq e'tibor qaratish;

- kurashchi zahirasida mavjud bo'lgan usullar bilan kombinasiyalar hamda bog'lanishlarda qo'llash mumkin bo'lgan texnik harakatlarni o'rganish;

- harakat vazifasini eng oqilona hal etish xususiyatiga ega bo'lgan harakat texnikasiga o'rgatish lozim; bu kelgusida qayta o'rganishdan xolos qiladi;

- kerak bo'lmagan harakatlar va ortiqcha mushak zo'riqishini bartaraf etib, texnika asoslari hamda umumiy harakat maromini egallash;

- usullarga o'rgatish vaqt oralig'ida jamlangan bo'lishi zarur, chunki trenirovka mashg'ulotlari orasidagi uzoq tanaffuslar uning ta'sirini pasaytiradi. Boshqa tomondan, bitta trenirovka darsi davomida usullarni juda tez-tez takrorlash maqsadga muvofiq emas,

chukni yangi koordinasiyalarni yaratish asab tizimini tez toliqtiradigan qiynchilikni yengib o'tish bilan bog'liq;

- jismoniy shart-sharoitlar yetarlicha bo'lmasligi oqibatida yuzaga keladigan texnik holatlarni oldini olish maqsadida harakatlarning dinamik tavsiflariga mos keladigan yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki texnik usullarni amalga oshirish taktik tayyorgarligining hamma usullari nafakat mustaqil, balki uyg'unlashgan holda qatnashishi mumkin (ya'ni usulni amalga oshirish uchun bir xil bo'lgan qulay sharoitlar bitta emas, balki bir-birini to'ldirib keladigan bir qancha usullar bilan tayyorlanadi).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.K.Atayev Yosh o'smirlarga o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyoti. Toshkent, 2005.
2. K.Yusupov Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. Toshkent, 2005.
3. N.A.Tastanov Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati – Toshkent, "Iqtisod-moliya" – 2015.



DEVELOPMENT OF PHYSICAL ATTRIBUTES THROUGH NATIONAL GAMES

Tursunov Mirshod Shodievich¹

Bukhara State University

KEYWORDS

school, reader, action, game, people, tactics, child

ABSTRACT

The article gives an idea of the influence of the role of the National Games in the development of physical qualities of its students on the development of children in the correct conduct of the methodological framework of the games of motion on the skills of elementary movement in the performance of one or another exercise in some actions.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6635853

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of Bukhara State University, Bukhara, UZB

МИЛЛИЙ ЎЙИНЛАР ОРҚАЛИ ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

KALIT SO‘ZLAR:

мактаб, ўқувчи, ҳаракат,
ўйин, халқ, тактика, бола

ANNOTATSIYA

Мақолада ўқувчиларининг жисмоний сифатларини ривожлантиришда халқ миллий ўйинларининг тутган ўрни ҳаракатли ўйинлари методик жихатидан тўғри ўтказишда болалар ривожланишига таъсири айрим ҳаракатларда у ёки бошқа машқларни бажаришда элементар ҳаракат малакаларини эгаллашлари тўғрисида фикр юритилган.

Жисмоний тарбия ўйинларида ҳаракатли ўйинлар жисмоний тарбияни бошқа воситалари ўртасида катта ўринни эгаллайди, айниқса кичик синфларда. Ўрта ва хусусан катта синфларда ҳаракатли ўйиналр асосий жойини гимнастикага бўшатиб беради. Жисмоний тарбия дарсларида ҳаракатли ўйинлар I-XI синф ўқувчилари учун жисмоний тарбия дастури талабларига мос равишда таълимий, тарбиявий ва соғломлаштириш вазифаларини ҳал этиш учун фойдаланилади.

Таълимий вазифаларга қуйидагилар киради:

Югуриш, сакраш, улоқтириш ва бошқа ҳаракатни табиий малакаларини мустаҳкамлаш ва такомиллаштиришда, шунингдек гимнастика, енгил атлетика, спорт ўйинлари ва кросс тайёргарлиги машғулотларида эгаллаган малакаларидир.

Тарбиявий вазифаларга қуйидагилар тегишли:

Жисмоний сифатларни тарбиялаш (тезликни, чаққонликни, чидамликни, кучни, эгилувчанликни) жамоатчиликни ростгўйликни ва бошқа ахлоқий, шунингдек ва иродавий сифатларини тарбиялаш киради.

Соғломлаштириш вазифаларига қуйидагилар киради: болалар организмни нормал шакллантириш ва ривожлантиришга ёрдам бериш, уни саломатлигини мустаҳкамлашдан иборат. Ўйинни танлаш ўқитувчини дарс олдидан қўйилган педагогик вазифасига боғлиқ бўлади. Масалан, агарда дарсни вазифаси - кичик мактаб ёшидаги болаларда, югуруб келиб узунликка сакраш малакасини такомиллаштириш қўйилган бўлса, унда «Бўри зовурда» ўйинидан фойдаланилса бўлади. Кўкракдан коптокни отиш ва уни юқоридан икки қўллаб олиш малакасини мустаҳкамлаш вазифасини хал этиш учун «Тўпни узатдингми - ўтир» ёки «Қарама - қарши» эстафета ўйинидан фойдаланиш мумкин [3].

Талимий вазифани хал этишда бир вақтни ўзида жисмоний сифатни такомиллаштириш, жамоада ўқувчиларни жисмоний ривожланишига тасир этишини ҳам назарда тўтилади.

Тарбиявий ва таълимий вазифа бир – бири билан ўзаро чамбарчас боғлиқдир. Худди шундай, масалан, ўйинда баландликка сакраш малакасини такомиллаштиришда ўқувчиларга ўзларининг кучларига ишонишни, жасурликни,

ботирликни тарбиялайди. Шунинг учун вазифасини қўйишда битта ўқув – тарбиявий жараёнини ҳар хил томонларини ҳисобга олинади.

Дарс учун ҳаракатли ўйинларни танлашда, шунингдек ўқувчиларнинг таркибига (ёшига, жинсига, тайёргарлигига), манъулотни ўтиш жойига (майдонча, зал, коридор), асбоб –анжом ва жихозларга боғлиқ бўлади. Бир ва худди шундай педагогик вазифани хал этишда, иш шароитига боғлиқ ҳамда, ҳар хил ўйинлардан фойдаланиш мумкин.

Худди шундай, масалан, 1-2 синф ўқувчилари билан ўйналадиган ўйинда ўз олдига ҳаракат реакцияси тезлигини тарбиялаш – вазифаси қўйилганда, «Ҳамма ўз байроқчасига» (агарда машғулот майдонча ёки залда бўлса), ёки «езда ўз жойига» (агарда машғулот коридода ёки залда ўтказилса)ўйиндан фойдаланиш мумкин. Дарс олдидан – тўпни отиш ва илиб олишни такаомиллаштириш вазифасини қўйиб, 3-4 синфларни дарсларига «Узатдингми – ўтир», «Овчилар ва ўрдакалар», «Ўйин бошига тўпни берма», 5-6 синф учун дарсда эса «Тўп ўртадагига», «Отишма», «Тўп учун кураш» ўйинларини киритиш мумкин. Ўйинда маълум малакани эгаллаш учун кўпроқ мураккаб вазиятни талаб қилади: қоидалар сонини ошириш уни мураккаблаштириш ўйинсиларни ўзаро биргаликдаги ҳаркатини мураккаблаштиришдир. Хар бир ўйин қатнашчиларидан маълум сифат, малака ва кўникмаларни талаб қилади.

Бу мумкин эмас, масалан, ўқувчиларига «Тўпни илиб олиш» ўйинини берилса, агарда улар тўпни отиш ва илиб олиш, тўпни олиб юриш, ҳаракат тезлигини, рақиб билан бир-бирига яқинлашганда тўпни ушлаб олишни ўша минимал ҳажмдаги эгилиш учун жуда зарурдир [2].

Бу сифат, кўникма ва малакалар ўйинда такомиллаштирилади, бойитилади, мустахкамланади. Ўйинга киритилган, ҳар бир ҳаракат тўпи дастлаб шуғулланувчмлар томонидан махсус машқларда ўргатилган бўлиши керак. Кичик мактаб ёшидаги болаларда энг асосийси энг кўпроқ таобийй ва элементар ҳаркатлардан ташқари бўлиши мумкин. Улар ўйинга олдиндан ўргатилмасдан киритилиши мумкин. Шундай қилиб масалан, болаларга «Бўри зовурда» ўйинини ўйнашни таклиф қилинганда олдиндан югуриб келиб узунликка сакрашни ўргатиш мажбур эмас, чунки болалар ўзларининг ҳаракат тажрибаларидан келиб чиқиб, ўйинда бу табиий сакрашни бажаради. Ўқитувчининг вазифаси эса болаларни диққатини ўйин жараёнида сакрашни кўпроқ яхши ва тўғри бажаришга киритилиши керак.

Ҳаракатли ўйинлари методик жихатидан тўғри ўтказишда болалар айрим ҳаракатларда у ёки бошқа машқларни бажаришда элементар ҳаракат малакаларини эгаллашлари мумкин. У ёки бошқа малакани яхши эгаллаши учун зарур бўлган, жисмоний сифатни, ўқувчиларда бу машқни ўйин жараёнида фойдаланишда вақтида ривожлантирилади. Ўйинда тайин жихатдан ўзини тута билинса ўйинда секин – аста мураккаблаштириб бориш йўлидан фойдаланиш билан тарбияланади: янги мураккаб ўйин қоидаларини киритишлиши, ўйинчиларни ўзаро ҳаркатини

элементлари бўйига ҳаммани қўлидан келадиган ёки ҳаммабоп уни ичига кириувчи, ўқувчиларининг имкониятларига ва ташкил этишни тўзилишибўйига мос келадиган, қатнашчилардан мураккаб ўзаро муносабатларни талаб қилади.

Модомики жисмоний тарбия дарсларида ҳаракатли ўйинлар бошқа жисмоний тарбия воситалари билан бирга қўшиб олиб борилади, дарсда бошқа машқлар ўртасида эса ўйинни ўрнини тўғри аниқлаш жуда муҳим аҳамиятга эга бўлади. Ўқитувчи ҳар бир дарсда ўқувчиларнинг организмига ҳар томонлама таъсир этиши лозим. У шу мақсадда ҳар хил машқларни танлайди. Дарсда ўйинлар ва бошқа машғулот турлари ўртасида методик жиҳатдан кетма – кетлигини ўрнатилиши керак, бу бутун дарс жараёнида машқларни кўпроқ тўғри тақсимлаш ва дарсни зичлигини бундан ҳам яхшилашга, олдига қўйилган вазифани нисбатан яхшироқ ҳал этишга ёрдам беради. Машқдан кейин, мураккаб координацияни таранглашган диққатни, диққатни бир жойга тўплашни талаб қилади. Мушаклар ҳозиргина фақат тезлик билан ишлаган эди, кейинги машқда эса (ўйинда) қатнашмаслиги мумкин ёки бу қатнашиши озгина ва ҳарактери бўйича бошқача бўлиши мумкин.

Агарда дарсни тўлиқ асосий қисмига бағишланган бўлса, унда катта ҳаркатчанликдаги ўйин билан кам ҳаракатчанлик ўйини аниқлаб олиб бориш керак ва ўйинни ҳаркат қилиш бўйича ҳарактери ҳар хил бўлиши лозим.

Агарда 4-синф ўқувчилари учун дарсда чалғитиш билан югурушни ортиқ бўладиган ўйинлар киритилади – «Чўртон балиқ», кейинги ўйинларга ўзи бошқа ҳаракат турларини киритиш мумкин: сакраш, қаршилиқ кўрсатиш, улоқтириш («Овчилар ва ўрдаклар», «Доира ичига торт», «Жуфт – жуфт бўлиб тортишиш») ва х.к.

Дарсда, айрим спорт турларини техник элементларини ўргатишга йўналтирилган, ушбу сифатни соддалаштирилган техник элементларини ҳаракатли ўйинга уни тақсимлаш турли мақсадида, билиш асосида киритилиши мумкин. Агарда 7-синф ўқувчилари учун дарсни вазифасига ўқитувчи баландликка «перекит» усулда сакрашни ўргатиш ва паст стартни такомиллаштиришда, «Паст стартдан чиқиш эстафетаси» ўйинида фойдаланиш билан иккинчи вазифани хал этиш мумкин. Ўқитувчи бундай ҳолатда паст стартни тўғри бажарилишига диққатни қаратиш керак ва ютуқни эса топшириқни тез сифатли қилиб бажарганига қараб ютуқ берилиши керак. Қаттиқ чарчашга йўл қўймаслик учун катта ҳаракат фаоллигидаги ўйинни ва бошқа машқларни бир мунча куч ва энергияни сарфлаш билан бирга қўшиб олиб бориш керак. Бироқ ўйиндан кейин юуриш, сакраш ёки ҳаракатни аниқ бўлишини, мувозанат сақлашни, мураккаб координацияни талаб қилувчи машқларни бажариш тавсия қилинмайди.

Ҳаракатли ўйинлар дарсни барча қисмига шуғулланувчиларнинг таркиби ва вазифасига боғлиқ ҳолда киритилиши мумкин.

Ҳаракатли ўйинлар дарсни қайси қисмига киритилган бўлса, улар дарсни ўша қисмидаги вазифага мос қилиши керак. Биринчидан дарсни тайёргарлик қисмида унча катта бўлмаган серҳаракатли ва мураккаб ёки ўртача ҳаракатдаги мумувивожлантурувчи машқлар ҳарактеридаги ўйинларни шуғулланувчиларни

жамоаси диққатини ташкил этишга ёрдам беради. («Тақиқланган ҳаракат», «Синф тик тўринг», «Тўп орқасидан қувлаш» 3-5 синф ўқувчилари учун мос келади), иккинчидан, дарсни асосий қисмида катта ҳаракатчанликдаги ўйинлардан фойдаланилади, унда ҳаракат малакалари такомиллаштириб борилади, ўйин жисмоний ва иродавий сифатни тарбиялашга, саломатликни мустаҳкамлаш мақсадида қон айланиши ва нафас олиш функциясини яхшилашга, жисмоиний ривожланиш даражасини оширишга ёрдам беради.

Бундай ўйинларга кўнгиллик ҳарактли ўйинлар кўпинча уни ҳаракат турларига таалуқли бўлади: тезликни ошириб югуриш, чап бериш билан, чидамликка, тўсиқларни ошиб ўтиш билан, сакрашни ҳар хил турлари, қаршилиқ кўрсатиш, кураш, ҳаракатсиз ва ҳаракат қиладиган нишонга улоқтириш, тўпни эгаллаш малакалари, ҳар хил спорт турлари элементлари ва бошқалар. Учинчи, дарсни якуний қисмида дарсни асосий қисмида тезлик билан берилган нагрузкадан кейин фаол дам олишга ёрдам берувчи, ўйинлар, диққатни ташкил этишга шунингдек дарсни асосий қисмида қизғин ишлашдан кейин шуғулланувчиларни организмидан нисбатан тинч ҳолатга келтиришга ёрдам берадиган, паст ва ўртача ҳаракатчанликдаги ўйинлардан фойдаланиш мумкин. «Топчи, бу кимни овози» (1-2 синфда), «Ким келди» (3-4 синфда) «Синф тик тўринг» (5-7 синф), «Учувчи тўп» (8-11 синф) [2].

Дарсда вақтдан тўғри фойдаланиш зарур бўлган дарс зичлигини яратилади. Дарсни шундай ташкил қилиш керакки, ўқувчилар ҳамма вақт фаол бўлишлари керак. Шу билан бирга шунга ҳаракат қилиш лозимки шуғулланувчиларни ўйинда фаол қатнашишлари учун тахминан бирдек шароит яратиб беришга ҳаракат қилиш керак. Барча ўйинчиларни шунда хулқга эришиш учун, ҳар бир ўйин қатнашчиси тахминан бир хил нагрузка олиши зарур. Ўйинни шундай ташкил қилиш керакки, агарда ўйинда навбат бўйича ҳаракат қилишга тўғри келса, масалан, эстафетада, чунки ҳар бир ўйин қатнашчиси ўйинда фаол қатнашишга киришиш олдида тушишга имкон боришига кам вақт сарфлаши керак.

Бундай ҳолатда ўйновчиларни кўпроқ камандага бўлиш, топшириқ вақтини чералаш, югуриш масофасини қисқартириш мақсадга мувофиқ бўлади. Агарда ютқазган ўйинчи ўйиндан чиқса, бундай чиқаришни жуда қисқа вақт билан чегириш керак ва энг яхшиси очко билан алмаштирилгани маҳқўл, чунки ўйин тамом бўлгандан кейин уни ҳисобга олинади. Кўп сонли ўйинчилар билан доирада битта тўпда шуғулланилганда («халқа ҳимояси», «ҳаракатчан нишон», «учувчи тўп», «тўп ўртадагича», ўйинчиларни иккита гуруҳга бўлиш тавсия қилинади ва иккита доирада бир вақтда ўтгазилади.

Худди шундай ўйинни доирада қаршилиқ кўрсатиш билан ўтгазиш мумкин «доирага тортиш», «хўрозлар жанги», «чўнка шувоқ»). Бундай ҳолатда ўйновчиларни жисмоний имкониятларини ҳисобга олган бўлиши тавсия этилади. Ўйинни бошида узоқ вақт кўтиб қолмаслик, ўйинда кўп вақт бўлмаслик учун, ўқитувчи ўйини ўтказишга жуда яхши тайёргарлик куриши зарур: ўйин учун жойни тайёрлаш, асбоб-

анжом, жихозлар, тушунтиришни қисқа матни, айрим ролларни бажариш учун ўйинчиларни тезда тақсимлаш усули, командаларга тақсимлашдир[5].

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Nurullaev A. R. Methods of developing endurance in students through the use of folk games in physical education classes //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 11. – С. 520-524.
2. Ruzimbaevich N. A., Ruzimbaev M. A. RESEARCH PARK. – 2021.
3. Нуруллаев А. Р. РЕАБИЛИТАЦИЯ СПОРТСМЕНА //Рекомендовано к изданию Советом по качеству УралГУФК Протокол № 8 от 14 мая 2018 г. – 2018. – С. 213.



METHODS OF TRAINING SPECIAL PHYSICAL QUALITIES IN THE VOLLEYBALL GAME

Tursunov Mirshod Shodievich¹

Bukhara State University

KEYWORDS

physical education, sports, technique, tactics, volleyball, game, special, exercise, method

ABSTRACT

In the article, the methods of educating athletes of special physical qualities in the volleyball game physical training consist of general and special physical training processes, which should be organized in accordance with the characteristics of a suitable sport.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6635879

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of Bukhara State University, Bukhara, UZB

VOLEYBOL O'YINIDA MAXSUS JISMONIY SIFATLARNI TARBIYALASH USULLARI

KALIT SO'ZLAR:

jismoniy tarbiya, sport,
texnika, taktika, voleybol,
o'yin, maxsus, mashq, metod

ANNOTATSIYA

Maqolada voleybol o'yinida sportchilarning maxsus jismoniy sifatlarni tarbiyalash usullari jismoniy tayyorgarlik umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik jarayonlaridan iborat bo'lib, muvofiq sport turining xususiyatiga mos ravishda tashkil qilinishi taqazo etadi.

Jismoniy tayyorgarlik umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik jarayonlaridan iborat bo'lib, muvofiq sport turining xususiyatiga mos ravishda tashkil qilinishi taqazo etadi. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni tarbiyalashga qaratiladi.

Sport faoliyatida texnik-taktik malakalarni samarali ijro etish vamuayyan sport turida yuqori natijalarga erishish sportchilarni shakllangan jismoniy tayyorgarligiga bevosita bog'liqdir. Binobarin, jismoniy sifatlarni (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik) maqsadga muvofiqdir shakllantirish sport tayyorgarligining muhim shakllaridan biridir. Umumiy jismoniy sifatlarning rivojlanganlik darajasi maxsus jismoniy sifatlarni samarali yoki samarasiz shakllanishiga bog'liq bo'ladi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik sportchilar organizmining funksional imkoniyatlarini oshirish va maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratiladi [1].

Barcha sport turlari kabi voleybolda ham o'yin malakalari tez, aniq va vaziyatga nisbatan maksadga muvofiq ijro etish eng avvalo maxsus jismoniy sifatlarga bog'likdir. Maxsus jismoniy tayyorgarlikning asosiy vositalari turli yo'nalishda ijro etiladigan maxsus mashqlar bo'lmish to'p kiritish, qabul qilish, uzatish, zarba berish, to'siq qo'yish kabi o'yin malakalaridan iboratdir. Ma'lumki, zamonaviy voleybolda barcha o'yin malakalari aksariyat vaziyatlarda o'ta katta tezlikda tayanchsiz holatda (sakragan vaqtda, ko'krakka yiqilib to'pni qabul qilish) ijro etiladi. Demak, maxsus jismoniy tayyorgarlik jarayonini tashkil qilishda sport tayyorgarligining davri va bosqichlariga qarab sakrash, turli yo'nalishda qisqa oraliqlarga chopish, «yiqilish» to'xtash, depsinish mashqlari alohida yoki o'yin malakalarini ijro etish bilan qo'llanilishi mumkin. Maxsus kuchni rivojlantirish voleybolda qator o'yin malakalari to'p-kiritish, zarba berish, to'siq qo'yish-aksariyat kuch sifatining yuqori darajada rivojlanganligini talab qiladi. Binobarin, ushbu malakalarni samarali bajarish uchun qo'l va oyoklar, umuman tana qismlarining mushaklari tez va kuchli qisqarish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda mushaklarning qisqarishi portlovchi kuch bilan amalga oshirilishi kerak. Demak, voleybolchi kuchini shakllantirishda asosiy e'tibor tezkor-kuch sifatini rivojlantirishga oid maxsus mashqlarga qaratilishi darkor.

Ushbu maxsus mashqlarni o'yin malakalari bilan bir vaqtda qo'llanilishi yaxshi samara beradi [6].

Tezkor-kuch sifatlarini tarbiyalash, ayniqsa ularni og'irlik moslamalari (oyoq va belga qo'rg'oshindan qilinga moslama, zarba berishda bilakka o'rnashtirilgan og'irlik moslama) va turli trenajerlar yordamida rivojlantirish umumiy jismoniy tayyorgarlik bosqichida amalga oshirilishi maksadga muvofiqdir. Quyida ayrim tana qismlari mushaklarni kuchini rivojlantiruvchi namunaviy mashqlar yoritilgan:

Bilak mushaklari kuchini rivojlantiruvchi mashqlar:

- gantellarni (1-3 kg) qo'llarda ushlab, bilak-kaft bo'g'imida o'ng va chap tomonga aylanma harakat qildirish;

- shu bo'g'imda – gantelni yuqoriga va pastga harakatlantirishi;

- to'ldirma to'pni uloqtirish (qo'llar yuqoriga yozilgan holatdan, bilak-kaft bo'g'imiga urg'u berish lozim);

- to'ldirma to'pni ikki qo'llab yuqoridan uzatish va hokazo.

Yelka mushaklari:

- har xil holatlardan turli uzoqlikka to'ldirma to'pni uloqtirish;

- o'ng va chap qo'l bilan amortizatorida zarba malakasini taqlid qilish;

- qo'llarga tayanib yotgan holatda qo'l bilan «yurish», «siljib yurish», «sakrab yurish»;

- shu holatda – turli yo'nalishlarga;

- to'p (yoki to'ldirma to'p) bilan zarba berish;

- o'tirgan holatda oldinga va orqaga to'ldirma to'pni uloqtirish;

Sakrovchanlik voleybolda aksariyat o'yin malakalari sakragan holatlarda ijro etiladi. Shuning uchun ushbu sifat foydali natijaga erishishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Namunaviy mashqlar:

- o'z vaznidan 50-70% og'irliklar bilan o'tirib-turish;

- 50% dan ortmagan og'irlikni yelkaga qo'yib yarim o'tirgan holatdan shiddat bilan turish;

- turli og'irlikdagi moslamalar bilan sakrash;

- trenajerlarda oyoq mushaklarini mashq qilish;

- turli tezlikda balandlikda skakalka bilan sakrash;

- turli balandlikdagi to'siqlar osha sakrash va h.k.

Maxsus tezkorlik voleybolchini maxsus tezkorligi uni qisqa muddat ichida maydoncha bo'ylab harakatlanishi va o'yin malakalarini vaziyat talabiga mos ravishda samarali ijro etish bilan belgilanadi.

Tezkorlik voleybolda uch xil shaklda namoyon bo'ladi:

- turli ishora va vaziyatni fahmlash;

tezligi (jamoadoshining ishorasi, o'yin vaziyatining o'zgarishi va uni baholash, raqib o'yinchining joylashishi va h.k.);

- ushbu vaziyatlarga nisbatan tezkor va maqsadga muvofiq harakat qilish;

- harakatlanish yoki bir necha harakatlarni ko'p martalab ijro etish tezligi [3].

Namunaviy mashqlar:

- murabbiyni turli ishorasiga turli haraatlar bilan tez va aniq javob berish: murabbiy bir marta chapak chalsa – to'pni yiqilib olish malakasini taqlid qilish, ikki marta chapak chalsa, sakrab zarba berish taqlidini bajarish, bir qo'lini yuqoriga ko'tarsa-sakrab to'p uzatish taqlidi va x.k.

- voleybol maydonchasi maketida turli taktik vazifalarni qisqa muddatda ychish (taktik vazifani baholash va to'g'ri qabul qilish) tezligini takomillashtirish;

- har bir zonada shu zona o'yinchisi funksional harakati (malakasi)ni taqlid qilish (umumiy tezlik baholanadi). M: 1 zona – to'p kiritish; 6 zona – raqib tomondan yo'naltirilgan to'pni yiqilib olish; 5 zona – raqib tomondan kiritilgan to'pni 2 zonaga uzatish; 4 zona – baland uzatilgan to'p sakrab zarba berish; 3 zona – qisqa uzatilgan to'p sakrab zarba berish; 2 zona – 2,3 va 4 zonalarda to'sik qo'yish va hokazo.

Maxsus chidamkorlik zamonaviy voleybolda turli mazmundagi maxsus chidamkorlik (sakrash chidamkorligi, tezkor va tezkor-kuch chidamkorligi, o'yin chidamkorligi) hal qiluvchi omil deb e'tirof etiladi. Ushbu sifatlar, ayniksa, so'nggi partiyalarda o'zini «men»ligini ko'rsatadi. Chunki, chidamkorlik, shu jumladan yuqorida qayd etilgan chidamkorlik turlari tushunchasi – uzoq vaqt davomida charchamasdan shu sifat yoki o'yin malakalari yuqori ish qobiliyati darajasida samarali ijro etish demakdir.

Xususan, “O‘tkan kunlar” romanining shuhrat topishida qardosh xalqlar tarjimonlarining mashaqqatli mehnati ham yotadi. Yozuvchi Tohir Malikning fikricha, “Bir asarni dunyo tanimog‘i faqat darajasiga bog‘liq emas, balki bu o‘rinda qoyilmaqom tarjima ham muhimdir.”⁴ Albatta, har bir satrida milliylik va tarixiylik ufurib turgan asarni tarjima qilish mutarjim oldiga murakkab vazifalarni qo‘yadi. Birinchidan, tarjimon tarixiy asarga asos qilib olingan o‘tmish davr bilan yaxshi tanish bo‘lishi kerak, ikkinchidan, asardagi milliy ruhni chuqur mushohada qila olishi darkor, o‘zbekona lutf va urf-odatlarini puxta bilishi lozim, uchinchidan, asliyat tilini bilmaydigan tarjimonlar mutaxassislar tomonidan mukammal tarzda sharh va izohlar bilan tayyorlangan taglamalar bilan ta‘minlanishi zarur, to‘rtinchidan, asliyat adabiyotining bilimdoni yoki mazkur adabiyot an‘analaridan boxabar bo‘lishi talab etiladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda shuni e‘tirof etish lozimki, qabul qiluvchi muhitning ham imkoniyatlarini e‘tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bu holat, ayniqsa, qardosh bo‘lmagan tillarga taalluqlidir. Buyuk rus adibi F.M.Dostoyevskiy ta‘biri

² Ibrohimova Sh. “Odil Yoqubov romanlaridagi milliylikning turkcha tarjimalarda aks etishi.Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati.Toshkent-2010, 4-b.”

³ I.A.Karimov,Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.2-jild.T.:O‘zbekiston,1996.

⁴ T.Malik.tanlangan asarlar.5-jild.T.,2007.

bilan aytganda, “Badiiy tarjimada bir soʻz ortiqcha ham, kam ham boʻlmasligi kerak.”⁵

Abdulla Qodiriy kabi shaxsiyati va asarlari milliy maʼnaviyatning moʻtabar namunasi boʻlgan ulugʻ yozuvchining asarlarini har tomonlama tadqiq etmoq gʻoyatda muhimdir. Uning bu asari turk Ahsen Batur tomonidan ham tarjima qilinib kitobxonlarga taqdim etilgan. “ Biz oʻzimizni qurshab turgan olamni sezgi aʼzolarimizning bosh miyamizga bergan axboroti yordamida bilib boramiz. Bilish jarayonida narsa va hodisalarni, harakat-holatlarni, belgi va xususiyatlarni bir-biriga zidlash , ularning oʻzaro oʻxshash va farqli tomonlarini aniqlash katta ahamiyatga ega. Bizning butun bilim faoliyatimiz zidlanishga asoslangan desak, yanglishmaymiz. Ana shunday zidlanishlar tilimizda ham oʻz ifodasini topgan. Birini aytishimiz bilan uning zidi xayolimizga keladi. *Zid maʼnoli soʻzlar* (antonimlar) –grekcha anti-“*zid*”, onoma “*nom*” degan maʼnoni anglatib, qarama-qarshi maʼnolarni ifodalaydigan soʻzlardir. Antonimik juft hosil boʻlishi uchun ikkita mustaqil tushuncha maʼno jihatdan oʻzaro qarama qarshi boʻlishi kerak. Feʼllardagi boʻlishli-boʻlishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi. Antonimlar baʼzan juft holda qoʻllanib maʼno kengaytiradi yoki maʼno ifodalaydi: tun-u kun (har doim). Nutqimizda lugʻaviy antonimlardan foydalanish fikrimizni taʼsirli ifodalashda katta ahamiyatga ega.

Zid maʼnolikni yuzaga keltiruvchi uch xil belgi mavjud:

- 1.Shakl jihatdan har xillik;
- 2.Maʼnolarda har xillik;
- 3.Maʼnolardagi oʻzaro zidlik;

Zid maʼnoli soʻzlar bir soʻz turkumi doirasida vujudga keladi, ayniqsa, sifat va ravish soʻz turkumida zid maʼnolilik koʻp uchraydi, ot va feʼllarda kamroq. Son, olmosh , yordamchi soʻzlarda antonimlik yoʻq”.⁶

Zid maʼnoli soʻzlar badiiy adabiyotda qarshi tushuncha- tazod uslubini yaratish uchun xizmat qiladi. Zid maʼnoli soʻzlar orasiga chiziqcha qoʻyib yoziladi: kecha-kunduz, katta-kichik kabi.

Antonimlar haqida aytib oʻtilgan yuqoridagi ilmiy fikrlarga tayanib “Oʻtkan kunlar” romanining badiiy maktub matnlarida aks etgan zid maʼnoli soʻzlarni izohlab oʻtamiz.

Oʻgʻlim, sen bir qadar *oq* bilan *qorani* ajrata olasan, yozgʻanlarimni diqqat bilan oʻqi [1:35].

Tarjimada:

Oʻglum, sen bir noktaya kadar *akla karayi* birbirinden ayirdedebiliyorsun [2:41].

- Oq-qora;
- Ak-kara;

Yuqorida jumlada qoʻllanilgan *oq* va *qora* zid maʼnoli soʻzlar aslida sifat soʻz turkumiga mansub boʻlib, ibora tarkibida otlashib, hayotning past-u balandi maʼnosida kelmoqda. Tarjimada *ak* va *kara* deb berilgan antonim soʻzlar ham ayni yuqoridagi maʼnoni tashimoqda.

Ana, oʻgʻlim, bizning xalqning holiga *yigʻlashni* ham bilmaysan, *kulishni* ham [1:36]!

⁵ Федоров.Введение в теорию перевода. М.,1952

⁶ D.Andaniyozova,G.Andaniyozova,Z.Muqimova.Hozirgi oʻzbek adabiy tili.Toshkent-2014.91-b.

Tarjimada:

Bizim halkımızın haline *güler misin, ağlar mısın* [2:42]?!

- Yig'lash-kulish;
- Gülmek-ağlamak;

Yig'lamoq va kulmoq fe'llari asosiga *-sh, -ish* harakat nomi qo'shimchalari qo'shilib, fe'lning otga xoslangan shakli, ya'ni harakat nomi yasalgan va ular antonimlikni hosil qilgan.

Tarjimada *gülmek* va *ağlamak* fe'llari uyushgan kesim vazifasida kelib, antonim so'zlarni hosil qilgan.

Musulmonqul janobidek bir bahodirdan andisha qilmay uning *dushmanlarini sarfarozi*⁷ aylab *do'stlarini g'amkin* qiladirlar [1:118].

Tarjimada:

Müsülmankul cenapları gibi bir bahadırdan korkmayanlar *düşmanlarını memnun, dostlarını ise kedere* garketmektedirler.

Quyidagi zid ma'noli so'zlar paydo bo'lgan:

No	Asl matnda	Tarjimada
1	<i>Dushman-do'st</i>	<i>Düşman-dost</i>
2	<i>Sarfarozi aylamoq-g'amkin qilmoq</i>	<i>Memnun etmek-kedere garketmek</i>

Yuqoridagi jumlaning ikki o'rinida zid ma'noli so'zlar kelgan. Birinchi juftlik ot so'z turkumiga mansub *dushman* va *do'st* so'zlaridir.

Sarfarozi aylamoq so'zi xursand *qilmoq* degan ma'noni bildirib, *g'amkin* qilmoq so'zining zidi hisoblanadi va ular fe'l so'z turkumiga kiradi. Tarjimada aks etgan antonimlik ham bir xil ma'no anglatmoqda. Ular tarjimada ham, asl matnda ham yasama fe'llar hisoblanadi.

Yangi yor topqanda *do'stlar, eskisidan kechmoq kerak, Eskisini o'lgan sanab, latta kafan bichmoq kerak*, [1:171]

Kumushning Otabekka yo'llagan maktublaridan birida ucragan bu she'riy parcha maktub asl holicha, ya'ni tarjima qilinmasdan berilgani uchun quyidagi shaklda keladi:

Yengi yar tapkanda dostlar, eskiden keçmak gerek,
Eskisini ölgen sanab, lette kefen biçmak gerek. [2:175]

Yosh turkshunos sifatida A.Qodiriy kabi ulug' ijodkorning ushbu misrasini quyidagicha tarjima qildim:

Yeni yar bularken dostlar, eskisinden geçmek gerek,
Eskisini ölmüş sayıp, lette kefen biçmek gerek.

Kumush tilidan Otabekka aytilgan bu misrada zid ma'noli so'zlar qo'llanilib, chiroyli tazod san'ati yuzaga kelgan. *Yangi* va *eski* so'zlari sifat so'z turkumiga kiradi. Tarjimada ham aks etgan *yeni* va *eski* so'zlari tub sifat hisoblanadi.

- Yangi-eski;
- Yeni-eski;

⁷ Sarfarozi-xursand

Kechalari ko'kka qarab kelasi oy shu kunlarda yorug' dunyoda *bormanmi, yo'qmanmi* deyman...[1:377]

Tarjimada:

Geceleri göğe bakıp, gelecek ay bu dünyada *olacak* mıyım, *olmayacak* mıyım diye düşünüyorum [2:390].

- Bor-yo'q;

Bor va *yo'q* so'zlari yuqoridagi jumlada zid ma'noli so'zlarni yuzaga keltirgan. Ushbu so'zlar modal so'z turkumiga mansubdir. Tarjimada ushbu antonimlik:

- Olacak-olmayacak;

ko'rinishda berilgan. Vaholanki, fe'llarning bo'lishsizlik qo'shimchalari bo'lmish: -ma,-me qo'shimchalari yordamida zid ma'noli so'zlar yasab bo'lmaydi, demak, tarjimada antonim so'zlar aks etmagan.

"O'tkan kunlar" romani badiiy maktublari matnlarida uchragan zid ma'noli so'zlar qatlami oz miqdorni tashkil qilganligi yuqoridagi misollardan ayondir.

Badiiy maktublar matnlari tarkibidagi antonimlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- Sifat so'z turkumidagi antonimlar;
- Fe'l so'z turkumiga kiruvchi antonimlar;
- Ot so'z turkumiga oid antonimlar;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. Qodiriy A., O'tkan kunlar, roman, "Sharq" Nashr.-matbaa aksiyadorlik kom-si Bosh tahr-ti. -Toshkent, 2012. - 384 b.

2. Ibrohimova Sh. B. "Odil Yoqubov romanlaridagi milliylikning turkcha tarjimalarda aks etishi." Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati.Toshkent-2010.

3. Qo'ng'urov R. , Jo'rayev T.Epistolylar janrning tuzilishi va uning ayrim til xususiyatlari.-Samarqand,1992.-160-b.; Karimov S.O'zbek tilining badiiy uslubi.-Samarqand,1992.-22-b.; Jo'rayev T. Hozirgi o'zbek tilida epistolylar janrning til va uslubiy xususiyatlari:Filol.fanlari nomzodi...dis.avtoref.-Samarqand,1994.-24-b.

4. Z.T.Choriyeva.Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi maktublarning lug'aviy-ma'noviy va uslubiy xususiyatlari.-Toshkent-2006.

5. X.Hamidov, G. Rixsiyeva.Turk tili. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.Toshkent-2013.

6. Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima.-T. :Fan, 1980.

7. Kadiri A., Ötgen Künler (Geçmiş Günler), Roman, Türkiye Türkçesi A.Batur, Selenge Yayınları. -İstanbul, 2005. -403 s.

8. Федоров. Введение в теорию перевода. М.,1952.

9. Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика.-М.,1969.

MONITORING OF AMELIORATIVE CONDITIONS OF IRRIGATED SOILS OF SYRDARYA REGION

U.Toshbekov¹

A.Atabekov²

Gulistan State University

KEYWORDS

irrigated lands, ameliorative measure, monitoring, drainage, mechanical content, underground waters, salinity, salt reserve, Information system of amelioration (ISA), well (piezometer), Diver's devices

ABSTRACT

This article discusses in detail the theoretical and practical aspects of monitoring the reclamation of irrigated lands based on data collected and analyzed by the Syrdarya Regional Ameliorative Service in recent years (2018-2021)

The authors emphasize the need to establish information support in the formation of a monitoring system for irrigated lands; to achieve this goal, it is necessary to develop a local monitoring structure using observational data from the Syrdarya Regional Ameliorative Service.

It is shown that if observation wells (pesometers) are transferred to an automated monitoring system and the installation of diving devices is introduced in all areas of irrigation and secondary salinization, then it will be possible to carry out continuous monitoring throughout the year and season without much effort. and time.

The data obtained show that in order to successfully solve land reclamation problems, it is necessary to conduct annual regular monitoring of irrigated lands in each farm, district and region, first of all, to carry out land reclamation work, which is of great importance for regular observations.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6657965

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Gulistan State University, Gulistan, UZB (oktamtoshbekov9@gmail.com)

² Gulistan State University, Gulistan, UZB

СИРДАРЁ ВИОЯТИ СУҒОРИЛАДИГАН ТУПРОҚЛАРИ МЕЛИОРАТИВ ҲОЛАТИ МОНИТОРИНГИ

KALIT SO‘ZLAR:

суғориладиган майдонлар, мелиоратив тадбир, мониторинг, зовур, механик таркиб,, сизот сувлари, шўрланиш, тузлар заҳираси. мелиорация ахборот тизими(МИС), қудуқ(пьезометр), Дайвер қурулмалари

ANNOTATSIYA

Ушбу мақола - суғориладиган тупроқларининг мелиоратив ҳолати бўйича Сирдарё вилоят мелиорация хизматининг охириги йиллардаги (2018-2021) кузатув маълумотларини тўплаб, таҳлил қилиш натижасида олинган маълумотлар асосида, ҳудуд тупроқларининг мелиоратив ҳолатини батафсил ўрганиб мониторингини юритишнинг назарий ва амалий жихатларига боғишланган. Муаллифлар, суғориладиган ерлар мониторинги тизимини шакллантиришда ахборот таъминотини йўлга қўйиш кераклигини, ушбу мақсадга эришиш учун Сирдарё вилоят мелиорация хизматининг кузатув маълумотларидан фойдаланган ҳолда маҳаллий мониторинг тузилмасини ишлаб чиқиш зарурлигини такидлашган.

Агар кузатув қудуқлари(пьезометрлар) автоматлаштирилган мониторинг тизимига ўтказилиб, Дайвер қурулмалари ўрнатиш ишларни барча суғорилиб деҳқончилик қилинаётган ва иккиламчи шўрланиш кузатилаётган майдонларга жорий қилинса, кўп меҳнат ва вақт сарфламасдан йил ва мавсум давомида доимий мониторинг қилиш имкониятини бериши кўрсатиб ўтилган.

Olingan materiallar мелиорация муаммоларини муваффақиятли ҳал этиш учун ҳар бир хўжалик, туман ва вилоятларда суғориладиган ерлар ҳар йили мунтазам мониторинг қилиниши, биринчи навбатда мелиорация ишлари олиб борилиши зарур бўлган майдонлар аниқланиб, бу майдонларда тупроқ унуидорлтигини оширувчи агромилиоратив ва бошқа тадбирларни ўтказиш, мелиорация ишлари ўтказилган майдонларда эса мунтазам кузатишлар олиб бориш uchun katta ahamiyatga ega.

КИРИШ

Республикамиздаги суғориладиган ерларнинг тупроқ-мелиоратив ҳолатини яхшилаш ва унумдорлигини тиклаш қишлоқ хўжалигининг долзарб масаласи ҳисобланади. Сўнги йилларда Республика Президентининг ва Вазирлар маҳкамсининг сув-ер ресурслари самарадорлигини тиклаш ва табиий бойликларидан рационал фойдаланишга қаратилган бир неча қарорлари қабул қилинган.

Республикамизда қишлоқ хўжалигининг янада ривожланишига тўсқинлик қиладиган омиллардан бири тупроқларнинг шўрланганлигидир. Катта ҳажмдаги

сув хўжалик тадбирларининг амалга оширилишига қарамасдан тупроқ шўрланиши фаоллашиб кенгайиб бормоқда. Жумладан Сирдарё вилоятининг аксарият майдонларида қишлоқ хўжалиги экинларини суғориш нотўғри амалга оширилиши ва коллектор-зовур тизимларининг яхши ишламаганлиги сабабли иккиламчи шўрланиш юзага келмоқда. Бу эса ўз навбатида пахта, ғалла ва бошқа қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилдорлигининг кескин камайиб кетишига сабаб бўлмоқда. Республика пахтачилик илмий тадқиқот институти мутахассислари тамонидан белгиланишича, пахта ҳосилдорлиги шўрланмаган майдонларга нисбатан, кам шўрланган тупроқларда 15-20, ўртача шўрланганда 35-40 ва кучли шўрланганда 70-80 фоизгача камаяди. Бундан ташқари заҳарли тузларнинг кўп тўпланиши пахта сифатига ҳам салбий таъсир кўрсатади [2,3].

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2017-2021 йиллар даврида суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш бўйича Давлат дастурининг сўзсиз бажарилишини таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2018 йилда чиқарилган қарорни ижросини таъминлаш мақсадида, мелиоратив тадбирларнинг самарадорлигини ошириш, сув хўжалиги объектлари бўйидаги ер участкалари ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш бўйича бир қатор тадбирлар амалга оширилиб келинмоқда[1, 4,5]..

Маълумки, суғориладиган майдонларда ер ва сув ресурсларидан унумли ва оқилона фойдаланиш, тупроқ унумдорлигини тиклаш ва сақлаш, қишлоқ хўжалик экинлари ҳосилдорлигини мунтазам ошириб бориш бугунги куннинг долзарб муаммоларидан ҳисобланади. Шу боис жойларда турли агротехник ва мелиоратив тадбирларни тўғри ва ўз вақтида амалга оширишни, бунинг учун эса тупроқ хоссалари, унинг мелиоратив-экологик ҳолатини батафсил мониторинг қилиб боришни, ҳамда олинган маълумотлар асосида илмий асосланган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишни талаб этади[2].

Маълумки, Сирдарёнинг ўрта оқимида жойлашган Мирзачўл воҳаси геосистемалари ва агроландшафтларида антропоген таъсир, яъни дарё оқимининг сунъий ва энергетик режимга мос равишда камайиши билан боғлиқ ҳолда юзага келган мураккаб экологик зўриқишга учраши охириги йилларда суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатига салбий таъсир кўрсатмоқда. Бунинг натижасида агроландшафтларда юз бераётган геокимёвий ва туз-сув алмашинуви жараёнларининг хусусиятларини ўрганиш, буларни ривожланишидаги асосий омилларни миқдорий жиҳатдан мониторинг қилиб бориш, баҳолаш ва улардаги юзага келаётган экологик вазиятни яхшилаш бўйича илмий асосланган тавсияларни ишлаб чиқиш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади.

Юқоридагиларга кўра, Сирдарё вилояти суғориладиган тупроқларининг мелиоратив ҳолатини яхшилаш жараёнида ундаги суғориш, шўр ювиш ҳамда сизот сувлари ҳаракатини тўғри йўналтириш, сизот сувлари умумий оқимини юқоридан

қуйига сўнгра ҳудуд нишаблигига боғлиқ ҳолда ҳаракатланиб коллектор-зовурларга чиқариб юбориш йўналишида бошқариш, бу жараён фаоллигини доимий таъминлаш тупроқларининг мелиоратив ҳолатини яхшилаш жараёнини фаоллаштирувчи асосий омил бўлиб ҳисобланади. Шу билан бирга тупроқдаги тузлар миқдорининг мавсумий ўзгариш динамикасини билган ҳолда агромилиоратив тадбирлар ишлаб чиқиш зарур.

ТАДҚИҚОТ ОБЪЕКТИ ВА МЕТОДЛАРИ

Тадқиқот мақсади суғориладиган ерлар мониторинги тизимини шакллантиришда ахборот таъминотини оптималлаштиришдан иборат бўлиб, ушбу мақсадга эришиш учун Сирдарё вилоят мелиорация хизматининг охириги йиллардаги (2018-2021) кузатув маълумотларидан фойдаланган ҳолда маҳаллий мониторинг тузилмасини ишлаб чиқиш. Тадқиқот объекти Сирдарё вилоятининг ҳар хил даражада шўрданган суғориладиган тупроқлари.

Тоғ олди паст текисликларида жойлашган Сирдарё вилояти суғориладиган тупроқларининг мелиоратив ҳолатини мониторинг қилиш ва ундан оқилона фойдаланиш мақсадидаги илмий-тадқиқот ишлари давом эттирилмоқда. Шу мақсадда, Сирдарё вилоят мелиорация хизматининг охириги йилларда (2018-2021) олинган маълумотлари тўплаиб, таҳлил қилинди. Бунда сизот сувлари сатҳи ва тупроқ қатламларидаги сувда эрувчан тузларнинг мавсумий ва йиллар давомида ўзгариш динамикаси ўрганилди. Мониторинг дастурини ишлаб чиқиш мақсадида суғориладиган майдонларда кузатув тадқиқоти ва сизот сувларидан намуналар олиш ишлари олиб борилди. Дала тадқиқотлари натижалари ва яратилган картографик материал асосида маълумотлар банкини яратиш ишлари йўлга қўйилди.

ОЛИНГАН НАТИЖАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ

Тажриба учун танлаб олинган “Мирзачўл”, “Ғалаба” ва “Уч қаҳрамон” СИУларида ер ости минераллашган сизот сулари сатҳи ва минерализатсияси харитограммасини таҳлил қилиш натижасида қуйидаги натижаларни олдик.

Мирзаобод тумани Мирзачўл СИУда ер ости минераллашган сизот сулари сатҳи 2018 йил биринчи апрель ҳолатида умумий 2795 га. майдоннинг 1167 га. да 1,5-2,0 м., 1064 га. да 2-3м., 24 га. да 3 м. дан чуқурда жойлашган бўлиб, яъни мос равишда 41,75, 57,29 ва 0,86 % ни ташил этган бўлса, шу йилнинг ўнинчи ноябрь ҳолатида 427 га. да 1,5-2,0 м., 2233 га. да 2-3м., 135 га. да 3 м. дан чуқурда жойлашган бўлиб, яъни мос равишда 15,28, 79,89 ва 4,83% ни ташил этди.

Ҳудди шундай таҳлилни Гулистон тумани Уч – қаҳрамон СИУ бўйича кўриб чиқадиган бўлсак ер ости минераллашган сизот сулари сатҳи 2018 йил биринчи апрель ҳолатида умумий 2176 га. майдоннинг 149 га. да 0-1м., 1016 га. да 1-1,5 м., 487 га. да 1,5-2,0 м., 332га. да 2-3 м., 202 га. да 3 м. дан чуқурда жойлашган бўлиб, яъни мос равишда 6,82, 46,48, 22,28, 18,19 ва 9,24% ни ташил этган бўлса, шу йилнинг биринчи октябрь ҳолатида 71 га. да 1-1,5, 1063 га. да 1,5-2,0 м., 641 га. да 2-3м., 411 га.

да 3 м. дан чуқурда жойлашган бўлиб, яъни мос равишда 3,25, 48,63, 29,32 ва 15,80% ни ташил этди.

Бу маълумотлар орқали шуни кўриш муминки мавсум охирига бориб сизот сувлари сатҳининг 3 м. ва ундан пастга яъни критик чуқурликкача пасайиши кузатилди.

Сизот сувлари сатҳининг ўзгариш динамикаси бўйича олинган маълумотлар шуни кўрсатадики, 12-ой давомида ССС 180+330см оролигида ўзгариб турди, яъни ССС нинг йил даврмидаги ўзгариш амплитудаси 150 см ни ташкил этди. Бу асосан суғориш ва ёғингарчилик, ҳамда ўсимликлар орқали транспирацияга сарфланиши билан боғлиқ.

Мирзаобод тумани Мирзачўл СИУда ер ости сизот сулари шўрланиш даражасининг ўзгариш динамикасини кўриб чиқадиган бўлсак 2018 йил биринчи апрель ҳолатида умумий 2795га майдоннинг 19 га. да 1-3г/л, 2598 га. да 3-5г/л, 378 га. да 5-6г/л ни, яъни мос равишда 0,68, 85,80 ва 13,52% ни ташил этган бўлса, шу йилнинг ўнинчи ноябрь ҳолатида 83 га. да 1-3г/л, 2301 га. да 3-5 г/л, 411 га. да 5-6г/л ни, яъни мос равишда 2.97, 82,33 ва 14,70% ни ташил этди.

Ҳудди шундай таҳлилни Уч – қаҳрамон СИУ бўйича кўриб чиқадиган бўлсак 2018 йил биринчи апрель ҳолатида умумий 2186 га майдоннинг 1728 га. да 1-3г/л, 458 га. да 3-5г/л ни, яъни мос равишда 79,05 ва 20,95% ни ташил этган бўлса, шу йилнинг ўнинчи ноябр ҳолатида 876 га да 1-3г/л, 1310 га. да 3-5г/л ни, яъни мос равишда 40,07 ва 59,93% ни ташил этди.

ХУЛОСАЛАР

Сирдарё вилоят мелиорация хизматининг охириги йиллардаги (2018-2021) кузатув маълумотларини тўплаб, таҳлил қилинганда олинган маълумотлар шуни кўрсатадики, вилоят суғориладиган майдонларининг деярли 97 фоизи турли даражада шўрланган бўлиб, бу кўрсаткич 2786 мнғ гектарни ташкил қилади (1 жадвал).

Бу жараённинг туманлар миқёсида ўзгариши қуйидагича: Мирзаобод туманида 100 % ер шўрланган, шу жумладан 70 % и ўрта ва кучли даражада;

Гулистон, Боёвут, Оқ Олтин ва Сардоба туманларида ҳам шўрланган майдонлар 94,0 -98,0 фоизни ташкил қилди (1 жадвал).

Суғориладиган майдонлардан юқори ҳосил олишда тупроқнинг мелиоратив ҳолати ҳал қилувчи рол ўйнашини тажрибали деҳқонларимиз яхши билади. Тузларнинг ҳаракатланиш жараёни мураккаб бўлиб, у ўсимликларнинг вегетация ва ундан кейинги даврларида фойдаланиладиган сув меъёри, қатламларнинг литологик тузилиши, ҳамда зовурлардан фойдаланиш самарадорлигига боғлиқ. Биз ўрганган худудларда ҳар йили мелиоратив тадбирлар мажмуоси ўтказилиб турилишига қарамай, суғорилиб деҳқончилик қилинаётган шароитда тупроқнинг иккиламчи шўрланиш ҳолати давом этмоқда. Суғориладиган тупроқларнинг шўрланганлик даражасини баҳолаш эса анча мураккаб жараён бўлиб, бу жараён

нафақат тузларнинг ўзгариб туриши, балки тупроқнинг бир фазасидан иккинчи фазасига ўтиб туриш қобилиятини, ўсимликлар учун захарлилик даражасини ва мелиоратив тадбирлар таъсирига берилувчанлигининг мавсумий ўзгариб туриши билан боғлиқ(2).

Ҳозирги кунда Республикамизнинг айрим вилоятларида Швейцария тараққиёт ва ҳамкорлик агентлиги билан биргаликда ерларнинг шўрланиш даражаси ва мелиоратив ҳолатини реал вақт режимида мониторинг қилиш имконини берувчи Мелиорация ахборот тизими(МИС) дастурий таминоти ишлаб чиқилиб, синов режимида ишлаш йўлга қўйилмоқда.

2021 йилда айрим кузатув қудуқлари(пьезометрлар) автоматлаштирилган мониторинг тизимига ўтказилиб, уларга Дайвер қурулмалари ўрнатилган. Агар бу ишларни барча суғорилиб деҳқончилик қилинаётган ва иккиламчи шўрланиш кузатилаётган майдонларга жорий қилсак, кўп меҳнат ва вақт сарфламасдан йил ва мавсум давомида доимий мониторинг қилиш имконияти бўлади.

1-жадвал

Сирдарё вилоятида суғориладиган ерларнинг шўрланиш даражаси бўйича 2018-2021 йиллар ичидаги кўрсаткичлари

Туманлар	Йиллар	Кузатув майдони, га	0-100 см, қатламда шўрлик даражаси (га / %)								Ўртачадан юқори шўрланган ерлар	
			Шўрланмаган		Кам шўрланган		Ўртача шўрланган		Кучли шўрланган		га	%
			га	%	га	%	га	%	га	%		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
Боёвут	2018	35950	539	1,51	22042	61,31	12485	34,73	884	2,45	13369	37,18
	2021	36004	987	2,73	28754	79,42	6057	16,73	406	1,12	6463	20,06
Ўулистон	2018	24733	1112	4,49	22196	89,75	1425	5,76	-	-	1425	5,76
	2021	25176	1309	5,17	23600	93,00	467	1,84	-	-	467	1,84
Мирзаобод	2018	37642	-	-	10782	28,64	23374	62,09	3486	9,27	26860	71,36
	2021	38626	-	-	11283	29,21	24501	63,43	2842	7,36	27343	70,79
Сардоба	2018	39502	580	1,47	34450	87,22	3757	9,52	674	1,70	4431	11,22
	2021	39297	1936	3,23	33098	87,22	5019	12,77	600	1,53	5619	14,30
Сайхунобод	2018	31720	1495	4,72	29495	92,98	730	2,30	-	-	730	2,30
	2021	31720	1484	4,62	30196	95,19	30	0,09	-	-	30	0,09
Сирдарё	2018	32397	2055	6,35	29350	90,59	992	3,06	-	-	992	3,06
	2021	32158	1495	4,65	29323	91,18	1340	4,17	-	-	1340	4,17
Ховос	2018	44622	268	0,61	31992	71,69	9773	21,90	2589	5,80	12362	27,70
	2021	45240	125	0,48	34252	75,71	8890	19,65	1973	4,36	10863	24,01
Жами	2018	290683	7845	2,70	219443	75,49	54841	18,87	8554	2,94	63395	21,81
	2021	287200	8600	3,00	220577	75,49	56549	19,16	6877	2,35	63426	21,70

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, мелиорация муаммоларини муваффақиятли ҳал этиш учун ҳар бир хўжалик, туман ва вилоятларда суғориладиган ерлар ҳар йили мунтазам мониторинг қилиниши, биринчи навбатда мелиорация ишлари олиб борилиши зарур бўлган майдонлар аниқланиб, бу майдонларда тупроқ унудорлтигини оширувчи агромилиоратив ва бошқа тадбирларни ўтказиш, мелиорация ишлари ўтказилган майдонларда эса мунтазам кузатишлар олиб бориш талаб этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Комилов О.К. Мелиоративное состояние и плодородие вновь освоенных почв Голодной степи. Ташкент, ФАН, 1985 г.
2. I. Rakhmonov, K.Ismailova, N . Kushiev. U. Toshbekov. "Subsurface evaporation at the Mirzachul area in Uzbekistan", 25324-Article Text-38711-1-10-20200618.pdf, 3081-3090p
3. Ў. Тошбеков, А. Алтмишев Суғориладиган ерларда қўлланилаётган мелиоратив тадбирларнинг ҳозирги ахволи ва уни яхшилаш йўллари. "22-апрель Халқаро Ер куни" га боғишланган "Ўзбекистон тупроқлари ва улар унудорлигини оширишда янги ресурстежамкор технологиялар" мавзусидаги Ёш олимларнинг илмий-амалий семинари материаллари, Тошкент, 2015.
4. Ў. Тошбеков, И. Рахмонов. "Шўрланган тупроқларда заҳарли тузлар миқдорининг ўзгаришига ширинмия ўсимлигининг таъсири", Ўзбекистон Аграр фани хабарномаси, №6/2(84), 2020, 221-224б.
5. U. Toshbekov, I. Raxmonov, D.Kim, Sh. Botirov "The Influence of the Licorice Plant on the Change in the Amount of Toxic Salts in Saline Soils", 4473-Article Text-8227-1-10-20210502, 12217-1222p.



USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION: PROBLEMS AND PROSPECTS

Uralov Shuhratbek Ahror ugli¹

Obidov Shaxrom Bahrom ugli²

Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad ibn Musa al-Khwarizmi

KEYWORDS

information technologies, info
communication technologies,
education, training,
educational digital
environment

ABSTRACT

The article presents an analysis of the problem of using information technologies in the field of education: the concept, purpose, types and forms, directions and prospects for use. The structure of the modern educational digital environment is given. The possibilities of information educational technologies in the design and implementation of the educational process, the features of implementation at the present stage of education development and in response to the actual challenges of the time are determined. The educational and upbringing potential of information technologies is revealed. The article is addressed to teachers of higher educational institutions, teachers of the system of additional education, graduate students, undergraduates, students of pedagogical universities, and other workers in the field of education.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6660027

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad ibn Musa al-Khwarizmi, Tashkent, UZB

² Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad ibn Musa al-Khwarizmi, Tashkent, UZB

Modern science is developing at an unimaginable speed, spreading its achievements in all spheres of human life. Universal informatization was reflected in the field of education in the form of the introduction, adaptation and dissemination of numerous information technologies at all levels of education, from preschool to university, as well as additional. So, among the global trends in the labor market that determine the education system today are: freelancing, work outside the office or industrial premises; changing the means of communication between employees; changing processes, tools and methods for managing workflows; human-robot, human-artificial intelligence interaction; growth in decision-making speed and data processing technologies; multitasking.

Currently, it can be observed that educational organizations are still in a state of overcoming the traditional problems of the industrial paradigm of education. Training is mainly associated with individual work, an individual assessment system, the issuance of ready-made tasks and initial data, the lack of multitasking and a focus on the correct, the only possible solution to the problem. Learning based on competencies, including the competencies of the future, cannot be built on the educational technologies of the past, which were the most effective and expedient for training specialists in the conditions of the industrial era of the 20th century. The transition to a new educational model is possible only if the educational system is fully integrated into the digital environment.

The global changes affecting the modern educational system include the following: a change in the methods and ways of delivering information and educational content; changing the nature, methods of access to educational content; changing the nature of the interaction of subjects of the educational process; educational content. Over the past decades, educational technologies have undergone significant changes, moving from passive to active, from simply using computers for printing to replacing teachers with robots, the introduction of modern information technologies and the digitalization of information content in general.

Information technology in a general sense is interpreted as a process of accumulation, processing, presentation and use of information by electronic means. In the field of education, information technologies are studied in the context of the term "information and communication technologies" (abbreviated as ICT), since the teacher transmits information through communication (most often through computer means) with a student or pupil. We believe that the concept of "information technology" in the context of the progressive development of technology is much broader than the concept of "computer technology", since the computer is not the only means of using information technology: modern students use a variety of gadgets (phones, tablets, etc.), are included in social networks, which can also be adapted to the learning goals.

The basic goal of using information technologies in the educational sphere is to improve the quality of education, to create effective motivation for students in the educational process. With the help of information technologies, a teacher can clearly and visually present educational information, create conditions for students to independently

search and receive information, control knowledge using computer testing - the potential of such technologies is huge, depending on the teacher himself. The use of information technology contributes to the development of variability, individualization of the learning process, motivates the process of perceiving information and obtaining new knowledge of the student, develops his intellectual and creative abilities. In addition, information technologies have become an integral attribute of the life of a modern person, and therefore their use by students does not require long adaptation, addiction.

The use of modern digital and information technologies in education will improve the role of the teacher and the student in the learning process. The student becomes a more active participant in the educational process, manages it to a certain extent, sets goals for himself (for example, searching for information), learns to operate with a large amount of various information, transform it, and gets the opportunity to model processes. The position of the teacher becomes not so much passive as helping, accompanying, supervising. Together, the use of information technology in education makes the learning process more efficient.

To date, information technology has been widely used in the following areas of pedagogical activity:

1. Development and execution of pedagogical and methodological documentation.
2. Use of Internet resources for professional communication, rapid response to changes in regulatory requirements, feedback.
3. The use of ready-made intelligent learning technologies in the educational process and the creation of their own multimedia didactic materials.

The presented list can be supplemented with technologies of augmented and virtual reality, Internet platforms for the implementation of distance learning, which have recently acquired particular relevance. In general, modern realities in the form of the spread of coronavirus infection have shown the importance of mastering information technologies by both teachers and students themselves. It makes no sense to compare the effectiveness of full-time and distance learning, since each of them has its own specifics and advantages, but their combination in the educational process is definitely the most modern form of education.

Thus, the introduction of information technologies in the educational process contributes to the formation of a fundamentally new form of continuous education, the fundamental basis of which is self-analysis of the self-educational activity of the student, supported by modern ICT tools. That is, information technologies make the education process continuous - the student learns not only in an educational organization, he searches for information, analyzes it, learns the world, even builds contact with the teacher and beyond.

At the present stage of development of society in general and education in particular, information technology is not an auxiliary tool for coordinating the educational process, but an integral part of the learning process, which has great potential. We repeat, the potential of information technologies in education can be revealed when the participants in the

educational process have the appropriate competencies (ICT competencies), the aspirations of the teacher to make the learning process effective, innovative and, accordingly, apply a creative, non-trivial approach to its organization.

It should be noted that informatization and digitalization of the education system is a continuous process and an inevitable trend in the development of modern education, and therefore the teacher must follow the path of acceptance, development of information technologies, and not opposition, rejection. At the present stage of development of education, information technology is one of the basic (rather than auxiliary) methods, forms of education that have great educational and upbringing potential.

REFERENCES:

1. Averin, S. A., Alisov, E. A., Murodkhodzhaeva, N. S., Noskov, I. A., Tsaplina, O. V., & Osipenko, L. E. (2018). Information technologies in education: forming the competences of the future. *International Journal of Engineering and Technology (UAE)*, 7(4.7), 276-282.
2. Karimov, U., & Kasimov, I. (2018). The importance of modern information technologies in development of distance education. *Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018)*, 1186-1187.
3. Korostev, A. A., Morozova, I. M., Gruzdeva, M. L., Smirnova, Z. V., Vaganova, O. I., Chanchina, A. V., & Maltseva, S. M. (2019). Modern information and communication technologies in the advanced education of children. *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering*, 8(9), 2376-2382.
4. Berestneva, O. G., Maroukhine, O. V., & Maroukhine, M. A. (2002, September). Evaluation of quality education on the basis of modern information technologies. In *Proceedings 2002 IEEE International Conference on Artificial Intelligence Systems (ICAIS 2002)* (pp. 441-443). IEEE.
5. Rakhmatov, D., & Nomozova, E. (2020). The use of multimedia technologies in the educational system and teaching methodology: problems and prospects. *International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education*, 1(2), 28-32.
6. Rakhmatov, D. (2021). Mobile technologies in the higher education system. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(02), 182-196.
7. Рахматов, Д. Р. (2020). Зарубежный опыт цифровой трансформации бизнес-процессов в развивающейся экономике Узбекистана: проблемы, недостатки, противоречия. In *Цифровизация и её влияние на жизнь современного общества* (pp. 186-197).
8. Юсупов, Р. М., Рахматов, Д. Р., & Рахматов, Д. Р. (2020). Безопасность Мультимедийной Коммуникации с Использованием Криптографии. *Инженерные решения*, (10), 10-12.
9. Рахматов, Д., & Ахатов, А. Р. (2020). Кибер жиноятларни юзага келиш омили ва кибер этика: муаммо ва истиқболлар. *Science and Education*, 1(1), 227-234.



SCIENTIFIC APPROACHES TO ADJECTIVE GROUPING

Obidjonov Khojimurod Khudoiberdi ugli¹

Andijan State University

KEYWORDS

semantic groups of adjectives,
abstract concepts, phonetic
structure, grammatical laws

ABSTRACT

This article discusses the semantic grouping of adjectives. Examples of classifications given by classification linguists are given.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6665748

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of the Faculty of Philology, Andijan State University, Andijan, UZB

SIFATNING GURUHLANISHIGA OID ILMIY QARASHLAR

KALIT SO‘ZLAR:

sifatlarining ma’no guruhleri, abstrakt tushunchalar, fonetik qurilish, grammatik qonuniyat

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sifat so‘z turkumining semantik jihatidan guruhlariga bo‘linishi haqida so‘z boradi. Tasniflashga oid tilshunoslar tomonidan berilgan tasniflarga misollar keltirilgan.

Milliy fan sifatidagi tilshunoslikka ma’naviyat muammosi globallashuvi jarayonining tezlashuvi kuchli ta’sir ko‘rsatadi hamda uning oldiga ulkan va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalarni qo‘yadi. Bu, ayniqsa, bugungi kunda mustaqilligini o‘zi mustahkamlayotgan O‘zbekiston uchun yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, toptalgan ma’naviy qadriyat, poymol etilgan axloqiy ustunlarimizning tiklanishi va kamol topishiga mustaqillik yillarida poydevor yaratilganligi ta’kidlanadi. Masalan, ona tilimiz mavqeining tiklanganligi, uning davlat tili maqomiga ega bo‘lganligi shular jumlasidandir.

Bugungi kunda ona tili, o‘zga tillarga hurmat muammosi bilan birga davlat tili madaniyatini yuksaltirish asosiy vazifadan bo‘lsa, iste’molga kirayotgan davlat tili madaniyati tushunchasi esa axloqiy, ma’naviy kategoriyadan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa tilning milliy tabiati yaqqol aks etadigan grammatik qonuniyatlarni ana shu metodologik asoslarga tayangan holda chuqur tahlil qilish, muammoga til va tafakkur, til va ma’naviyat, til vama’naviyat mushtarakligidan kelib chiqqan holda munosabatda bo‘lishni taqozo qiladi. Tilshunoslarimiz M.Mirtojiyev va N.Mahmudov o‘zlarining «Til va madaniyat» risolasida «har bir til o‘z so‘z boyligiga, bu so‘zlar esa ma’lum fonetik qurilishiga, izchil grammatik qonuniyatlariga ega bo‘ladi. Uning shu tomonlariga putur yetib borar ekan, til inqirozga yuz tutadi», - deydilar. Tilshunos olim G‘Zikrillayevning ta’kidlashicha, «milliy adabiy tilning ahvoli ana shu ma’nodagi milliy ruhga bog‘liq bo‘ladi». Milliy ruh esa milliy tafakkur va milliy tuyg‘u bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbek tilshunosligi tom ma’nodagi mustaqil fan sifatida o‘zbek tilining o‘zbekona tabiatini ochiq-oydin o‘rganib, uni milliy g‘oya va milliy mafkurani targ‘ib qilishning tarkibiy qismiga aylantirdi. Bugungi kunda morfologiyada grammatik kategoriya va shakllarning, so‘z turkumlarining yangicha tasnifi va ularni ta’lim oluvchilarga o‘rgatish borasidagi ta’limga olib kirilayotgan ilmiy yangiliklar – interaktiv metod, texnologiya, integratsiya kabi tushunchalarning kirib kelishi fikrimizning dalilidir. Xususan, morfologiya bo‘limini o‘rganish, nafaqat so‘z turkumlari, balki ularning ma’no guruhleri tasnifi haqidagi tilshunoslarimiz tomonidan aytilayotgan turli fikrlar, tilimiz rivojiga ulkan hissa qo‘shmoqda. O‘zbek tilida sifatni ma’no jihatdan guruhlash masalasiga turlicha yondashuvlar mavjudligini ham e’tibordan chetga qoldirmaslik kerak. Avvalo, o‘zbek tilshunosligida sifat ma’no guruhleri tasnifi masalasiga to‘xtalamiz. Sifatlar o‘z navbatida bir qator ma’no turlariga ajratiladi. O‘zbek tilshunosligida sifatni ma’no guruhlariga ajratish, dastlab, A.Kononov tomonidan amalga oshirilgan. U sifatni ma’no

jihatdan yetti turga ajratadi:

- 1) rang-tus anglatuvchi soʻzlar;
- 2) maza-taʼm anglatuvchi soʻzlar;
- 3) hajm-shakl anglatuvchi soʻzlar;
- 4) kishi va hayvonning xususiyatlarini ifodalovchi soʻzlar;
- 5) umumiy xususiyatlarni anglatuvchi soʻzlar;
- 6) xarakter-holat anglatuvchi soʻzlar;
- 7) kishi va hayvonlarning jismoniy kamchiligini ifodalovchi soʻzlar;

Shundan soʻng koʻplab tilshunos olimlarimiz sifatning maʼno guruhlarini haqida ilmiy-izlanishlar olib borishdi. I.Hamdamaova, M.Sodiqova, A.Hoshimov, F.Najmiddinov shular jumlasidandir. Tilshunos I. Hamdamova ham sifat maʼno guruhlarini mantiqiy tamoyil asosida yetti guruhga boʻladi: 1.Rang-tus bildiruvchi sifat. 2.Insonga xos xususiyatni bildiruvchi sifatlar. 3.Hayvonot dunyosiga xos sifatlarini bildiruvchi sifatlar. 4.Narsa-predmetlarga xos belgi, xususiyatni koʻrsatuvchi sifatlar. 5.Tabiat hodisalariga xos belgini namoyon qiluvchi sifatlar. 6.Jamiyat hodisalariga xos belgini ifodalovchi sifatlar. 7.Abstrakt tushunchaga xos xususiyatni bildiruvchi sifatlar. Tilshunos ayni guruhlarini oʻz ichida maʼnosiga koʻra yanada kichikroq guruhlarga ajratiladi. Bundan maqsad sifatlar anglatgan maʼnolarni toʻlaroq, izchilroq koʻrsatish ekani taʼkidlanadi:

1. Rang-tus bildiruvchi sifatlar quyidagicha tasniflanadi:

- a) axromatik rang: oq, qora, kulrang;
- b) xromatik rang: qizil, sariq, yashil;
- d) spektr rang: bugʻdoyrang, jigarrang;

2. Insonga xos xususiyat, belgini bildiruvchi sifatlar quyidagicha guruhlanadi:

- a) aql va xarakterga xos sifatlar: vazmin, dono;
- b) turli holatni bildiruvchi sifat: boʻydoq, aybdor;
- d) tashqi qiyofani ifodalovchi sifat: garang, gung;
- d) aqliy ojizlikni bildiruvchi sifat: ahmoq;
- e) biror hodisa yoki predmetga munosabat bildiruvchi sifat.

3.Hayvonot dunyosiga oid belgi-xususiyatni bildiruvchi soʻzlar quyidagicha tasniflanadi:

- a) otlarning zotiga koʻra turlari: arabi, qalmoqi;
- b) tashqi koʻrinishga va jismoniy kamchiligiga koʻra belgilarni ifodalovchi sifat:

qilichboʻyin;

- d) xulq-atvoriga koʻra sifat turlari: yoʻrgʻa, tepongʻich;
- e) qoramol va echkilarga xos xususiyat bildiruvchi: suzongʻich, suzagʻon;
- f) itlarga xos xususiyatni ifodalovchi sifatlar: qopagʻon;

4. Narsa-xususiyatlarga xos belgini ifodalovchi sifatlar quyidagicha guruhlarga ajratiladi:

- a) narsa-predmetlarni xarakterlovchi sifatlar: butun, baland;
- b) sezgi organlari vositasida xis qilish sifatleri: achchiq, nordon;
- d) predmet materiali va tashqi belgi-xususiyatlarni bildiruvchi sifatlar: devoriy,

oynavand;

e) ish-harakat, holat bildiruvchi sifatlar: yopiq, pishiq;

f) vaqtga munosabat bildiruvchi sifatlar: bugungi, abadiy;

g) o'ringa munosabat bildiruvchi sifatlar: olis, uzoq;

5. Tabiat hodisalariga xos belgini anglatuvchi so'zlar quyidagicha guruhlanadi:

a) o'simlik dunyosiga xos belgini ifodalovchi sifatlar: dumbul;

b) ob-havoga oid belgini ifodalovchi sifatlar: ayoz;

6. Jamiyat hodisalariga xos xususiyatni izohlovchi sifatlar: jahonshumul;

7. Abstrakt tushunchalarga xos belgi-xususiyatni bildiruvchi sifat: ajoyib.

O'zbek tilshunosligida oid adabiyotlarda, biz biladigan maktab va akademik litsey o'quvchilari uchun yaratilgan darsliklarda, o'quv qo'llanmalarda ham M. Sodiqovanning keltirilgan sifatning ma'no guruhlari tasnifi asos sifatida keltirilgan. M.Sodiqova o'zbek tilidagi sifatlarni quyidagi ma'no guruhlari farqlaydi: xarakter-xususiyat va holat bildiruvchi sifatlar; rang-tus bildiruvchi sifatlar; shakl bildiruvchi sifatlar; hajm-o'lchov bildiruvchi sifatlar; maza-ta'm bildiruvchi sifatlar; hid bildiruvchi sifatlar; vazn bildiruvchi sifatlar; o'rin-paytga munosabat bildiruvchi sifatlar.

Keltirilgan tasniflardan ayon bo'ldiki, olimlarning o'zbek tilidagi sifatning ma'no turlari tasnifi borasidagi fikrlarida yakdillik yo'q. Afsuski, bu xususdagi fikr va g'oyalar xilma-xilligi hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent.: O'zbekiston. 1992. 110-bet.
2. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – Москва. 1948. С-144-145.
3. O'zbek tili grammatikasi. Morfologiya. I tom. – Toshkent. 1975. 296-bet.
4. Sodiqova M. Hozirgi o'zbek tilida sifat. – Toshkent.: Fan. 1975. 79-bet.



MADAMINBEK IS THE LEADER OF THE TURKESTAN INDEPENDENCE MOVEMENT

Qosimova Nasiba Samijonovna¹

School No. 61 in Turakurgan

KEYWORDS

Independence Movement,
Turkfront, M.V. Frunze,
Garbuva, Provisional
Government of Fergana,
Polikovsky, Glende Fraser

ABSTRACT

This article provides some insights into the national liberation movement of the peoples of Turkestan in the first quarter of the 20th century against the Soviet invaders, known as the "Independence Movement". In particular, there is some information about the leader of the "Independence Movement" Madaminbek.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6667868

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ History Teacher at School No. 61 in Turakurgan, Namangan, UZB

MADAMINBEK –TURKISTON ISTIQLOLCHILIK HARAKATI YO‘LBOSHCHISI

KALIT SO‘ZLAR:

Istiqlolchilik harakati,
Turkfront, M.V. Frunze,
Garbuva, Muvaqqat Farg‘ona
hukumati, Polikovskiy,
Glende Freze

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 20-asrning birinchi choragida Turkiston o‘lkasi xalqlarining sovet bosqinchilariga qarshi “Istiqlolchilik harakati” deya nom olgan milliy-ozodlik harakati to‘g‘risida ayrim mulohazalar keltirilgan. Xususan, “Istiqlolchilik harakati”ning yetakchisi Madaminbek haqida ayrim ma’lumotlar keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng, sovetlar davrida qoralanib, tubanlik botqog‘iga botirilgan bir qator buyuk ajdodlarimizning muqaddas nomlari oqlandi, tarixiy haqiqatlar aslicha va to‘laligicha qayta tiklandi. Shunday shaxslardan biri Turkiston milliy istiqolchilik harakati rahbari Muhammad Ahmadbek o‘g‘lidir. Rus hukumati tomonidan O‘rta Osiyoni zabt etilganidan so‘ng, o‘lka xalqlari o‘z erkinligi va ozodligini tamoman yo‘qotdi. 1917-yildagi “Fevral inqilobi” va podsho humatining ag‘darilishi, hamda “Oktabr to‘ntarishi” natijasida hokimiyat tepasiga bolsheviklarning kelishi Turkiston xalqlarining hayotida ham tub burilish yasadi va ozod va erkin milliy davlatchilik tuzish zaruratini keltirib chiqardi. Turkiston o‘lkasi xalqlarining sovet bosqinchilariga qarshi milliy-ozodlik harakati tarixiy adabiyotlarda “Milliy istiqolchilik harati” deya talqin etiladi. Istiqolchilik harati 1917-yil Farg‘ona vodiysida boshlanib 1934-yilgacha davom etgan. 1918-1920-yillar oralig‘ida istiqolchilik harakati o‘zining yuksak cho‘qqisiga chiqadi. Sho‘ro adabiyotlarida bu harakatga “Bosmachilik harakati” deya noto‘g‘ri talqin etishadi, “bosmachilik” so‘zi mohiyatan bosib olish, talonchilik ma’nolarida qo‘llanilsa, unda bir xaqli savol tug‘iladi, xo‘sh, Istiqolchilik harakati a‘zolari kimlarning yerini bosib, tortib olgan ekan? O‘z uyini, o‘z yerini bosib olish mumkin emasku? Istiqolchilar o‘z yerlarini bosib uni talon-taroj etishmagan, balki uni sho‘ro bosqinchilaridan himoya qilgan.

Shu o‘rinda “Istiqlolchilik harati” haqidagi rus vakillarining fikrlarini ko‘rib chiqsak. N.E.Kakurin, G.Kozlovskiy, L.Soloveychiklar “Istiqlolchilik harati”ni “partizanlar harakati”, “inqilobiy kurash”, “ozodlik kurashi” deb talqin etishsa, V.Kuybishev Istiqolchilik haratini “siyosiy harakat” deya baholaydi, harbiy komissar Sokolovning fikricha Istiqolchilik harati “Turkiston xalqining begona hokimiyatga qarshi milliy isyonidir”, yozuvchi Boris Pilnyak: “Istiqlolchilarni yuksak ism va sharaf sohiblaridir” deydi. Taniqli Turkfront qo‘mondoni M.V.Frunze esa: “Istiqlolchilik harati oddiy bezorilik emas, agar shunday bo‘lganda ularni tezroq yo‘q qilish mumkin bo‘lardi” deya vaziyatga baho beradi [1].

Turkistondagi Istiqolchilik harakati va unda harakat qilgan qo‘rboshi dastalarga to‘xtaladigan bo‘lsak tadqiqotchilarning aniqlashicha har bir qo‘rboshi ixtiyorida 20 tadan 1800 nafargacha yigit bo‘lgan, Shahobiddin Yassaviy ma’lumotlariga ko‘ra Turkistonda shu davrda 114 ta qo‘rboshi faoliyat yuritgan bo‘lib, qo‘lida qurol bilan bolshevizmga qarshi

kurashga otlanganlar soni esa 100 mingdan oshiq bo'lgani qayd etiladi. Sho'ro qo'mondonligining maxsus bo'limi xodimlari tomonidan 1923-yil kuzida tayyorlangan "Mutlaqo maxfiy" deb nomlangan hujjatlaridan birida qayd etilishicha, 1923-yilda Farg'ona vodiysida 181 ta qo'rboshi harakatda bo'lgan. To'kil "Farg'ona mujohidlari" asarida faqat Shermuhammadbek boshchiligida 8 mintaqqa qo'mondonlari qo'l ostida 65 qo'rboshi harakat qilganligini nomma-nom keltiriladi. Uning qayd etilishicha Farg'ona mujohidlari orasida "general" unvonining sohibi bo'lgan 125 qo'rboshi faoliyat ko'rsatgan. B.Hayit asarlarida esa Farg'ona vodiysida 9 larkarboshi va ular qo'l ostida harakat qilgan 69 qo'rboshining ism-shariflarini beradi [2].

The article analyzes the planning of preparatory work on the basis of the study of the problems encountered in the organization of training of young boxers, as well as the development of the effectiveness of the competition

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6678072

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Master of Jizzakh State Pedagogical Institute, Jizzakh, UZB

² Master of Jizzakh State Pedagogical Institute, Jizzakh, UZB

BO'SMLARDA SHUG'ULLANUVCHI BOKSCHILARNI TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

KALIT SO'ZLAR:

boks, mashg'ulot, musobaqa, hujum, zarba, texnika, taktika, mahorat, samaradorlik

ANNOTATSIYA

Maqolada yosh bokschilar mashg'ulotlarini tashkil qilishda yuzaga kelayotgan muammolarni o'rganib borish asosida tayyorgarlik ishlarini rejalashtirish masalalari tahlil qilingan hamda musobaqa samaradorligini rivojlantirish masalasi o'rganilgan.

Bugungi kunda dunyoda boks sport turi yanada raqobatbardosh, keskin va universal tus olmoqda, shu sababli yuqori malakali bokschilarning tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar keskin ortib bormoqda.

Bunda qarshi hujumlardan foydalanishning ortishi, to'siqli vaziyatlarda hujumlar sonining kamayishi holatlari paydo bo'lmoqda. Buni ekstremal sharoitlarda harakatlarni nazorat qilishning yomonlashishi, tavakkalchilikka moyillik bilan tushuntirish mumkin. Chalg'ituvchi omillar bilan kechadigan vaziyatlarda bokschilarning hujum va himoya – javob harakatlari natijaviyligi ancha kamayadi. Shu bilan birga, to'siqli va to'siqsiz vaziyatlarda alohida taktik tavsiflarga ega janrlarni olib borish hajmlaridan ishonchli farqlar aniqlanmadi.

Musobaqa faoliyatining muvaffaqiyatini belgilab beruvchi asosiy texnik harakatlar hujumlar, himoyalar va javoblar hamda qarshi hujumlar chalg'ituvchi omillar bilan kechadigan vaziyatlarda texnik harakatlar hajmi va natijaviyligini ham pasayishi kuzatiladi. Texnik harakatlar ishonchligini oshirish uchun yuqori malakali bokschilarni chalg'ituvchi omillarga nisbatan qarshilik hissini tarbiyalash zarurligi tadqiqotlar jarayonida aniqlangan.

Zamonaviy boksning rivojlanishi, bellashuvlarni olib borish va musobaqalarni o'tkazish qoidalarini o'zgarishlari hamda g'oliblarni aniqlashning musobaqalar barqarorligiga erishishni qiyinlashtiradigan uzoq muddatliligi va ko'p bosqichliligi bilan tavsiflanadi.

Shu tufayli, sport mahoratining mustahkamligini oshirishning muhim zaxiralaridan biri – ko'p bosqichli musobaqalarda bellashuvni olib borishning xususiyatlarini va ixtisoslashtirilgan faoliyatning samaradorligini limitlovchi omillarni aniqlash hisoblanadi. Shu bilan birga, bir qator mualliflarning fikriga ko'ra, texnik-taktik tayyorgarlik – sportchi mahoratining asosi hisoblanadi va ko'proq darajada uning imkoniyatlarini belgilaydi.

Boksda usullarni bajarishning texnikasi va taktikasini o'rgatish va takomillashtirish usulini o'rganish va ilmiy asoslashga ko'p sonli mualliflarning ishlari bag'ishlangan.

Lekin, ushbu ishlarda va boks bo'yicha zamonaviy darsliklarda, musobaqalarning yangi shartlarida bokschilarning musobaqa faoliyatining taktik tavsiflariga bag'ishlangan ma'lumotlar kamuchraydi.

Mavjud ma'lumotlar bir qator qarama-qarshiliklarga ega bo'lib, shu tufayli ham, zamonaviy boksning nazariyasi va amaliyotini qoniqtira olmaydi. Mavjud muammo, o'rgatish va takomillashtirishni tashkil qilish paytida hisobga olinishi zarur bo'lgan taktik harakat amallarining turli variantlarining ko'p qirraligi bilan murakkablashtiradi.

Maxsus adabiyotlarni tahlil qilish natijasida, taktik harakatlarning miqdoriy parametrlariga nisbatan konkret tadqiqotlar va tavsiyalar yo'qligi aniqlangan bo'lib, bu, musobaqa oldi tayyorgarligining asosiy vositalaridan biri bo'lgan – musobaqa faoliyatini modellashtirish imkoniyatini chegaralaydi.

Buning barchasi, yuqorida bayon qilingan, bokschilar jangining taktik manerasini belgilaydigan muammolarni o'rganish va tahlil qilishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Og'ir vazdagi bokschilarda ko'pchilik jangovar usullarni bajarish texnikasining baholari yengil vazndagila yoki o'rta vazndagilarnikiga nisbatan past. Masalan, beshta ko'rsatkichlar bo'yicha (o'ng qo'l bilan to'g'ridan tanaga, chap qo'l bilan yonboshdan tanaga, pastdan chap qo'l bilan boshga zarba berish, manevr va tayyorgarlik harakatlari, fintlar va aldanchi harakatlar) ular yo yengil vazndagilardan, yoki o'rtacha vazndagilardan pastroq larajada, oltita

ko'rsatkichlar (chap qo'l bilan to'g'ridan tanaga, o'ng qo'l bilan yonboshdan boshga zarba berish, sho'ng'ish, egilib chap berish bilan himoyalaniş, harakatlanishlar, qo'llanilayotgan usullarning xilma xilligi) bo'yicha esa – ular, ikkala toifadagi bokschilardan past darajada (farqlar statistik ishonarli).

O'ng qo'l bilan to'g'ridan boshga zarba berishni og'ir vazndagilar boshqa vazn toifadagi sportchilarga ko'ra yaxshi bajaradilar. Bu, mazkur zarba ko'pchilik og'ir vazndagilar uchun "qurol" hisoblanishi bilan tushuntiriladi va ko'pchilik bellashuvlarning taqdiri shu zarbaga bog'liq, shu tufayli, ular ushbu zarbani berish texnikasini takomillashtirish uchun ko'p vaqt sarflaydilar.

Qolgan usullarni bajarish texnikasi, boshqa vazn toifasidagi bokschilarnikidan farq qilmaydi.

Shunga ham e'tibor berish lozimki, ko'pchilik holatlarda, texnika jihatidan eng murakkab bajariladigan usullarning baholarida uncha katta bo'lmagan farq kuzatiladi. Bu, masalan, bajarish texnikasi bo'yicha boshga zarba berish texnikasiga nisbatan murakkab hisoblangan tanaga zarba berishga taalluqlidir. Xuddi shuning o'zini, boshqa turdagi himoyalanişga nisbatan murakkab hisoblangan

– sho'ng'ishlar va egilib qochishlar to'g'risida ham aytsa bo'ladi. Harakatlanishlar kabi muhim texnik usulni og'ir vaznli bokschilar tomonidan past darajada bajarilishini ham aytish lozim.

Bokschining harakatchanligi ko'p hollarda ushbu usulga bog'liq, demak og'ir vaznli bokschilar uchun ayniqsa muhim bo'lgan raqib zarbalariga kamroq uchraydi.

Olingan faktlar, trenerlar o'rtasida amalga oshirilgan so'rov natijalari bilan bilvosita tasdiqlanadi, ular, og'ir vazndagilar ko'pincha jangni olib borishning ancha bir xildaligi bilan farq qilishadi va nokaut va uzluksish bosim ko'rsatish taktikasini ustun ko'rishadi. Umuman, bokschilarning texnik-taktik mahoratini tadqiq qilish, uni yengil va o'rta vazn

bokschilarinikiga nisbatan, og'ir vazndagilarda ancha past darajada ekanligi to'g'risida dalolatberadi.

Mazkur xulosalar boks sport turini rivojlantirishda mavjud va yuzaga kelayotgan muammolarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yosh bokschilarning tayyorgarligini tashkil qilishda o'z samarasini beradi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Неупокоев, С.Н., Капилевич, Л.В., Кабачкова, А.В., Лосон, Е.В., Крупицкая, О.Н. "Анализ показателей системы внешнего дыхания при совершенствовании ударных движений у боксеров различной спортивной квалификации", Вестник Томского государственного университета, (2015).

2. Павлова О.И. Комплексная система подготовки квалифицированных легкоатлетов на этапах становления спортивного мастерства, Москва, 2004.

3. Панасюк Т.В., Тамбовцева Р.В. – Конституциональные особенности физической работоспособности подростков. В сб. VII Международный науч. конгресс «Современный Олимпийский спорт и спорт для всех», том 2, Москва 2003.

4. Олейник, Н.А., Чибисов, В.И., Рейдерман, Ю.И., Скрипченко, И.Т., Чередник, Е.А. "Разработка методики определения текущего состояния сердечно-сосудистой и дыхательной систем у спортсменов", Слобожанський науково-спортивний вісник, № 5-2 (33), (2012).

5. Кокорина Е.А. Морфологические критерии спортивного отбора в циклических скоростно – силовых игровых и единоборствах Спб 2014.

6. Платонов В.Н. Двигательные качества и физическая подготовка спортсменов М- 2019.

7. Хасанов, А. Т. (2017). Физическая культура и спорт как важный аспект в формировании личности. Молодой ученый, (11), 527-529.

8. Хасанов, А. Т. (2017). Физическая культура-надежда нации. Молодой ученый, (12), 591-592.

9. Bakhromov, O. T., & Khasanov, A. T. (2020). The problem of motivation and the meaning of the concept "motiv". ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(10), 1247-1251.

10. Хасанов-преподаватель, А. РОЛЬ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ МОТИВАЦИИ О. Бахромов-старший преподаватель кафедры методики преподавания видов спорта.

11. Бахромов, О. Т., & Хасанов, А. Т. (2020). ВЛИЯНИЕ МОТИВАЦИИ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ. In НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 110-114).

12. hasanov, anvar. (2021). СПОСОБЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ.: WAYS TO FORM A HEALTHY LIFESTYLE FOR CHILDREN IN THE FAMILY. Физическое воспитание, спорт и здоровье, 5(5). извлечено от <https://pshedu.jspi.uz/index.php/pshedu/article/view/4513>

13. xasanov, anvar. (2022). ЗНАЧЕНИЕ МОТИВАЦИИ К ИЗБЕГАНИЮ НЕУДАЧ В ДОСТИЖЕНИИ УСПЕХА ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ: ЗНАЧЕНИЕ МОТИВАЦИИ К ИЗБЕГАНИЮ НЕУДАЧ В ДОСТИЖЕНИИ УСПЕХА ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ. Физическое воспитание, спорт и здоровье, 5(5). извлечено от <https://pshedu.jspi.uz/index.php/pshedu/article/view/4861>

14. xasanov, anvar, & olimov, alisher. (2022). БОЛАЛАРНИ ОИЛАДА СО?ЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ.: БОЛАЛАРНИ ОИЛАДА СО?ЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. Физическое воспитание, спорт и здоровье, 5(5). извлечено от <https://pshedu.jspi.uz/index.php/pshedu/article/view/4864>

15. xasanov, anvar. (2022). OPPORTUNITIES FOR FORMATION OF PROFESSIONAL CULTURE IN FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS: OPPORTUNITIES FOR FORMATION OF PROFESSIONAL CULTURE IN FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS. Физическое воспитание, спорт и здоровье, 5(5). извлечено от <https://pshedu.jspi.uz/index.php/pshedu/article/view/4870>

16. xasanov, anvar, & Олимов, А. (2022). WAYS TO FORM A HEALTHY LIFESTYLE FOR CHILDREN IN THE FAMILY.: WAYS TO FORM A HEALTHY LIFESTYLE FOR CHILDREN IN THE FAMILY. Физическое воспитание, спорт и здоровье, 5(5). извлечено от <https://pshedu.jspi.uz/index.php/pshedu/article/view/4871>

17. hasanov, anvar, & Олимов, А. (2022). JISMONIY TARBIYA VA SPORT BILAN SHUG'ULLANUVCHILARDA, JISMONIY HARAKAT MALAKA VA KO'NIKMALARNI SHAKILLANTIRISHNING BOSQICH VA TALABLARI: JISMONIY TARBIYA VA SPORT BILAN SHUG'ULLANUVCHILARDA, JISMONIY HARAKAT MALAKA VA KO'NIKMALARNI SHAKILLANTIRISHNING BOSQICH VA TALABLARI. Физическое воспитание, спорт и здоровье, 5(5). извлечено от <https://pshedu.jspi.uz/index.php/pshedu/article/view/4869>

18. hasanov, anvar. (2022). ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОВ ОБРАЗОВАНИЯ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ФИЗИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОВ ОБРАЗОВАНИЯ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ФИЗИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ. Физическое воспитание, спорт и здоровье, 5(5). извлечено от <https://pshedu.jspi.uz/index.php/pshedu/article/view/4530>

19. xasanov, anvar, & olimov, alisher. (2022). БОЛАЛАРНИ ОИЛАДА СО?ЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ.: БОЛАЛАРНИ ОИЛАДА СО?ЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. Физическое воспитание, спорт и здоровье, 5(5). извлечено от <https://pshedu.jspi.uz/index.php/pshedu/article/view/4864>

20. A.T. Hasanov, Tillaev Bobur Farkhod ugli, & Mamatqulova Mukarram Gapporovna. (2022). METHODS OF PHYSICAL DEVELOPMENT AND MOVEMENT SKILLS OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS. Journal of Academic Research and Trends in Educational

Sciences, 1(7), 89–94. Retrieved from
<http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/132>

21. A.T. Hasanov, & R.M. Toshpulatov. (2022). IMPROVEMENT OF METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(7), 95–99. Retrieved from <http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/133>

22. A.T. Hasanov, & A.B. Mamanazarova. (2022). METHODS OF FORMING CHILDREN A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(7), 6–9. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/113>

23. Hasanov, A. T., & Mamanazarova, A. B. (2022). WRESTLING PREPARATION PROCESS IN SPORTS SCHOOLS. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 3, 174-176.

24. hasanov, anvar. (2021). ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. Физическое воспитание, спорт и здоро

25. Хасанов, А., & Хасанова, Х. Ж. ?АРАКАТЛИ ЎЙИНЛАР ОР?АЛИ ЁШ АВЛОДНИ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ.



PRONUNCIATION TEACHING TECHNOLOGIES

Boltayeva Gulilola¹

Baxtiyorova Madina²

Jizzakh State Pedagogical Institute

KEYWORDS

pronunciation, modern
methods, audiobooks,
programs, sites, modern
technologies

ABSTRACT

Today, the interest in language learning is growing. Many reforms are being carried out in our country for the development of foreign languages. The most gratifying thing is that methods of teaching and learning are emerging, combining foreign languages and the IT industry. Easy and fast language learning through these technological methods is developing rapidly.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6686218

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Lecturer at the Department of English Language Teaching Methods, Jizzakh State Pedagogical Institute, Jizzakh, UZB

² Student of Jizzakh State Pedagogical Institute, Jizzakh, UZB

TALAFFUZ O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

KALIT SO'ZLAR:

talaffuz, zamonaviy usullar, audiokitob, dasturlar, saytlar, zamonaviy texnologiyalar

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda til o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada ilgarilab bormoqda. Yurtimizda chet tillarini rivojlantirish uchun juda ko'p islohotlar amalga oshirilmoqda. Eng quvonarlisi shuki, chet tillarini va IT sohasini jamlagam holda o'qitish va o'rganish usullari paydo bo'lmoqda. Bu texnologik usullar orqali oson hamda tez til o'rganish jadal rivojlanmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar deganda birinchi navbatda, albatta kompyuter ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Kompyuter til o'rganishda juda katta yordam beradi. Kompyuter va yangi texnologiyalar yordamida tilni "istalgan joyda-istalgan vaqtda" o'rganish talaffuz uchun juda foydalidir. Talaffuzni o'rgatish/o'rganish uchun juda ko'p zamonaviy texnologik vositalar mavjud. O'quvchilar bu texnologik vositalar yordamida talaffuzini oson va sifatli o'rganishlari mumkin. Ingliz tilini talaffuz qilish tilni o'rganish, o'rgatishdagi eng qiyin jarayonlardan biri hisoblanadi. Ko'p narsa talaffuzni o'rganishga yordam beradi, o'rganuvchilarning yoshi, motivatsiyasi va shaxsiyati - hamda o'quvchilarning o'ziga - o'qitish sifatiga, birinchi tilga bog'liqligi - bu tashqi omillardir. Shunga qaramay bugungi kunda biz o'rganishni xohlagan tilimizni zamonaviy texnologiyalar orqali osongina o'rganishimiz mumkin. To'g'ri talaffuz qilishni o'rgatishning turli xil usullari mavjud. Misol tariqasida quyidagilarni keltirib o'tishim mumkin. Bulardan biri bu - fonetik mashqlardir. Ingliz tili talaffuzini o'rgatishning an'anaviy usuli "Fonika" hisoblanadi. Fanda yana "Vizual Fonika" degan tushuncha ham mavjud. Vizual Fonika o'quvchilarga tilni o'rganishda yordam berish uchun tovushlar va so'zlarni jonlantirib ko'rsatadi.

Taqlidiy metod— tabiiy va sodda. Lekin u tilni, jumladan, uning talaffuz tomonini ongsiz o'zlashtirishga asoslanadi. Fonetik birliklarni anglab yetmasdan yaxlit tarzda biron-bir namunaga binoan (mas. rriualingga ergashib) o'zlashtirish metodiga taqlid nomi berilgan. Tovushlar monandligi (analogiya)ga suyanib, uning fahmiga bormasdan idrok etilsa yoki aytilsa, taqlidiy o'rganish sodir bo'ladi. Taqlid muallimdan ibratli talaffuzni, o'quvchidan o'tkir eshitish qobiliyatini talab qiladi (J. Jalolov,2012, 208-bet). Shuningdek, eshitish orqali o'quvchilar o'z talaffuz xatolarini sezishlari va kelgusi darsda bu xatolarini takrorlamasligi mumkin. Bu jarayonda so'zlarni birinchi o'qituvchi aytadi, so'ngra o'quvchilar takrorlashadi. Shuningdek, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishda lablar, og'iz harakatlariga alohida e'tibor berish, ularni to'g'ri qo'llashda xatolarga yo'l qo'ymaslik muhim. Ushbu usul to'g'ri talaffuzni mustahkamlash uchun asos bo'la oladi. O'quvchilar o'rgangan usullarini yanada mustahkamlash uchun kichik she'rlar, tez aytishlar, maqollar yod olishlari mumkin. Darsliklarda berilgan dialoglarni, qo'shiqlarni yod olish ham yaxshi natija beradi. Tovushlarni mashq qilish bilangina kifoyalanish yetarlicha emas. Ularni ko'proq og'zaki nutqda ham qo'llay bilish lozim.

Dars jarayonida o'quvchilarni ko'proq so'zlarni talaffuz qilishga undaydigan mashqlar bajartirish ham foydadan holi emas. Masalan:

1- Namunaga ko'ra so'zlarni talaffuz qilish.

2- Talaffuzida qiynaladigan so'zlarni qatnashtirib gaplar tuzish va aytish.

3- Savol-javob mashqlarini bajarish. Talaffuzida qiynaladigan so'zlar ishtirokidagi javoblarni talab qiladigan savollar tuzish.

4- Qo'shiq kuylash. Qo'shiq kuylash orqali ham talaffuzni rivojlantirish mumkin. Bunda birinchi navbatda qo'shiq matni o'quvchilar soniga ko'ra listga chiqartiriladi va o'quvchilarga tarqatiladi. Qo'shiqni tinglash jarayonida matniga ham qarab boriladi. So'ngra qo'shiqqa hamohang tarzda birgalikda kuylanadi. Bu usul ham so'zlarning yozilishini ham talaffuz qilinishini o'rganishda yaxshi yordam beradi.

Bugungi kunda chet tillarini o'rgatish, o'rganishda zamonaviy usullar hamda texnologiyalardan keng qamrovda foydalanilmoqda. Misol tariqasida hammaga ma'lum o'sha "Booknomy" va "Tedbook" kitoblarini keltirmoqchiman. Bu kitobni istalgan paytda - istalgan joyda o'rganish mumkin. Negaki, kitobda berilgan mavzularning "Audio" shakli ham mavjud. Bunda mavzudagi so'zlarni ko'rib o'qish bilan birgalikda tinglab talaffuzni o'rganish mumkin.

Talaffuzni to'g'ri rivojlantirishda asosan "urg'u", "bo'g'in" larga e'tibor qaratish kerak. Chunki ingliz tilida talaffuzi bir biriga juda o'xshash so'zlar juda ko'p. Ular urg'u so'zning qayeriga tushishiga ko'ra talaffuz qilinadi. Bo'g'in va intonatsiyaga e'tibor berish orqali talaffuzni yaxshilash mumkin. Bu ingliz tili talaffuzini o'rganishning eng yaxshi usullaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim sohasini texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin. Hozirgi zamonaviy texnologiya davrida axborot texnologiyalaridan foydalanish tilni yanada tez va samarali tushunishga va o'rganishga yordam beradi. Kompyuter, telefon, quloqchinlar turli tuman texnika vositalari til o'rganuvchilariga beminnat yordam beradi. Til o'rgatuvchi dasturlar, saytlar, programmalar va dasturlar shunday tuzilganki, talaffuzni o'rganishda hech qanday qiyinchiliklarga duch kelmaysiz. Shuningdek, til o'rganish jarayonida diktafonlardan foydalanish ham yaxshi usuldir. Bunda so'zning to'g'ri talaffuz shaklini ovoz chiqarib diktafonga yozib olib, keyin, bo'sh vaqtlarda yoki biror bir yumush bajarayotganda ham takrorlab eshitish orqali o'rganish mumkin. Bundan tashqari, ingliz tilidagi subtitrlil multfilmlar, filmlar, qo'shiqlar, shoularni ko'rish ham chet tillarini o'rgatishda yaxshi usullardan biridir.

Chet tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanganda o'quvchilarda til o'rganishga bo'lgan qiziqish paydo bo'ladi. Shuningdek, o'tilayotgan dars sifatini, o'quvchilarning darsda yanada faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Zamonaviy texnologiyalar dunyoning juda tez o'zgarishiga, jadal rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Dunyoning bir chetida turib, narigi chetini boshqarmoqda. Ta'lim sohasida ham bu texnologiyalarning ko'plab foydasi tegmoqda.

Biz bugungi kunda texnologiyalar hukmronlik qilayotgan davrdamiz. Texnologiyalar ta'limda ham o'z o'rniga ega. Ular juda muhim ro'l o'ynaydi. Olimlarning fikriga ko'ra, 90%

o'quvchi yoshlar maktabda, qo'shimcha darslardan, o'quv zallarida, ko'chada yoki boshqa vaziyatlarda turli xil turdagi texnika vositalaridan foydalanishmoqda. So'ngi yillarda yangi texnologiyalar bilan to'ldirilgan yoki jihozlangan o'quv xonalarida til o'rgatish rivojlanmoqda. Bunday o'qitish tizimi - mutaxassislar tomonidan ma'qullangan. Ba'zi saytlar til o'rganish uchun yaratilgan. Ba'zi veb saytlar til o'rganish uchun viktorinalar, quizlar, boshqotirmalar kabi o'quv mashg'ulotlarini ishlab chiqmoqda. Til o'rganuvchilari bir-biri bilan chat orqali bog'lanib muloqot qilishlari mumkin. Veb - konferensiyalarning turli tumani bor. Bu vositalar orqali onlayn ta'lim olish, uzoqdan turib o'qituvchi bilan jonli efirda dars o'tish, ko'plab o'quvchilarni birlashtirishi mumkin. Misol tariqasida ZOOM ni keltirishimiz mumkin.

Yana ko'plab veb - saytlar dasturlar til o'rganish uchun juda foydali va samaralidir. Ular boshqa maqsadlarda ishlab chiqilgan bo'lsada ta'lim sohasida ham ko'p foydasi tegmoqda. Tarjima saytlarining ham turli xillari paydo bo'lmoqda. Ular o'quvchilarga matnlarni tarjima qilishda, ma'nosini tushunib olishda qo'l kelmoqda.

O'qituvchilar zamonaviy texnologiyalar orqali dars o'tishlari uchun avvalo texnologik vositalarni yaxshi bilishi va har tomonlama foydalana olishi zarur. Shundagina o'quvchilarga sifatli va a'lo darajada dars berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Introduction to Teaching Pronunciation
2. J.Jalolov. Chet tilini o'qitish metodikasi. 2012, 208-bet
3. Lam.Y. Modern languages review.
4. Cohen.L.2007.Research methods in education.
5. Hashemian.M.2013. An analysis of pronunciation.



DEVELOPMENT OF SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Seyilbekova Rano¹

Nukus State Pedagogical Institute

KEYWORDS

Independence, Culture, Berdoq,
Ajiniyaz, National Crafts,
Academy of Sciences, Values,
Fine Arts, Classical Literature

ABSTRACT

This article focuses on the achievements and reforms in the development of science during the years of independence. Science in Karakalpakstan is about people who have contributed to the development of science and their scientific work.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6686253

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Trainee researcher, Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, UZB

MUSTAQILLIK YILLARDA QORAQALPOĞISTONDA ILM FANNING RIVOJLANISHI

KALIT SO‘ZLAR:

Mustaqillik, mádaníyat, Berdoq, Ajiniyoz, milliy hunarmandshilik, fanlar akademiyasi, qádiryatlar, jozibali san'ati, mumtoz adabiyot

ANNOTATSIYA

Bu maqolada asosan mustaqillik yillarida ilim fanning rivojlanishi qólga kirgizilgan yutuqlar va ólib borilgan islohatlar haqida sóz etiladi. Qoraqalpoğistondagi ilim fanning rivojlanishiga óz hissalarini qoshgan shaxslar haqida ularning ilimiy ishlari haqida gap ketadi.

Qoraqalpoq xalqi qadimiy va boy tarixga ega. Uning milliy madaniyati, jozibali san'ati, mumtoz adabiyoti, qadriyatlarini, udum va an'analari olamga mashhurdir.

Mustaqillik tufayli qoraqalpoq xalqi juda kóp qadriyatlarini qayta tiklash imkoniyatiga ega bóldi. Adolat va tenglik, ozodlik va erk uchun kurashgan Ernazar Olakóz, Ollayor Dóstnazarov singari xalq qahramonlarining jasoratli, ót yurakli Qoraqalpoq farzandlarining orzu-armonlari amalga oshdi.

Milliy madaniyat va mánaviyatning qaror topishiga, qoraqalpoq xalqining klassik shoirlari Berdoq, Ajiniyoz bobolar ijodiy meroslarining tóla tiklanishiga, aziz xotiralarining ulug'lanishiga yól ochib berdi.

Bugungi kunda Ibroyim Yusupov, Tólepbergen Qaipbergenov, Tilovbergen Jumamuratov kabi qoraqalpoq yozuvchi va shoirlarining asarlari xalqlarimiz mánaviy xazinasidan munosib joy oldi.

Sobir Kamolov, Charjau Abdirov kabi yirik olimlar Ózbekiston fani rivojiga juda katta hissa qóshdilar.

Bugungi kunda respublika xalq tálimi tizimi milliy uyg'onish, ijtimoiy-iqtisodiy va mánaviy rivojiga xizmat qilishda yetakchi rol óynamoqda.

Respublikada yangi tipdagi órta umumtálim muassasalari-litseylar, gimnaziya va alohida fanlarni chuqurlashtirilgan holda óqitiladigan maktablar tez rivojlanmoqda. 1996-yil oxirida respublikada 743 ta umum tálim maktabi faoliyat kórsatdi, shu jumladan, ayrim fanlarni chuqurlashtirilgan holda óqitiladigan maktablar 1991-yilda 31 ta bólgan bólsa, 1996-yilda 169 taga yetdi, litsey va gimnaziya 19 taga yetdi. Ótgan yilning ózida óquvchilar soni 1743 nafarga kópaydi.

Barcha qishloq hunar-texnika bilim yurtlarida traktorchi-mashinistlar tayyorlash chegaralanib, órniga turli mintaqalar uchun zarur bólgan kadrlar tayyorlashga etibor kuchaytirildi. Milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga, gilam tóqish, keramik buyumlar tayyorlash, ganchkorlar va boshqa shu kabi hunar egalarini tayyorlashga ahamiyat berila boshlandi.

Respublikadagi 22 ta órta maxsus óquv yurtlarida, shu jumladan, kunduzgi bólimda 11,8 ming óquvchi tálim olmoqda. Berdaq nomidagi Qoraqalpoğ'iston Davlat Universiteti hamda Ajiniyoz nomli Nukus Davlat pedagogika institutida oliy málumotli mutaxassislar

tayyorlanmoqda. Bu óquv yurtlarining kunduzgi bólimlarida 9 ming nafar talaba óqimoqda. Universitetda qishloq xójaligi va tibbiyot ixtisosligi bóyicha fakultetlar ham mavjud.

Bozor iqtisodiyotiga ótish davri qiyinchiliklariga qaramay respublika hukumati xalq tálimi moddiy-texnika bazasini mustah-kamlash chora-tadbirlarini kórmqda. Keyingi 6 yilda 42 ming 778 órinli maktab, 6 ming 660 órinli bog'cha, 6 ming 840 órinli kasb-hunar kollejlari binolari qurilib foydalanishga topshirildi. Birgina 1996-yilning ózida esa 3126 órinli maktab qurib ishga tushirildi.

1991-1996-yillarda fan sohasida ham sezilarli ózgarishlar bóldi. 1992-yilda Ózbekiston Respublikasi Fanlar Akademiya-sining Qoraqalpoq filialiga Qoraqalpoq bólimi maqomi berildi. Uning tarkibida ilgari 3 ta institut mavjud bólgan bólsa, yana ik-kita institut qóshildi. Tarix, arxeologiya va etnografiya hamda bio-ekologiya institutlari ham shu bólim tarkibiga kirdi. Botanika bog'i bólinmasiga esa bólim maqomi berildi. 1994-yilda esa Fanlar Aka-demiyasi tarkibiga Ózbekiston Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli tajriba instituti va tibbiyot klinikasi ham kiritildi.

Fanlar Akademiyasida tashkil etilgan bunday tadbirlar olimlar-ga tabiiy va ijtimoiy fanlarni yanada rivojlantirish, xalq xójaligi va madaniyatni yuksaltirishda muayyan muvaffaqiyatlarni qólga kiri-tishga yordam berdi. Qoraqalpoq fanida erishilgan yutuqlar hamda tórt jildlik «Qoraqalpoq tilining izohli lug'ati»ni yaratishdagi xiz-matlari uchun fanlar akademiyasi bólimining 4 nafar ilmiy xodimla-ri (M.Qalandarov, R.Yesemuratova, A.Tóraboyev, D.Qozoqboyev) 1996-yilda Ózbekiston Respublikasining Beruniy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandilar.

1992-yilda Ózbekiston Respublikasi Qishloq xójaligi fanlari akademiyasining Qoraqalpoq bólimi tashkil etildi. Uning tarkibiga Sh.Musayev nomidagi Chimboy yer ishlari instituti hamda sholichi-lik va chorvachilik institutlarining filiallari kiritildi.

Nukusda SANIIRIning bólimi faoliyat kórsatmoqda. Respublika oliy óquv yurtlarida ham ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Keyingi yillarda Toshkent olimlari kómagida katta miqdor-dagi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlandi. Respublikadagi 60 nafar fan doktorlari va 600 nafar fan nomzodlaridan deyarli 30 foizi Ózbekiston Mustaqilligi yillarida ilmiy daraja oldilar. Ilgari fanlar akademiyasi haqiqiy ázoligiga saylangan Ch.A. Abdi-rov, S.K. Kamolov, A.B. Baxiyevlar qatoriga 1994-2000-yillarda T. Yeshanov, A. Dauletov, U.Hamidov va J. Bozorboyev ham qabul qilindilar. 1997-yilda esa ikki nafar rassom (J. Izentayev va J. Qutti-muratov) Ózbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasining akade-mikligiga saylandilar.

Respublikada yuqori malakali kadrlar ósishida ayniqsa, ijtimoiy fanlar sohasida Ózbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan tarix va arxeologiya, etnografiya, til va adabiyot bóyicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining himoya qiluvchi ixtisoslashgan Kengashlarning tashkil etilayotganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublika olimlari keyingi yillarda chet el mutaxassislari bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Respublika Fanlar Akademiyasining Qoraqalpoq bólimi

bioekologiya instituti xodimlari Germaniya olimlari bilan birgalikda 1993-yildan beri Orolbóyi ekologiyasi muammolari bóyicha tadqiqotlar olib borishmoqda. Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti Avstraliyaning Sidney universiteti olimlari hamda fransuz arxeologlari bilan birgalikda ish olib bormoqdalar. 1995-yilda Móynoqda Germaniya Federativ Respublikasi yordamida bioekologiya institutining xalqaro ekologiya stansiyasi ochildi.

Mustaqil Ózbekiston va Qoraqalpog'istonning dolzarb masalalari respublika shoir va yozuvchilari ijodida katta órin egallaydi. Ózbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroyim Yusupov, Ózbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi Tólepbergan Qaipbergenovlar qatoriga yangi nomlar kelib qóshildi. Saginbay Ibrohimov, Kenesboy Rahmonov kabi shoirlar, Guloysha Yesemuratova, Ózarboy Abdurahmonov, Muratboy Nizanovlar ana shular jumlasidandir.

Xalq tálimi, fan, madaniyat ravnaqini táminlash Qoraqalpog'iston Respublikasi va uning xalqi uchun muhim vazifalardan hisoblanadi. 2007-yildagi málumotlarga kóra, ólkada 761 ta umumtálim maktablari faoliyat kórsatmoqda. Eng zamonaviy óquv qurollari bilan jihozlangan 76 ta kasb-hunar kollejlari, 7 ta akademik litsey yosh avlodga zamonaviy bilim berish bilan shug'ullanmoqda.

Sanát va madaniyatning boshqa sohalari rivojiga katta e'tibor bilan qaralmoqda. Ayni paytda Respublikada 3 ta teatr, 4 ta konsert muassasalari, 3 ta muzey faoliyat kórsatmoqda. Muzeylar eksponatlari yangidan yangi asarlar va jihozlar bilan boyib bormoqda.

Ular soni 2002-yilda 78 ming'ia bólgan bólsa, 2006-yilga kelib 82 ming 600 tadan oshdi. Badiiy adabiyot milliy madaniyatining mu-him bógi'ni sifatida rivojlanmoqda.

2002-2007-yillar mobaynida ikki atoqli qoraqalpoq adiblari-Tólepbergan Qaipbergenov va Ibroyim Yusupovlarga milliy madaniyatning rivojlanishidagi g'oyatda katta xizmatlari uchun davlati-mizning oliy mukofoti «Ózbekiston qahramoni» unvoni berildi. Bir qator san'atkorlarga «Ózbekiston xalq artisti», «Ózbekiston xalq rassomi», «Ózbekiston san'at arbobi» unvonlari berildi.

Ayni paytda Ózbekiston Fanlar Akademiyasining Qoraqalpog'iston bólimi ólkada fan taraqqiyotining asosiy tayanchi vazifasini bajarmoqda. 2002-yilda 3 ta oliy óquv yurti ishlagan bólsa, 2007-yilga kelib ular soni yana ikkitaga kópayib, jami 5 taga yetdi. Buningi kunda 9 ta oliy talim maskani ishlamoqda va ularda zamonaviy kadrlar tayyorlash, óquv-pedagogik ishlar bilan birga fan taraqqiyotiga xizmat qiladigan keng miqyosli ilmiy-tadqiqot ishlari ham olib borilmoqda.

1993-yil yanvarda Toshkentda Qoraqalpog'iston madaniyati kunlari, noyabr oyida esa Qoraqalpog'istonda Toshkent madaniyati kunlari ótkazildi. Bu tadbirlar Nukus va Toshkent madaniyat xodimlari faoliyatini bir-birlariga yaqinlashtirdi. 1996-yilda Qoraqalpoq xoreografiyasi tarixida birinchi marta «Oyjamol» nomli qoraqalpoq baleti (N.Muhammedinova musiqasi, T.Xodjayev asari) sahnalash-tirildi. 1996-yilda Ózbekiston Mustaqilligining 5 yilligi oldidan ótkazilgan «Ózbekiston-Vatanim manim» qóshiq-tanlovida yosh qóshiqchi Roza Kutekeyeva «Mustaqillik gullari» qóshig'i bilan ishtirok etib,

faxrli ikkinchi órinni oldi. Shu yili yana Amir Temur rolining eng yaxshi ijrosi uchun konkursida Berdaq nomidagi drama teatri artisti Bozorboy Uzoqberganov qatnashib, birinchi órinni oldi. Bu misollar Qoraqalpog'iston san'atkorlari Mustaqillik yillari-da erishgan muvaffaqiyatlardan dalolat beradi.

1991-1996-yillarda Nukus shahrining 60 yilligi, Tórtkól shah-rining 120 yilligi, Ajiniyoz Qosiboy óg'lining 170 yilligi, Amir Temurning 660 yilligi keng nishonlandi. Bular ózbek va qoraqalpoq xalqlari dóstligining ramziy belgilaridir. Bular Ózbekiston va Qoraqalpog'iston tarixidagi eng muhim voqealar, ózbek va qoraqalpoq xalqlari órtasidagi dóstlik ramzidir.

Ózbekiston respublikasi birinshi prezidenti I.Karimovning Nukus shahri 60 yilligi bayramida: «O`zbekiston taqdiri bu Qoraqalpog'iston taqdiridir, ózbek xalqining taqdiri bu qoraqalpoq xalqining kelajagidir» degan otashnafas sózlari qoraqalpoq xalqi xotirasida abadiy saqlanib qoladi.

Bugun Qoraqalpoq xalqi shuni yaxshi biladiki, uning amaldagi suvereniteti, Mustaqilligi faqat Ózbekiston bilan birga bólgandagina támirlanishi mumkin. Shuning uchun ham qoraqalpoq xalqi óz taqdirini ózbek xalqi va Ózbekiston bilan abadiy bog'lagan. Ózbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyalari buning yorqin kafolatidir.

Bugungi kunda yurtimizda ilim fan yaqshi rivojlanish bosqishiga yetib kelmoqda. Yurtimizda chet el oliy oquv yurtlariga grantlarning qolga kiritilishi, ilim fan sohasida hamkorlik shartnomlarining qabul qilinishi boshqa davlatlar bilan amalga oshirilyotgan ishlar buning yorqin misoli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ÁDABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz - T, «O'zbekiston», 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T, «O'zbekiston», 2017.
3. Qaraqalpaqstan Respublikası Ministrler Keńesiniń «Qaraqalpaqstan Respublikasındaǵı materiallıq mádeniy miyras obektleriniń mámleketlik qorǵaw dizimin qayta tastıyqlaw haqqında»ǵı 2016-jil 31-dekabr kúngi 407-sanlı qararı, p 5-10.



THE EFFECT OF LACTATION PERIOD DISEASE ON THE MILK YIELD OF COWS IN THE STUDY

Allebekov Berdakh Kabilbekovich¹

Bauaddinov Kamaladdin Karamaddinovich²

Institute of Agriculture and agrotechnologies of Karakalpakstan

KEYWORDS

ration, feed, product, lactation, servings, udder, yellow body, lymph nodes

ABSTRACT

In this article, the abundance of easily digestible carbohydrates in the ration of cattle in the Republic will lead to excessive obesity of cows. But if this condition is prolonged, then the data are given, provided that the sugar content in the blood leads to an increase in metabolism (hyperglycemia) and the excess consumed carbohydrates in the animal body also turn into fat.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6727362

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Assistant of the Department of Zootenistry and Veterinary Medicine, Institute of Agriculture and agrotechnologies of Karakalpakstan, Karakalpakstan, UZB

² Student of Institute of Agriculture and agrotechnologies of Karakalpakstan, Karakalpakstan, UZB

ТАЖРИБАДАГИ СИГИРЛАРНИНГ СУТ МАҲСУЛДОРЛИГИГА ЛАКТАЦИЯ ДАВРИДАГИ КАСАЛЛИКЛАРНИНГ ТАЪСИРИ ЎРГАНИШ

KALIT SO‘ZLAR:

рацион, озуқа, маҳсулот,
лактация, сервис, елин,
сарик тана, лимфа
туғунлари

ANNOTATSIYA

Мазкур мақолада республикамизда қорамоллар рационда энгил ҳазм бўлувчи углеводларнинг кўп бўлиши сигирларни ортиқча семириб кетишига сабаб бўлади. Лекин бу ҳолат чўзилиб кетса, унда қон таркибида қанд моддасининг ортишига (гипергликемия) олиб келиши ва ҳайвон организмида ортиқча истеъмол қилинган углеводларни ҳам ёғга айланишини назарда тутган ҳолда маълумотлар берилган.

КИРИШ.

Ҳозирги кунда дунёнинг барча мамлакатларда аҳолининг озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талабини қондириш муҳим вазифа бўлиб турибди. Бу талаб йилдан-йилга ортиб бормоқда, бу эса ўз навбатида чорвачиликни янада ривожлантиришни, моллар маҳсулдорлигини оширишни тақозо этади. Рационда энгил ҳазм бўлувчи углеводларнинг кўп бўлиши сигирларни ортиқча семириб кетишига сабаб бўлади. Лекин бу ҳолат чўзилиб кетса, унда қон таркибида қанд моддасининг ортишига (гипергликемия) олиб келади. Бўғоз сигирларнинг ўпка, жигар, лимфа туғунлари, сарик тана, йўлдош ва елин безларида кўп миқдорда ёғ тўпланади. Бу даврда ёғни синтез бўлишининг кўпайиши ва уларни парчаланишини секинлашуви оқибатида парчаланиб улгурмаган оралиқ маҳсулотлар (аденилфосфат, ацетосирка кислоталари, ацетон ва х.к.) ҳосил бўлади ва бу ацетонемия касаллигига яъни ҳайвонларда ҳорғинлик бўшашиш, мадорсизлик ҳолатини ва меъда олди бўлимлари иш фаолиятини пасайиши билан ҳарактерланади. Шунинг учун бўғоз сигирлар рационда 1 ц тирик вазни учун тўғри келадиган тозаланмагаи ёғнинг миқдори 40-50 г дан ортмаслиги керак. Ҳайвон организмида ортиқча истеъмол қилинган углеводларни ҳам ёғга айланишини назарда тутган ҳолда рационда энгил ҳазм бўлувчи углеводларни ортиб кетишидан яна бир бор сақланмоқ лозим.

Айниқса, бу борада ёз пайтида бошоқли кўк ўтлар нисбатини кўпайтириш мақсадида хўжаликда сули, кўп ўримли жўхори, судан ўти кабиларни экиш 1 га ердан олинандиган озуқа бирлиги ҳажмини кўпайтириш билан рациондаги қанд миқдорини кўпайтириш эвазига қанд протеин нисбатига ижобий таъсир этиб, сигирларнинг озуқа ҳазм қилиш аъзоларига ижобий таъсир этиб, тўйимли моддалардан самарали фойдаланишни таъминлайди.

Аслида иложи борича хўжаликда оралиқ ва такрорий экинларни кўпроқ экиш ҳосилдорлигини ошириш эвазига сенаж ва силос тайёрлашни кўпайтириш эвазига


сигирларни йил давомида бир хил типли рационларда боқишни ташкил қилиш сигирларнинг озуқаларни ҳазм қилишини яхшилайти.

1-жадвал

Сигирларни озиқлантириш рациони

№	Озуқаларнинг номи	Миқдори, кг	Тўйимлилиги	
			Озуқа бирлиги	Ҳазм бўлувчи протеин
1.	Беда пичани	4	1,76	404
2.	Буғдой сомони	3	0,6	15,0
3.	Маккажўхори силоси	30	6,0	420
4.	Омухта ем	2	1,8	202
5.	Ош тузи	0,05	-	

Жадвал маълумотларини таҳлил қилсак соғим сигирлар ҳар куни 10,16 озуқа бирлиги ҳисобида озуқалар истемол қилганлар, шундан ҳазмланувчи протеин 10,41 г ни ташкил этган. Рацион таркибидаги қолган барча тўйимли моддалар меъёрида бўлиб, бу кўрсаткич тирик вазлари 400-500 кг атрофида бўлган соғин сигирлардан кунига 10-12 кг сут соғиб олиш имконини беради.



1-жадвал диаграммаси.

Молларни озиқлантириш тартибини бузилиши ва сифатсиз озуқалар билан озиқлантириш натижасида 50-70% гача касалликлар келиб чиқиши кўпгина олимлар томонидан исботланган. Озуқаларни тайёрлаш, ташиш, сақлаш ва қайта ишлашда маълум тадбирлар қўллаш бўйича зогиgienик талаблар қўйилган. Чириган ёки кучли моғорлаган озуқаларни беришга рухсат берилмайди. Оз моғорлаган озуқаларга термик йўл билан ишлов берилади ва озуқалар моғор ва замбруғларда 2-3% ли оҳак еритмаси ёки сода ишқори билан 3-5 соат давомида ишланиб сўнгра ювилади. Емли озуқалар 25% ли содали карбонад ангдрид эритмасида ишлов берилади. 100 С да 1 соат давомида қиздирилади.

Сил, бруцеллез, оқсил касали билан касалланган сигирларни сутини 70-90° С да 30

дақиқа пастеризациялаб бузоқларга ичирилади. Давлат стандартларига кўра донли озуқалар таркибида намлик 12-15%, кислоталик 9,5%, заҳарли ўтлар уруғи, 1% гача бегона ўтлар уруғи, 8% гача бўлиб, заҳарли каналар, нурчалар умуман бўлмаслиги зарур.

Энг кенг тарқалган силосбоп экинларга маккажўхори ва оқ жўхори, кунгабоқар, бир йиллик ғалласимон+дуккаклилар аралашмаси ва бошқалар киради. Энг юқори сифатли силосни маккажўхоридан тайёрлаш мумкин ва бу силос бошқа ўтлардан олинган силослар учун эталон ҳисобланади. Сабаби, унда рН оптимал миқдорда, сут ва сирка кислота нисбати (70:30), ёғ кислотасини сақламайди, тўйимлилиги юқори ва парҳезлик хусусиятларига эга. Силоснинг сифати, ранги, ҳиди, ундаги ўсимликлар ранги билан баҳоланади. Ундаги сут ва сирка кислоталар 2% дан кўп бўлмай, ёғ кислотаси бўлишига йўл қўймаслик керак. Бундан ташқари пичан бир хил майдаланган ёқимли мева ҳидли, донадор бўлиб унинг рН 4,5 дан кам бўлмайди.

Хулоса: Кунжара таркибида минерал ёки метал майдалари бўлмаса озуқа сифатида ишлатиш мумкин. Унинг таркибидаги еркин гассипол миқдори 0,01% дан ошмаслиги керак. Шунинг учун кунжарани профилактик мақсадда юқори ҳароратда ишланади. Кунжарани ёш қорамолга 4 ойлигидан бошлаб 100 гр дан, катта ёшли ҳайвонга 1 кунда 3 кг дан зиёд берилмаслик керак. Ўсимликлардан олинган озуқалардан қорамоллар картошка, барда, қанд лавлаги, маккажўхори заҳарлаши мумкин. Бунинг олдини олиш учун қанд лавлагини ҳайвонга оз оздан 5-7 кг гача, катта ёшли ҳайвонга 1 кунда 15 кг гача бериш тавсия этилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Алиев Р.Г., Алипанаҳов А.Б. Особенности коров красной степной породы и её помесей, Ж.Зоотехния, № 1, 2005, с. 8-11.
2. Dinca CN. Repausul mamaz, Factor important in sporire producsil de Japte Javaci, reu, zootehn, vetedin, 2013,7,79.
3. Кузнецов Й.В., Сичева Л.В. Влияние кормовых добавок на Продуктивность дойних коров. Ж Зоотехния, № 4, 2009, с. 4-6.
4. Рўзиев Н. Сигирлар маҳсулдорлигини оширишда серсут қилишнинг аҳамияти. Зооветеринария журналы, № 7. 2013. 29-30 б.



BASIC PRINCIPLES OF CITIZENSHIP OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: CONSTITUTIONAL AND LEGAL ANALYSIS

Toksanbaeva Ayjamal Mangytbay kizi¹

Karakalpak State University

KEYWORDS

citizenship, principle, constitutional principles, international standards and norms, implementation of international standards, the principle of the right to citizenship, the principle of equal citizenship, the principle of inadmissibility of extradition of a citizen to another state

ABSTRACT

The article analyzes the essence of the institution of citizenship, the main principles of this institution, clarification of the constitutional bases, their types, scope and importance in the system of legal status of the citizenship of the Republic of Uzbekistan on the basis of comparative analysis of the sources of constitutional law and legislation of foreign countries, and exploration of the study of international law and universally recognized standards. It identifies legal gaps and contradictions in the field of legal regulation of citizenship of the Republic of Uzbekistan on the basis of comparison of the legislation of the CIS and the Baltic states, and provides scientifically based proposals and recommendations for their elimination. Moreover, the need and benefits of the implementation into national legislation, including the Constitution of the Republic of Uzbekistan based on the results of the research of the level of compliance of the legislation on citizenship of the Republic of Uzbekistan with the universally recognized rules and principles of international law. In addition to, the article emphasizes the significance of the application of universally recognized legal norms in internal law, which improves the “image” of the Republic of Uzbekistan in the international arena and show clear position on the right to citizenship (or change it).

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6727469

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of the Faculty of Law of Karakalpak State University, Karakalpakstan, UZB

INTRODUCTION

The research on the citizenship is closely connected to human rights and freedoms as well as state sovereignty. Because the strong legal relationship between the individual and the state is formed via the citizenship. There are some views on this issue; however, there is no generally recognized and accepted single position. It creates certain ambiguities in realizing the basic principles of the institution of citizenship and the nature of the conditions for their application in practice.

In current, international standards imply the effective guarantee of the individual's natural and civil rights as the primary task. Every state decides on the acquisition and abolition of citizenship in the manner prescribed by internal law. This means that the requirements of international law should be taken into consideration in the development of legal norms. On this basis, it is important to scientifically theoretical research the principles that the citizenship of the Republic of Uzbekistan is based on.

RESULTS AND ITS DISCUSSION

One of the important elements of a person's legal status is the principles that it is possible to define the level of guarantee of individual rights and freedoms, to what extent the national legislation is appropriate to the international standards.

According to P. E. Nedbaylo, "law principles reflect the objective features of society that arise under the influence of the laws of development, various historical interests, needs and contradictions" [1]. Kartashov V. N. points out that, "law principles are the preliminary (initial) instructions (strict requirements) that determine the general direction of the legal regulation of social relations" [2]. Accordingly, professor Kh.T.Odilkoriev emphasizes law principles as the target, leading criterion that guides the formation and development of law [3].

According to the scope of application of the law principles in the legal literature, conditionally divided into: 1) general law (applies to all spheres of law); 2) inter-sectoral (specific to a group of interconnected sphere of law); 3) sectoral (related to separate sphere of law) [4]. The legal principles of the institution of citizenship are also special rules in this sphere and do not contradict the general legal principles in essence.

Based on the above-mentioned general scientific approaches, it can be said that the basic principles of the institution of citizenship are also the leading ideas and rules that determine (guarantee) the effectiveness of the institution. According to M. A. Buchakova, the legal principles of citizenship should be suitable with generally accepted norms of international law, ensuring the mutual balance of the individual, society and the state [5]. That is why the application of universally recognized legal norms in the internal legislation of the states is of great importance. On this basis, we analyze the extent to which the relationship of citizenship of the Republic of Uzbekistan is covered by legal principles.

The analysis of the norms of the Constitution of the Republic of Uzbekistan shows that despite the fact that they have a separate chapter for the institution of citizenship (Chapter VI. Citizenship), nevertheless do not fully reflect the basic provisions guaranteeing the rights

to citizenship. In particular, it stipulates only for the principles of unique and equal citizenship (Article 21), as well as legal and diplomatic protection (Article 22). This, in our view, as lawyer S.A. Akimova points out, “principles that are not defined at the constitutional level hinder the creation of the content of national institutions of citizenship and rules, undermining the clarity and attention they need” [6].

Furthermore, the Article 4 of the Law of the Republic of Uzbekistan “On citizenship of the Republic of Uzbekistan” No. LRU-610 dated on March 13, 2020 (title of the article: “Citizenship in the Republic of Uzbekistan”) stipulates rules (norms) disclosing the content and specifics of the institution of citizenship however, they have not been recognized as the principles of this institution. The laws of most CIS and Baltic states clearly state that these rules are the principles of the institution of citizenship. For instance, the citizenship laws of the states such as Belarus (Article 3), Kyrgyzstan (Article 4), Lithuania (Article 3), Moldova (Article 7), Russia (Article 4), Tajikistan (Article 4), Turkmenistan (Article 4) and Ukraine (Article 2) are the examples.

In our view, it is expedient to clearly define the principles on which the citizenship of the Republic of Uzbekistan is based in the current legislation. Indeed, as V.N.Kartashov points out, “different ideas can become law principles only if they are directly reflected in legislation or other forms of law” [7]. Otherwise, their importance naturally decrease in practical activities.

